

Kamola Rixsiyeva


**“QAP=” ASOSLI BIRLIKLAR
GENEZISI VA SEMANTIK
TARAQQIYOTI**

**BOOKMANY
PRINT**



Kamola Rixsiyeva

**“QAP=” ASOSLI BIRLIKLAR
GENEZISI VA SEMANTIK
TARAQQIYOTI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

Rixsiyeva Kamola Gafurovna

**“QAP=” ASOSLI BIRLIKLAR
GENEZISI VA SEMANTIK
TARAQQIYOTI**

Monografiya

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2023**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

R 64

Rixsiyeva Kamola Gafurovna.

“QAP=” asosli birliklar genezisi va semantik taraqqiyoti [Matn] :
Monografiya / K.G. Rixsiyeva. – Toshkent: Bookmany print, 2023.
– 122 b.

Mas’ul muharrir:

Zulxumor Xolmanova – filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Samixon Ashirboyev – filologiya fanlari doktori, professor

Alisher Ubaydullayev – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Monografiyada turkiy tub soʻzlar va ularning tilshunoslikdagi tadqiqi masalasi oʻrganilgan. Turkiy tub soʻzlar semantikasiga oid xususiyatlar bayon etilgan. Umumturkiy “qap=” asosli birliklar genezisi va semantik taraqqiyoti tadqiq etilib, qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski oʻzbek tili davrlaridagi maʼnolari yozma manbalardan toʻplangan misollar asosida tahlil etilgan. Hozirgi oʻzbek tili hamda shevalaridagi “qap=” asosli birliklar, ularning semantik xususiyatlari oʻrganilgan hamda bu xususiyatlarning diaxron va sinxron aspektdagi qiyosi amalga oshirilgan. Qadimgi turkiy tildan rus tiliga oʻzlashgan “qap=” asosli birliklarning oʻzlashtirilishiga oid manbalar tahlili amalga oshirilgan. Yozma manbalardan toʻplangan hamda hozirgi oʻzbek tiliga oid lugʻatlardagi “qap=” asosli birliklar lingvostatistikasi olib borilgan. Ularning etimologiyasiga oid maʼlumotlar keltirilgan.

Monografiya talabalar, tadqiqotchilar, filologlar va tilshunoslikka qiziquvchi keng omma uchun moʻljallangan.

Monografiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti kengashining 2023-yil 26-iyundagi 2-sonli yigʻilishida nashrga tavsiya qilingan.

© **Rixsiyeva K.G.**

ISBN 978-9910-9737-3-4

© **“Bookmany print” nashriyoti, 2023.**

SEMANTIKANING LINGVISTIK SOHA SIFATIDAGI TARAQQIYOTI

Semantika tavsifi va leksik semantikaga oid tadqiqotlar

Semantika tilshunoslikning alohida mustaqil sohasi hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda, terminologik lugʻatlarda semantikaning ilmiy tavsifi keltirilgan: “*Semantika* yunoncha *sema* soʻzidan olingan boʻlib, til birliklarining mazmuniy, maʼno tomonini ifoda etadi¹”. Ilmiy-ommabop lugʻatlarda semantikaga keng taʼrif berilgan: *Semantika* 1) til yoki uning biron bir birligi (soʻz, soʻzning grammatik shakli, frazeologizm, soʻz birikmasi, gap) orqali ifodalanadigan butun mazmun, maʼno, axborot; 2) turli til birliklarining maʼnoviy tomonini oʻrganuvchi tilshunoslik boʻlimi; semasiologiya. Keltirilgan izohda semantikaga oid ikki tushuncha muhim oʻrin tutadi: birinchisi, muayyan til birligiga xos “maʼno” tushunchasi bilan bogʻliq boʻlsa, ikkinchisi, til birligining maʼno tomonini tadqiq qiluvchi tilshunoslik sohasini anglatadi. Ayrim lugʻaviy birliklar tushuncha bildirishi, bu tushunchalar toʻliq gaplar va ularning qoʻshilmalari orqali ham ifodalanishi qayd etilgan. Semantikaning oʻrganish obyekti, asosan, toʻliq, mustaqil maʼnoli soʻzlar va gaplarning maʼnolar tizimidan iborat ekanligi taʼkidlangan. Keyingi yillarda kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika doirasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlardan semantikaning faqat mustaqil maʼnoli soʻzlar va gaplarni emas, balki morfologik shakllar va yordamchi soʻzlar mazmunini ham qamrab olishi maʼlum boʻladi.

“Semantika” termini fransuz tilshunosi Breal tomonidan ilmiy isteʼmolga kiritildi, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida semantika mustaqil soha sifatida rivojlandi. Semantika bir necha tarixiy taraqqiyot bosqichlaridan oʻtdi, hozirgi kunda rivojlangan jamiyat axborot texnologiyalarida ham qoʻllanmoqda. Semantikaning ildizlari qadimgi davrlar falsafasi negiziga borib taqaladi. Lingvistik birliklar maʼnosini tadqiq etish bundan bir necha yuz yillar oldin ham qadimgi Xitoyda er.avv. V – III asrlarda, qadimgi Gretsiyada va undan keyin oʻrta asr Yevropa anʼanalarida, soʻngra esa

¹ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент, 2002. –Б.87.

Uygʻonish davri grammatikachilari va faylasuflari tomonidan amalga oshirilgan².

Muayyan vaziyatlarda soʻz maʼnolarining oʻzgarishi, tafakkurning tilda aks etishi, tafakkur va til taraqqiyoti muammolari XVII-XVIII asrlar falsafiy masalalari qatorida tilga olingan. “Maʼnoni oʻrganish tarixi antik davrlardan boshlanadi. U davrlarda maʼnoga falsafiy nuqtai nazardan yondashilgan. Qadimgi Gretsiyada soʻz va u nomlayotgan narsa tabiatan bogʻliqmi yoki nom va maʼno oʻrtasidagi bogʻliqlik shartlimi, degan masala koʻndalang qoʻyilgan. Ushbu faktlarga asoslansak, semasiologiya antik davrlarda paydo boʻlgan, deya olamiz. Lekin bu davrlardagi maʼnoshunoslik tilshunoslik emas, balki falsafaning tarkibiy qismi sifatida shakllana boshlagan³. Semantika haqidagi dastlabki qarashlar semiotika va mantiq doirasida boʻlgan. Semantikanning keyingi taraqqiyotida Ch.Pirs, F.de Sossyur va Ch.Morrisning qarashlari alohida ahamiyatga ega. G.Frege, B.Rassel, A.Tarskiy, R.Karnap va boshqa olimlarning tadqiqotlarida semantika masalasi mantiq va tafakkur masalasiga aloqadorlikda yoritilgan.

XIX asrga kelib semantikaga oid ilmiy qarashlar tizimli ravishda umumlashtirildi, etimologiya sohasida bir soʻzdan boshqa bir soʻzning yasalihi, soʻz maʼnosidagi oʻzgarishlarni aniqlash va tahlil qilish talabidan kelib chiqib, semantika masalasiga alohida eʼtibor qaratila boshladi. XIX asrning ikkinchi yarmida tilshunoslikning tabiiy fanlar bilan aloqasi, integrativ sohalarning yuzaga kelishi, tilning fonologiya tizimi tahlili bilan bir qatorda nutqning psixologik xususiyatlariga qiziqishning ortishi semantikaning soʻz maʼnolaridagi oʻzgarishlarni tadqiq qiluvchi soha sifatidagi taraqqiyotini taʼminladi.

Semantika lingvistik soha sifatida oʻz tadqiq obyektiga ega. Semantika va uning masalalari doirasida markaziy oʻrinni tilning lugʻaviy birligi egallaydi. Bu esa semantikaning bir qadar murakkab jarayonlar tahliliga aloqadorligidan dalolat beradi. Chunki tilning lugʻaviy birligi boʻlgan soʻz, bir tomondan, tushuncha ifodasi sifatida qaralsa, boshqa tomondan esa grammatik, pragmatik, kognitiv omillar bilan aloqadordir. Lingvistik semantikaning asosiy

²Жеребило Т.В. Лингвосемантическая парадигма в соотношении с лингвостилистикой // Lingua-universum. – 2006. – № 3. –С. 17-21.

³Hakimova M. Semasiologiya. Oʻquv qoʻllanma.–Toshkent, 2008. –Б. 5.

vazifalaridan biri nolisoniy voqelikning soʻz maʼnosida qanday aks etayotganligi va oʻzgarayotganligini aniqlashdan iboratdir⁴. Semantika va uning masalasini belgilash, soʻzlarning semantik strukturasini baholashda lisoniy va nolisoniy omillarga tayanish kerak boʻladi.

Semantika boshqa fan sohalari kabi, oʻz tadqiqot predmetiga ega. Biroq bu predmetni aniqlash oson emas. Predmetni aniqlashtirishdagi har xilliklar tufayli semantika va boshqa lingvistik fanlar, xususan, semantika va pragmatika oʻrtasidagi chegaralarni oʻrnatishda ham har xillik yuzaga keladi. Shuning uchun semantikaning predmetini belgilash alohida masʼuliyat bilan yondashishni taqozo qiladi⁵.

Semantika koʻp hollarda *semasiologiya* termini bilan sinonimik munosabatda qoʻllanadi: “Semasiologiya (yun. semasia – “ifodalash”+logos – “tushuncha”, “taʼlimot”) til birliklarining, birinchi navbatda, lugʻaviy birliklarning semantik tuzilishi va u bilan bogʻliq masalalarni oʻrganuvchi sohadir”⁶. Semantika va semasiologiyani ayni tushunchalar sifatida baholash toʻgʻri emas. Semantika semasiologiyadan quyidagicha farqlanadi:

1. Semasiologiya aksariyat hollarda leksemalar mazmuni, maʼnosini aks ettirish uchun qoʻllanadi. Semantika tilning barcha sathlari mazmunini tomonini qamrab oladi. Shu jihatdan semantika semasiologiyaga nisbatan keng tushuncha hisoblanadi.

2. Semasiologiya soha sifatida maxsus turlarga ajratilmaydi. Semantika oʻz ichida bir qator turlarga boʻlinadi.

Semantika oʻrganish obyekti nuqtai nazaridan fonetik, leksik, frazeologik, grammatik, sintaktik semantika kabi turlarga ajratiladi. Leksik semantika bu turlar orasida ahamiyatli oʻrinni egallaydi. Borliq narsa-hodisalarining umumiy belgilarini aks ettiruvchi tushunchalarni ifodalovchi soʻz va uning maʼnosi leksik semantikaning muhim masalasi hisoblanadi. Bundan maʼlum boʻladiki, leksik semantika va semasiologiya tilning lugʻaviy birligi

⁴ Бу ҳақида қаранг: Золотарёва Т.А. Семантические особенности английских абстрактных существительных, влияющие а употребление артикля: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2003. –С. 10.

⁵ Кобозева И.М. Лингвистическая семантика. –М: Эдиториал УСС. 2000. –С.8-10.

⁶ Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. –Б. 87.

bo'lgan so'z va uning leksik ma'nosi bilan shug'ullanuvchi bitta sohaning ikki xil nomlanishidir. Semantika sohani ifodalash bilan bir qatorda jarayonni ham anglatadi. Masalan, funksional semantika alohida hodisa sifatida qayd qilinadi: "Funksional semantika. So'z semantikasining o'zgarishini ular anglatgan narsalarning bir xil vazifa bajarishi bilan izohlovchi nazariya. Mas., rus. *pero* (qush pati) – *pero* (yozuv quroli)"⁷.

Ma'lumki, ma'no va uning turlari va tiplari, tarkibi va ko'lami, ifodalanish vosita va omillari har xil yondashuvni talab etadi. Semantika ma'no ko'rinishlarini tahlil qilishda o'ziga xos qonuniyatlarga asoslanadi. Semantika tahlil jarayonida til birliklarining propozitsiyasini, diktum va moduslarini qamrab oladi. "Lingvistik semantika – so'zlovchining haqiqatlarni, his-tuyg'ularini, niyatlarini va tasavvur mahsulini boshqa so'zlovchilarga yetkazish imkonini beradigan va tilni biladigan har qanday so'zlovchining bilimlarini tushuntirishga urinishdir..."⁸.

Semantika leksik ma'no haqidagi fan sifatida shakllanib, leksik ma'no bilan bog'liq semantik taraqqiyot, ma'no kengayishi, torayishi, ixtisoslashishi, uzual va okkazional ma'no, bosh va hosila ma'no, sinonimiya, antonimiya, polisemiya kabi semantik hodisalar doirasidagi masalalar tadqiqi bilan shug'ullanuvchi lingvistik soha sifatida tavsiflangan. Keyingi yillarda semantik tahlillarda lug'aviy ma'noga bog'liq ravishda grammatik ma'nolar ham qamrab olinmoqda.

Semantik taraqqiyotda semantik maydon, valentlik, milliy xususiyatlar masalasi ham alohida o'rin tutishi tadqiqotlarda ta'kidlangan. Semantikaga doir izlanishlarning aksariyati til lug'aviy birliklarining mazmuniy aloqadorligiga asoslangan semantik maydon tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlardir.

So'zni semantik maydonlarga ajratib tadqiq etish 1930-yillarda nemis tilshunosi Y.Trir tomonidan ilgari surilgan edi⁹. Bunda u

⁷Ўша маъба: –Б. 126.

⁸Charles W. Kreidler. Ingliz semantikasi haqida. – Routledge, 1998.

⁹ Каранг.: Trier J. Der deutsch Wortschats im Sinnbezirk des Verstandes. –Heidelberg. 1931; Die Wortc des Wissens // Mitseilungen des Universitatsbundes. –Marburg. 1931; Sprachliche Felder // Zeitschrift fur deutsche Bildung.b1932. Bd. 8. Hf. 9. –P.417-425; Deutsche Bedcutungsforschung. –Germansche Philologie: Ergebnissc und Aufgaben. Festschrift fiir Obehahel. – Heidelberg. 1934. –P. 173-200.

“tushuncha maydoni”dan kelib chiqib fikr yuritdi. Uning ta’biricha, har bir soʻz bir “tushuncha maydoni”ga kiradi va hech biri oraliq holatida qolmaydi. Shuningdek, soʻzlar bir-biri bilan tutashmaydi. Soʻz ma’nosining tarixiy taraqqiyoti oʻzgarmas holda tuzilgan maydonning qayta qismlarga boʻlinishidir.

Y.Trirning semantik maydonlar haqidagi nazariyasini uning vatandoshi L.Vaysgerber davom ettirdi. Uning fikricha, til obyektiv borliq bilan kishilik ongi oʻrtasidagi oraliq olamdirdi. Shuning uchun xam, turli xalqlar tashqi obyektiv borliqni turli til vositasida turlicha tushuntiradilar. Soʻzning ma’nosi shu soʻzning qaysi soʻzlar guruhiga kirishi, ya’ni qaysi maydonda ekanligiga qarab belgilanadi¹⁰.

G.Shchur olib borgan 70ga yaqin ilmiy ishlarning aksariyati semantik maydonlar nazariyasiga bagʻishlagan. Bu sohada u tilning barcha sohalaridagi semantik maydon nazariyasini tahlil etib beradi¹¹. Uning, ayniqsa, semantika, semantik taraqqiyot doirasidagi maydon nazariyasi qimmatli manba hisoblanadi.

Oʻtgan asrning 40-yillarida soʻzlarni semantik maydonlarga ajratishning yangi metodi yuzaga keldi. Bu Praga maktabi tomonidan ilgari surilgan boʻlib, u differensial-semantik tahlil etish deb nomlandi¹². Bu metod asosida soʻz leksik ma’nosi *semema* deb olinib, komponentlari *sema* deb qaraladi. Leksema sememalari umumlashtiruvchi, ya’ni arxisemaga koʻra bir semantik maydonni tashkil qiladi. Bu semantik maydon maydonchalarga, ya’ni guruhlarga boʻlinib, ular integral semasi asosida oʻzaro birlashadi. Semantik maydonga kiruvchi har bir leksema sememasi differensial semasiga koʻra boshqa semalardan farqlanadi. Shunga koʻra aytish mumkinki, dastlab semantik maydonlar mantiqiy-semantik jihatdan ajratilgan boʻlsa, bu metodga koʻra maydonlar lingvistik-semantik jihatdan hosil qilinadi.

Soʻz semantik maydonlarini differensial-semantik tahlil etish metodi dastlab Praga maktabidan kelib chiqqan boʻlsa ham, uning keng yoyilishi daniyalik L.Yelmslevning Praga maktabi toʻplamida 1943-yil nashr etilgan maqolasi bilan bogʻliq¹³. Biroq bu metod

¹⁰ Weisgerber L. *Worn Weltbilder der deutschen Sprachc.* –Dusseldorf. 1950.

¹¹ Щур Г.С. *Теории поля в лингвистике.* – М.: Наука. 1974.

¹² Засорина Л.Н. *Введение в структурную лингвистику.* – М.: ВШ. 1974. С. 115.

¹³ Ельмслев Л. *Пролегомены к теории языка // Новое в лингвистике. Вып. I.* –М.: Радуга, 1960.

dastlabki davrda juda tor doirada: qarindosh-urug‘chilik, jonivor nomlari, harbiy atamalar va ba’zi bir ixtisosga doir terminlar semantik maydonini tahlil qilish uchun qo‘llangan edi, bunda ular ayrim terminlarni differentsiatsiya qilish uchun foydalanganlar.

XX asrning 50-yillarida yuzaga kelgan semantik tadqiqotlar V.Zveginsev nomi bilan bog‘liq. V.Zveginsev “Semasiologiya” nomli monografiyasida umumiy semasiologiyaning mazmunini yoritdi. Olim o‘z davrigacha ma’lum bo‘lgan ilmiy asarlarni talqin qildi va semasiologiyaning asosiy masalalariga aniqlik kiritdi. Leksik ma’no, ma’no taraqqiyoti, ma’no miqdoriga ko‘ra so‘z tiplari, ma’nolarning paradigmatic munosabatlariga oid fikr-mulohazalarini bayon etdi¹⁴.

XX asrning 60-yillari oxiriga kelib differensial belgilarning an’anaviy nazariyasiga aniqlik kiritildi. Bu I.Tolstoy, D.Shmelev, Yu.Nayda kabi tadqiqotchilarning ishlarida o‘z aksini topgan¹⁵. XX asrning ikkinchi yarmida D.Shmelevning ilmiy izlanishlari rus tilshunosligidagi semantik tadqiqotlarning rivojlanishiga hissa qo‘shdi¹⁶.

Shundan keyin sememalarni ierarxik tartibda tuzish g‘oyasi muhokama etila boshlandi. Bunda B.Potye, L.Xeller bilan I.Makris, N.Tolstoy, V.Gak kabi tilshunoslarning ishlarini hisobda tutish joizdir¹⁷. Ayniqsa, B.Potye va V.Gaklarning asarlarida ilgari surilgan masalalar diqqatga sazovor bo‘lib, sememalarni ierarxik tartibda tuzish uchun komponentlar arxisema, integral sema, differensial sema, potensial semalarga ajratiladi va shularga asoslanishi lozimligi ta’kidlanadi¹⁸.

¹⁴ Ўша асар. –Б. 125.

¹⁵Толстой Н.И. Некоторые проблемы сравнительной славянской семасиологии // Славянское языкознание. –М.: Наука. 1968. –С. 339-365; Шмелев Д.Н. Проблемы семантического анализа лексики. Автореф. дисс. ...докт. филол. наук. –М., 1965. –С. 15; НайдаЮ.Н. Наукաперевода // ВЯ, 1970. – №4. –С. 9.

¹⁶ Шмелев Д.Н. Очерки по русской семасиологии. –М.,1964.

¹⁷Крнґ.: Pattier B. La definition semantique dans les dictionnaires // Travaux de linguistique et de litterature. III.

– Strasbourg. 1965; Heller G., Macris J. Parametric linguistics Mouton and Co. TheHague. – Paris. 1967; Толстой Н.И. Некоторые проблемы сравнительной славенской семасиологии; Гак В.Г. К проблеме семантической синтагматики // Проблемы структурной лингвистики. – М.:Радуга, 1972.

¹⁸Pottier B. Ladef inition semantique dansles dictionnaires. – P. 31; Гак В.Г. К проблеме семантической синтагматики. – С. 341.

Umuman, soʻz semantikasini lingvistik-semantik metod bilan oʻrganish soʻz semantik maydonini lingvistik tadqiq etish imkonini berdi. Bu semantik maydonning tarkibiy pogʻonalarini nomlash ularning sememalari taraqqiyoti ierarxik tizimini oʻrganish imkonini yaratdi. Shunga asoslanib tilshunoslikda bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Masalan, rus tilshunosligida O.Seliverstovaning koʻp maʼnoli soʻzlarning komponent tahliliga¹⁹, L.Vasilevning ruscha feʼllar semantikasiga²⁰, V.Ibragimovaning ruscha yoʻnalma harakat feʼllari semantikasiga²¹ bagʻishlangan monografiyalari yuzaga keldi. Bulardan birinchisi koʻproq soʻz semantik taraqqiyotini nazarda tutsa ham, qolgan ikkitasi feʼl semantik maydonlari va ular tarkibi tahliliga qaratilgan tadqiqot ishlaridir.

L.Novikov semantika masalalari, semantika vazifalari, lugʻaviy birliklarga xos leksik-semantik tizim, leksik maʼno va uning semantik tarkibi, tahlili haqida izlanishlar olib bordi²².

I.Kobozeva semantika haqida fikr yuritir ekan, uning boshqa fan sohalari kabi, oʻz oʻrganish predmetiga egaligini taʼkidlaydi. Biroq bu predmetni aniqlash oson emasligini qayd etadi. Garchi tilshunoslarning aksariyati semantika lingvistik ifodalarning maʼnosini oʻrganadi, deb hisoblasa-da, maʼno nimalarni anglatishi kerakligi haqidagi savolga umumiy qabul qilingan javob yoʻq. Predmetni aniqlashtirishdagi har-xilliklar tufayli semantika va boshqa lingvistik fanlar, xususan semantika va pragmatika oʻrtasidagi chegaralarni oʻrnatishda ham har xillik yuzaga keladi. Semantika – til birliklarining mazmunini va ushbu birliklardan qurilgan nutqiy hosilalarni oʻrganadigan tilshunoslik boʻlimidir²³.

Oʻzbek tilshunosligida lingvistik semantika masalalari I.Qoʻchqortoyev va Sh.Rahmatullayev²⁴ kabi olimlarning izlanishlarida oʻz aksini topgan. Jumladan, I.Qoʻchqortoyev semantika va uning masalalari, leksik maʼno va uning mohiyati,

¹⁹ Селиверстова О.Н. Компонентный анализ многозначных слов. – М.: Наука, 1975.

²⁰ Васильев Л.М. Семантика русского глагола. – М.: Вильямс, 1981.

²¹ Ибрагимов В.Л. Семантика русского глагола. – Уфа: Изд. БУ, 1988.

²² Новиков Л.А. Семантика русского языка. – М., 1982.

²³ Кобозева И.М. Лингвистическая семантика. – М: Эдиториал УСС, 2000. – С. 8-10.

²⁴ Рахматуллаев Ш. Семема– мустакил тил бирлиги//ЎТА, 1984. №5. – Б.18; Рахматуллаев Ш., Юнусов Р. Семемаларнинг семалар состави ва семантик боғланиш ҳақида // ЎТА, 1974. № 1; Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1992. –Б.173-147.

strukturasi, soʻz maʼnosi va uning valentligini birinchilardan boʻlib ilmiy asosda yoritgan. Olimning fikricha, soʻz bilan bogʻliq boʻlgan masalalardan biri soʻz semantik hajmi masalasidir. Qator semasiologik tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega boʻlgan ushbu masala tilshunoslikda har xil talqin etiladi. Soʻzning semantik hajmi²⁵ (soʻzning mazmuni, maʼno tomoni) bir butun, yaxlit hodisa emasligi barcha tilshunoslar tomonidan eʼtirof etiladi. Soʻz semantikasi elementlarining bir tipdagi hodisalar emasligi ham qayd etilgan. Soʻz semantikasi elementlarining bir-biriga munosabati haqida ham har xil talqinlar mavjud boʻlib, soʻz semantikasi elementlarining turli maʼno yoki bir maʼnoning turli koʻrinishlari, variantlari sifatida baholanishi yuzasidan ham turlicha fikr-mulohazalar bildirilgan²⁶. Olim V.Zveginsevning “til birligi boʻlgan fonema nutqda konkret tovushlarda (variantlarda) reallashgani kabi, soʻz maʼnosi (umumiy maʼno) ham nutqda oʻziga xos variantlarda reallashadi”²⁷ degan fikriga eʼtiroz bildirib, “Masalaning bunday qoʻyilishi ikki hodisani oʻzaro farqlashni taqozo etadi: 1) umumiy maʼno va 2) maʼnoning variantlari. Soʻz maʼnosini bunday tushunish polisemiyaning rad etadi. Bu nuqtayi nazarga muvofiq, asosiy maʼno, toʻgʻri maʼno, koʻchma maʼno kabi terminlar real hadisalarni bildirmaydi; soʻz bunday maʼnolarga ega emas²⁸”, – deydi. Sh. Rahmatullayev leksik maʼnoning ideografik, turkumlik, ijobiy yoki salbiy baho semasi va sh.k. majmuidan tashkil topishi, leksema monosemali boʻlsa, «yuqorida taʼkidlangan murakkab mazmun jihati leksemaga xos boʻlishi, agar leksema koʻp maʼnoli boʻlsa, uning har bir leksik maʼnosiga xos boʻlishini» taʼkidlagan. Mana shunday mazmun planiga ega har bir leksik maʼnoga oʻzicha mustaqil til birligi tarzida qarash, uni *semema* termini bilan nomlash toʻgʻriligi haqidagi fikrni ilgari surgan²⁹.

R.Rasulov soʻzning semantik tuzilishi (strukturasi) bevosita maʼno (semema) bilan bogʻlanishini taʼkidlaydi. Chunki semantik

²⁵ Уфимцева А. А. Опыт изучения лексики как системы. – М., 1962, стр. 83.

²⁶ Қўчқортөев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. –Тошкент: Фан, 1977. –Б.21-24.

²⁷ Звегинцев В. Семасиология. –М 1957. –С. 217.

²⁸ Қўчқортөев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. –Тошкент: Фан, 1977. –Б. 21-24.

²⁹ Дадабоев Ҳ. Шавкат Раҳматуллаев тилшунослик фаолиятида лексикология масалаларининг ёритилиши//Шавкат Раҳматуллаев – атоқли тилшунос (олимнинг илмий фаолиятига доир мақолалар).–Тошкент, 2006. – Б.68.

kurilishga ega bo'lmagan ma'no yo'q. Har bir ma'no semantik tuzilishiga, tarkibiga ko'ra «baholanadi». U muayyan so'zning mazmun tomonini hosil qilib, o'z tovush asosi – ifoda tomoni bilan birgalikda, bir butun holda til va nutqda muayyan vazifa bajaradi. Aniqrog'i, ma'no ruhiy mohiyat – ong hodisasi sifatida o'zining tashqi (ekstralingvistik) asosiga ega³⁰. Olimning yozishicha, har bir mustaqil ma'noli so'z asosini hosil qiluvchi obyektiv borliq predmet, narsa - hodisalari o'zining tabiiy tuzilishiga, qurilish a'zolariga ega bo'lib, ularning xar biri tildagi (lisoniy) nomida – til birligi (so'z)da hamda so'z ma'nosida aks etadi. So'zning ma'nosi, ma'no tarkibi muayyan mantiqiy bo'laklardan, ya'ni semalardan tashkil topadi. Bu tarkibiy qismlar so'z ma'nosini shakllantirib, har bir ma'noning alohida til “birligi” sifatida mavjudligini ta'minlaydi. So'z ma'nosining tarkibiy qismlari nutqda muayyan xabarni ifodalaydi.

So'zning ma'no tarkibini (tuzilishini) o'rganish, tahlil qilish so'z ma'nosining mantiqiy bo'laklarini aniqlash, tarkibiy qismlarini belgilash, har bir semaning ma'no (semema) tarkibidagi o'rni, ahamiyatini yoritish, boshqa semalarga bo'lgan munosabatini ochish – ma'nolar orasidagi mantiqiy aloqani topish (semantik sintagmani hosil qilish) – shunga ko'ra so'zlarning o'zaro paradigmatic va sintagmatic munosabatlarga kirishish, so'zlar qatorini tuzish, paradigmatic munosabatdagi so'zlarni bir-biridan farqlab turuvchi semalarni aniqlash imkonini beradi. Buning natijalari esa semasiologiya, leksikografiya, leksikologiya, umuman, tilshunoslar uchun katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega³¹.

Sh.Safarov semantikasi alohida soha sifatida tavsifladi. Dunyo lingvistikasida semantikaning shakllanishi va taraqqiyot xususiyatlarini tahlil qildi. Semantikaning predmeti haqida so'z yuritish ekan, “Qarangki, shuncha yil o'tishiga qaramasdan (semantika termini ingliz tilida XVII asrdayoq mavjud bo'lgan), lingvistik semantika sohasida unchalik katta o'zgarishlar yuz bermaganday bo'lib turibdi. Bunday “turg'unlik”ning bir nechta sabablari bor. Birinchidan, olimlar semantikasi, M. Brealga ergashib, so'z va iboralar ma'nosining paydo bo'lishi va o'zgarish taqdiri bilan shug'ullanadigan fan sifatida qarab keldilar. Ikkinchidan esa,

³⁰ Расулов Р. Ўзбек тили феълларининг маъно тuzилиши. 2-нашри. – Тошкент, 2008. – Б.4.

³¹ Расулов Р. Кўрсатилган манба. – Б.4.

semantika hozirgacha leksik ma'no haqidagi fan bo'lib qolmoqda va uning e'tiborini so'zlar ko'p ma'noliligi, antonimlik, sinonimlik munosabatlari, omonimiya qatorlari, valentlik imkoniyatlari kabi hodisalar tortmoqda"³², – deb yozadi. Ushbu fikrlardan ayonki, semantikaning lingvistik soha sifatidagi predmeti va tadqiq obyektlarini aniqlash yuzasidan tadqiqotlar olib borilishi zarur.

Lisoniy birliklarning shakl va mazmun tomoni o'rtasidagi munosabatlarni sintaktik sath materiallari asosida o'rgangan A. Nurmonov o'zbek tilshunosligida lingvistik semantika sohasida o'ziga xos o'ringa ega. Xususan, olim ajratilgan bo'lak masalasi gapning shakliy tuzilishi uchun emas, balki mazmuniy tuzilishining ustuvorligi asosida tadqiq etilishi kerakligini, kesim gapning mazmuniy va grammatik markazi ekanini, shunga ko'ra gap bo'laklarini aniqlash, tasniflash, tahlil qilishda mazmun ustuvor ekanini isbotlashga harakat qildi³³.

Lingvistik semantika, jumladan, sintaktik semantika tilshunoslikning nisbatan yangi sohasi bo'lsa ham, hozirgi kunda unga turlicha yondashuvchi xilma-xil semantik yo'nalish va maktablar vujudga keldi. Bu semantik yo'nalish va maktablarda o'zlariga xos turli tushuncha va terminlar sistemasi ishlatilgani uchun bir-biriga muvofiq bo'lmay, hatto ayrim o'rinlarda bir-biriga zid keladi³⁴.

A.Nurmonovning gapning mazmuniy tuzilishi va gap semantikasi bo'yicha ilgari surgan fikrlari lingvistik semantika mohiyatini ochib berishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Gap semantikasiga qiziqishning uyg'onishiga lingvistik nazariya rivojiga ta'sir ko'rsatgan bir qator omillar: lingvistikaning gap mazmuni – propozitsiyaga alohida diqqat qiluvchi mantiq bilan munosabatining yangi pog'onaga ko'tarilishi, til va nutqning ma'no tomoniga umumiy burilishi, nutq faoliyatining pragmatik komponentiga e'tiborning kuchayishi, gapga o'zining maxsus

³²Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2013. –Б. 14-15

³³ Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. –Тошкент, 1988; шу муаллиф. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. –Тошкент, 1991; шу муаллиф. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). –Тошкент, 2001.

³⁴ Нурмонов А. Танланган асарлар. 1-жилд. –Б.240-242.

ma'nosi bo'lgan til belgisi sifatida qarashning vujudga kelishi hamda gaplarning mazmuniy ekvivalentligi tushunchasiga tayanadigan sintaktik transformatsiya nazariyasining paydo bo'lishi singari omillar turtki berdi³⁵. Olimning qayd etishicha, hozirgi kunda semantika deyarli hamma tilshunoslar tomonidan e'tirof etilsa-da, ammo sintaktik semantika maqomi masalasida bir xillik mavjud emas. Sintaktik semantikaning asosiy vazifasi shakliy-sintaktik modellarning xususiy ma'nolarini aniqlashdan iborat bo'lishi kerak.

Semantikaning asosiy masalasi sifatida leksik ma'no va uning taraqqiyoti bilan bog'liq hodisalarni qayd qilish lozim. Bu borada tilshunos M.Mirtojiyevning fikrlari e'tiborga molik: "So'zning semantik taraqqiyoti masalasi semasiologiyaning eng muhim tomoni bo'lib, uning tarixi va hoziri bilan chambarchas bog'lanadi. Lekin, shu bilan birga, uning boshqa tomonlari ham bor. Bu esa leksik ma'noning semantik tarkibi, so'zning semantik hajmidagi ahamiyati, o'zaro paradigmagik va sintagmatik munosabati va h.k."³⁶. Olim so'zning leksik ma'nosi bilan bog'liq semantik taraqqiyot jarayonini nemis tilshunosi G.Paulning tasnifiga asoslanib izohlaydi: 1) hajmning torayishi va ifodaning boyishi (ma'noning ixtisoslashuvi); 2) tushuncha mazmunining kengayishi bilan bog'liq holda ifodaning qashshoqlashuvi; 3) makon, zamon va biror sababli aloqaga ko'ra nomning ko'chishi; 4) uch asosiy hodisadan biriga oid bo'lmagan ba'zi bir xil ma'no o'zgarishi"³⁷. M.Mirtojiyev nemis tilshunosi G.Paul tomonidan ta'kidlangan "ifodaning boyishi" va "ifodaning qashshoqlashuvi" hodisalarini "sifat o'zgarishi" deb nomlashni taklif qiladi. Ushbu hodisalar leksik ma'no taraqqiyotining asosini tashkil qiladi va tahlil jarayonida yuqoridagi tasnif keng qo'llanadi. Biroq leksik ma'no tiplari va ma'noning semantik tarkibi, ma'nolarning sintagmatik munosabati haqidagi masalalar o'z-o'zidan ochiq qolaverdi. Chunki shu davrgacha bu masalalar ko'rib chiqilganicha yo'q edi³⁸. M.Mirtojiyev leksik ma'no tiplari va

³⁵ Ўша асар. –Б.240-242.

³⁶ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2010. – Б.5.

³⁷ Ўша манба. –Б.5.

³⁸ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: Мумтоз сўз., 2013. –Б.20-25.

ma'noning semantik tarkibi, ma'nolarning sintagmatik munosabati haqidagi masalalar ochiq qolayotganini alohida ta'kidlaydi³⁹.

O'zbek tilshunosligidagi semantik maydon tahlili borasida amalga oshirilgan ishlar qatorida D.Bozorovning kishi muchasi nomlariga, I.Abdurahmonovning ko'lam sifatlariga, R.Yunusovning o'rin bildiruvchi otlarga, T.T.Musaevning sezgi bildiruvchi fe'llarga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyalari; I.Qo'chqortoevning nutq fe'llariga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasini ko'rsatish mumkin⁴⁰.

So'z semantik maydonlarini lingvistik-semantik asosda o'rganish o'tgan asrning 90-yillaridan o'zbek tilshunosligiga keng ko'lamda kirib kela boshladi. Bunga R.Rasulovning holat fe'llariga⁴¹, Sh.Iskandarovning otlardagi shaxs mikromaydoniga⁴², N.Nishonovanning "hayvon" arxisemali leksemalar maydonining mazmuniy tahliliga⁴³, S.Muhamedovanning harakat fe'llari semantikasiga⁴⁴, H.Tojimatovning sifat semantikasiga⁴⁵ bag'ishlangan dissertatsiyalarini misol sifatida ko'rsatish mumkin. O'z doktorlik ishining I bobida R.Rasulov holat fe'llari, S.H. Muhamedova harakat fe'llari semantik maydonini tahlil etib bergan. H.Tojimatov nomzodlik dissertatsiyasida sifat turkumiga oid so'zni to'rt semantik maydonga ajratib, to'rt arxisema atrofida umumlashuvini ko'rsatgan. Sh.Iskandarova doktorlik dissertatsiyasida shaxs mikromaydonidagi otlarni, N.Nishonova

³⁹Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: Мумтоз сўз. 2013. –Б.20-25.

⁴⁰Базарова Д.Х. Семантика наименований части тела и производных от них в тюркских языках. Автореф. дисс. ...канд филол. наук. –Ташкент, 1967; Абдурахманов И. Полисемия и антонимия прилагательных протяженности в современном узбекском литературном языке. –Ташкент, 1973; Юнусов Р. Полисемия и синонимия имен существительных места в современном узбекском литературном языке.. –Ташкент, 1974; Мусаев Т.Т. Глаголы ощущения в узбекском языке. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук.. –Ташкент, 1992; Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. –Тошкент: Фан. 1977.

⁴¹ Расулов Р. Глаголы состояния в узбекском языке и их валентности. Автореф. дисс. ...докт. филол. наук. – Ташкент. 1989.

⁴²Искандарова И.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони). Филол. фан. докт. ...дисс. автореф. –Тошкент, 1999.

⁴³ Нишоновна Н.Р. Ўзбек тилида "хайвон" архисемали семемалар майдонининг мазмуний таҳлили. Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. –Тошкент. 2000.

⁴⁴ Мухамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари. Филол. фан. докт. ...дисс. автореф. –Тошкент, 2007.

⁴⁵ Тојиматов Х. Сифат семемаларининг реаллашувида контекст. Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2007.

nomzodlik dissertatsiyasida “hayvon” arxisemali otlarni tahlil qildi.

Soʻzlar semantik maydonini lingvistik-semantik asosda tadqiq etish shu maydonga mansub soʻzlarning semantik taraqqiyotini aniqlash va ularning boshqa soʻzlar bilan sintagmatik munosabatini ham koʻrsatish imkonini beradi.

Semantika til birliklari maʼnosi, mazmuni, taraqqiyotiga doir masalalarni tahlil qiluvchi tilshunoslik boʻlimidir. Semantika, asosan, lugʻaviy birliklar maʼno tahliliga oid deb qaralgan boʻlsa-da, keyingi yillarda mazkur sohaning tahlil doirasi yanada kengaydi. Bugungi kunda semantika til birliklarining belgi-xususiyatlaridan tortib grammatik shakllar orqali ifodalagan maʼnosigacha boʻlgan tahlillarni oʻz ichiga oladi.

Semantik tahlillar kognitiv bilimsiz amalga oshmaydi. Kognitiv inglizcha “cognize” – “bilmoq”, “anglamoq” maʼnosidagi soʻz boʻlib⁴⁶, dastavval, semantika kabi falsafiy tushuncha sifatida qoʻllangan. Dunyoni aqliy bilish masalalari bilan shugʻullanadigan kognitologiya sohasi shakllandi. Kognitiv tilshunoslik kognitologiyaning lingvistika bilan hamkorligida yuzaga keldi. Kognitiv tilshunoslikning asosida til va tafakkur munosabati yotadi. Kognitiv tilshunoslik til hodisalarida, nutqiy jarayonlarda ong va tafakkurning belgilovchi oʻrnini koʻrsatadigan, nutqning murakkab ijtimoiy-fiziologik hodisa sifatidagi belgilariga asoslanadigan, voqelikni til egasi talqini asosida aks ettiradigan yoʻnalish hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslik masalalari tadqiqotlarda yoritilgan⁴⁷.

Semantika qadimiy, shu bilan birga zamonaviy soha sifatida rivoj topmoqda. Sohaning tarixiy ildizlari falsafa, mantiq bilan tutashgan boʻlsa, bugungi yutuqlari axborot texnologiyalari va kompyuter sohalariga bogʻlanadi. Kompyuter lingvistikasida

⁴⁶ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.10.

⁴⁷ Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. –Минск.: ТетраСистемс., 2008. –С.272.; Ефемов А.А. Когнитивные и структурно-семантические особенности метафорических терминов (на материале терминологии американо-нефтегазовой отрасли). Автореф. дисс...канд. филол. наук.-Майкоп, 2013; Серегина И.В. когнитивные и языковые основы префиксального словообразования (на материале глаголов русского и узбекского языков. Автореф. ... канд. филол. наук.-Тамбов, 2007; Сафина З. Когнитивно-лексикографическое описание фразеологических единиц со структурно-семантическим компонентом цвета (на материале английского, русского и башкирского языков). Автореф....канд. филол. наук.-Уфа, 2004.

qo‘llanayotgan sentiment tahlil, semantik to‘r metodlari, tezaurus lug‘atlar bevosita semantik tahlillarga tayanadi.

Semantikaga doir tadqiqotlar til birliklarning axborot-kommunikativ, emotsional-ekspressiv funksiyalarini tahlil qilishda, til egalarining olamni idrok etish, borliq belgilarini o‘zlashtirish xususiyatlarini izohlashda ahamiyatlidir. Bir so‘z etimologiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar leksema genezisini yoritishda, ijtimoiy muhit, tarixiy voqelik o‘zgarishi so‘zlarning qo‘llanish darajasi va ma’no ko‘lamiga ta’sir ko‘rsatishiga oid muhim xulosalarni beradi.

“Qap=” asosli so‘zlarning o‘zlashtirilish masalasiga oid manbalar

O‘zbek tili lug‘at tarkibi hamda grammatik vositalari shu tilning boyligi hisoblanadi va bu birliklarning shakllanishi qadim davrlarga borib taqaladi. Tildagi har bir birlikning o‘ziga xos tarixi, taraqqiyot yo‘li bor. O‘zbek tilining lug‘aviy tarkibi tarixiy taraqqiyot jarayonida leksik-semantik hamda shakliy tuzilishiga ko‘ra muayyan o‘zgarishga uchragan.

O‘zbek tilining qadimgi turkiy til davri lug‘at tarkibidagi so‘zlar turkiy xalqlarning qadim madaniyati, urf-odatlari, yashash tarzi, mashg‘ulotlari, turmush sharoitini aks ettiradi. G.Gumbatov turkiy bo‘lmagan xalqlar tili leksik qatlamiga o‘zlashgan turkiy so‘zlar haqida yozar ekan, qadimgi turkiy xalqlar qo‘shni xalqlar bilan yaqin aloqada bo‘lib, hayvonlarni xonakilashtirish va ekin yetishtirish borasida katta tajribaga ega ekanligini, shu sababli ulardan qo‘shni xalqlarga nafaqat so‘zlar, balki katta madaniy tajriba ham o‘zlashganini ta’kidlaydi. Bu jarayon fin-ugor, sharqiy slavyan, eron, kavkaz va mo‘g‘ul tillarida, ayniqsa, yaqqol ko‘rinishini, lingvistik ma’lumotlar qadimgi turkiy va fin-ugor tillari o‘rtasidagi dastlabki aloqalar miloddan avvalgi III ming yilliklardan boshlangan deb taxmin qilish imkoniyatini berishini, armanlar turkiy tillarning (Oguz, Ozarbayjon, turkcha) kuchli ta’siriga duch kelishganini aytib o‘tadi. Turkiy so‘zlar ularning, hatto, qo‘shiq, ertak, hikmatli so‘zlariga ham singib ketganligini, arman xalqi juda ko‘p turkiy so‘zlarni o‘zlashtirib, bugungi kunda ulardan foydalanayotganligini, nafaqat so‘zlar, balki so‘zlashuv nutqida butun jummalarni ham

ishlatishini yozgan. Shuningdek, arman tilida turkiy tildan o‘zlashgan 50 ta so‘zni keltirgan⁴⁸.

Qap= asosli so‘zlar qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o‘zbek adabiy tilida keng qo‘llangan. Bu so‘zlarning faol qo‘llangani ularning boshqa tilga o‘zlashishini ta’minlagan.

Rus tiliga o‘zlashgan “*qap*=” asosli leksemalar haqidagi ma’lumot ilmiy manbalarda, lug‘atlarda qayd etilgan. Ye.Shipova “Словарь тюркизов в русском языке” asarida rus tiliga qadimgi turkiy tildan o‘zlashgan “*yopmoq*” va “*berkitmoq*” semalarini mujassamlashtirgan “*qap*=” va uning asosida yasalgan bir nechta so‘zlarning izohi hamda ma’nolarini keltiradi⁴⁹. *Qap*= asosli 20dan ortiq so‘z rus tiliga o‘zlashgan. Ulardan ayrimlari borasida to‘xtalamiz.

Kaftan leksemasi Ye.Shipovaning qadimgi turkiy tildan rus tiliga o‘zlashgan so‘zlar aks etgan lug‘atida “qadimgi erkaklar qalin ust kiyimi” sifatida izohlangan. Uning asosi “*kap*” (ya’ni qop) va ko‘ylak ma’nosini bildiruvchi “*ton*” qismlaridan tashkil topgan. *Kaftan* rus tiliga tatar tilidan XIII–XIV asrlarda o‘zlashgan. V.Radlov *kaftanni* “xalat, plashga o‘xshash uzun ustki kiyim”, deb ta’riflaydi. A.Vamberi esa bu so‘zning kelib chiqishini fors tili bilan bog‘laydi. Shuningdek, *kapchan* qalin ustki kiyim hamda bosh kiyimi turini ham anglatgan⁵⁰.

Kaftan rus tili orqali boshqa xorijiy tillarga ham o‘zlashgan. Xususan, bu leksema ingliz tilida ham mavjud. V.Vlasicheva ingliz tilida *caftan/kaftan* so‘zi ishlatilgan badiiy va publitsistik matnlardan 160 jumlani tahlil qilib, bu turkiy so‘zning ikki ma’noga ega ekanligini aniqlagan. Unga ko‘ra: *caftan* tarixda Usmoniylar imperiyasi hududida keng tarqalgan erkaklar va ayollar kiyimini bildirgan. Uning istisno tarzda tizzadan pastda turishi boshqa kiyimlardan ajralib turadigan belgisi sifatida qayd etilgan. Bundan tashqari, ingliz tilida *saftan* dizaynerlar va shou-biznes yulduzlari orasida mashhur bo‘lgan. *Gucci caftan*. *Caftan* mashhur brend nomlari bilan ham bog‘liq bo‘lib, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan, tantanali marosimlar uchun tikilgan qimmatbaho ayollar

⁴⁸Гумбатов Г. Историческая прародина тюрков. – Баку: Элм и тахсил, 2012. – Б.205.

⁴⁹Шипова Е.Н. Словарь тюркизов в русском языке. –Алма-Ата: Наука, 1976. –С. 444.

⁵⁰ Шипова Е.Н. Словарь тюркизов в русском языке. – Алма-Ата: Наука, 1976. –С. 174.

libosini anglatgan. *Kaftan*larni ishlab chiqarishda, asosan, ipak matodan foydalanilgan, lekin tafta, barqut, parcha, ba'zan jun ham ishlatilgan.

*Kaftan*lar sharqona zargarlik buyumlari, taqinchoqlar va turli xil bosh kiyimlari bilan uyg'unlikda kiyilgan. Ko'pincha *kaftan* qo'lda ishlangan kashta bilan bezatilgan bo'lib, noyob san'at asariga aylantirilgan. *Kaftan* hozirda bir qator tillarda fonetik o'zgarishga uchragan *kofta* ko'rinishida ishlatiladi. *Kofta* "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ruscha-baynalmilal so'z sifatida izohlangan. *Kofta* [r. *kofta* – kalta ko'ylak yoki plash <*nem.* *Kuft* – uy kiyimi]. Ayollarning kalta ko'ylaksimon, odatda, belgacha tushadigan kiyimi (O'TIL,II,414). Ingliz tilida *kaftan* leksemasi ifodalagan lug'aviy ma'no tarkibida "tizzadan pastga turish" semasi mavjud. Hozirda esa, aksincha, "tizzadan yuqorida turish" semasi birinchi planga chiqqan. *Kaftanning* ingliz tilidagi "qimmatbaho ayollar libosi" ma'nosi ham so'zning keyingi iste'mol davrlarida shakllangan. *Kaftan* leksemasida oddiygina "erkaklar va ayollar ust kiyimi" ma'nosidan "tizzadan pastda turadigan kiyim", "qimmatbaho ayollar kiyimi", "tizzadan yuqorida turadigan kiyim" ma'nolarining shakllanishi turli madaniyat vakillarining kiyim ko'rinishini o'zgartirib, unga baho berishlari, lisoniy ongda keyingi belgilari orqali qabul qilinishi bilan izohlanadi.

Kaftan turkiy leksemasining ingliz tiliga o'zlashib, so'z yasaliş jarayonida ishtirok etishi ko'rsatilgan.

Kaftan qadimgi turkiy tildan slavyan tillariga ham o'zlashgan. XI asr turkiy yozma manbalarida u "ustki kiyim, to'n" degan ma'noni anglatgan. Mahmud Koshg'ariy lug'atida bu so'z *qaftan* shaklida keltirilgan Forsiy til orqali arab tiliga *häftan* shaklida o'tgan. Ukrain tilidagi *kaptan* va Belarus tilidagi *kaptun*//*kaptan* turkiy birliklarning keng yoyilganidan dalolat beradi. *Kaftan* leksemasining turkiy tabiatiga ko'pchilik etimolog olimlar e'tiroz bildirmaydi. Lekin N.K.Dmitriyev qo'shimcha dalil talab qiladigan so'zlar qatorida *kaftanni* ham tilga oladi. Biz Ye.Shipova, V.Vlasicheva fikrlariga tayanib, bu so'zni turkiy leksema sifatida baholaymiz. Qolaversa, uning turkiy til davrida keng qo'llangani, so'z semantikasida "yopish", "qamrash" semalari leksemaning turkiy *qap*= asosidan shakllanganini ko'rsatadi. *Kaftan*

leksemasidagi *qap* va *ton* qismlarning ikkalasi ham qadimgi turkiy asos hisoblanib, umumturkiy shakllar qatoriga kiradi. Har ikkala qism hozirgacha mustaqil qo'llana oladi, har biri o'z mustaqil ma'nosiga ega. Birinchi qism *qap* – eski turkiy shaklni saqlagan holda ko'p turkiy tillarda o'z vazifasiga ega: qozoq, qumiq, qaraim, qirg'iz, uyg'ur tillarida *qop* “jild”, “xalta”; gagauz tilida – “idish”, “baland”; no'g'ay tilida “sumka”; boshqird va tatar tilida “quti” kabi. *Qap* leksemasining turkiy tillarda faollik darajasi turlichadir. Lekin ularning aksariyatida *qap* “xalta”, “qoplam”, “jild” ma'nolariga ega hamda shu ma'nodagi leksemalarni hosil qiladi. Masalan: 1) tat, boshq, uyg', qirg', o'zb, qumiq, no'g', ozar, turk. *kapka//kapi//qapu//gapi//kap*, *qap* “darvoza”, “eshik”; 2) tat., qumiq, qaraim, tat., no'g'., ozar., turk, gagauz, qirg'. *kapkach//kapkas//kapkash//kapak//gapak//kapkan* “qopqoq”, “qoplov”; 3) tat., boshq., uyg'., qirg'., o'zb., qaraim. *kaplam//kaplama//qaplamoq//qaplav//qaplash* “qoplam”, “yopinchiq”, “o'rash”; 4) tat., qumiq, qaraim, no'g'., ozar., turk, gagauz, qirg'. *kapkin//kapkan//kapgun//kapan* “qopqon”, “tuzoq”; 5) tat., qumiq, qaraim, no'g'., ozar., turk, gagauz, qirg'. *kapla // kaplau // kaplamak // kapamak // kaplimak // kaplamok // kapta* “yopmoq”, “o'ramoq”. *Ton* (to'n) hozirgi turkiy tillarda qalin mo'ynali kiyimlarni anglatga, qadimgi turkiy tilda “umuman kiyim” ma'nosida qo'llanilgan, keyinchalik esa ustki kiyimni anglatga boshlagan. XVI asr manbalari tilida *ton* “ustki kiyim” ma'nosini bildirgan, *kaftan* esa bu davrda maxsus ustki kiyim turi sifatida mashhur edi. Demak, *kapton//kaptan*, *kaptal* – bu qoplab turuvchi kiyim”, “tashqi, ustki kiyim” va boshqa tillarda uzun bo'yi kiyim nomini bildirgan. Ushbu so'zning shakllanishi turkiy so'z-qurilish tizimining muayyan turiga mos keladi. Masalan: 1) tat., boshq. *ishtan*: içton = iç “ichki” + ton “kiyim”, ya'ni “ichdan kiyiladigan kiyim”; 2) gag. *turtan* – “mo'ynali kiyim”, tur – “echki bolasi”, “buzoq” +ton, ya'ni “echki, buzoq terisidan tikilgan kiyim”. Pomir tillarida shunga o'xshash o'zlashgan so'z qurilish modellari mavjud: yomadon “kiyim uchun dumaloq savat”, paisadōn “pul sumkasi”, radon “yog' (chiroq zaxirasi uchun)”, tūxadōn “teridan ishlangan buyum soladigan xalta”. -ton// -tan// -tun qismi bilan so'z yasalgan misollarning har biri alohida semantik tabiatga ega. Masalan, birgina kiyim

ma'nosini anglatuvchi bu leksema vazifasiga ko'ra (kaptan), moddiy ishlab chiqarishga ko'ra (turtan), maqsadiga ko'ra (ishtan) semantik belgilarni ifodalaydi. Ko'rib chiqilayotgan so'z yasaliş turining umumiy semantikasidagi qop, xalta, zaxira, idish, qobiq belgilari kiyim nomlarida o'ziga xos semantik belgini aks ettiradi⁵¹.

Kaftan leksemasining ukrain tilida kaptan, belorus tilida *kaptun* shakllarida uchrashi sharqiy slavyan bu so'zning qadimgi turkiy kaptan bilan aloqasi mavjud ekanidan darak beradi. Bizningcha, *kaptan//kaptun* shakllari nisbatan qadimiy shakl, A.Y.Suprunning fikricha, kaftan zamonaviy shaklni ifodalaydi. Belorus tili shevalarida turkiy –kap asosdan yasalgan bir necha birliklar mavjud: 1) *kapti* “uyda kiyiladigan oyoq kiyim; 2) *kapsa* “xalta”, “quti”: eski o'zbek tilida *kapsak* “qoplash uchun ishlatiladigan mato”, veng. *kapsa* “quti”; *kopshur* “qopcha”; tat. *kapchik* “qop”; olt. *kapchur* “teridan ishlangan qopcha”⁵².

Ushbu misollar *kaptan/kaftan* leksemasi genetik jihatdan bu leksemalar bilan uzviy aloqada ekanligini hamda ushbu birliklar qadimgi o'zlashmalar qatoriga kirishini isbotlaydi. Ularning semantikasidagi xilma-xillik esa tarixan va hozirda ham faol birliklar qatoriga kirishini ko'rsatib turadi.

Kabluk – oyoq kiyimining tovon qismiga qo'yilgan maxsus qoplama. Rus tilidagi tadqiqotlarda XVI asrlarda turkiy tillarning rus tiliga o'zlashish jarayoni kuchaygani ta'kidlangan. Manbalarda kabluk turkiy tillardagi “g'ilof”, “qoplama” ma'nosidagi qap so'ziga aloqador, deb qayd qilingan. Dmitriyev kablukni “oyoq kiyimiga tegishli”, oyoq kiyimining qismi” ma'nolarida izohlagan. O'z-o'zidan, *kablukning* oyoq kiyimiga qoplangan qism ekani anglashiladi.

Turkiy asosli rus familiyalari orasida *Kablukov* familiyasi mavjud. Uning asosi *kabluk* bo'lib, sof turkiy so'z hisoblanadi. N.A.Baskakov fikricha, *kabluk qap* “qop, xalta” va tegishlilikni

⁵¹ Юналеева Р.А. Тюркизмы русского языка (проблемы полиаспектного исследования) Казань: Таглитат, 2000. – С. 172

⁵² Юналеева Р.А. Тюркизмы русского языка (проблемы полиаспектного исследования) Казань: Таглитат, 2000. – С. 172

anglatuvchi *-luq* qismlaridan iborat bo‘lib, oyoq kiyim bo‘lagi demakdir⁵³.

Kapkan – hayvonlarni, kichik jonzotlarni ovlashga mo‘ljallangan uskuna. O‘zbek tilida *qopqon* shaklida qo‘llanadi. Rus tili lug‘atlarida 1792-yillardan boshlab uchrashi haqida ma‘lumot keltirilgan. Turkiy so‘z ekanligi qayd etilgan. Boshqird tilida *kapkan*, tatar tilida *kapkın* shaklda uchrashi aytilgan⁵⁴.

Kolpak – konus shaklidagi yoki ovalsimon bosh kiyimi sifatida izohlangan. Baland mo‘yna yoki mo‘yna bilan qoplangan bosh kiyimi. Ancha oldin turkiy tillardan olingan o‘zlashma sifatida keltirilgan. Tatarlarda *kalpak* (kalfak) – “xotin-qizlarning milliy bosh kiyimi” sifatida qayd etilgan⁵⁵.

Nafaqat o‘zbek xalq maqollari tarkibida, balki rus xalq maqol va iborolari tarkibida ham ularning ishtiroki sezilarli. Xususan, R.A.Yunaleyevaning “Тюркизмы в русской классике: словарь с текстовыми иллюстрациями” kitobida ilk marta rus tiliga turkiy tildan o‘zlashgan so‘zlardan hosil bo‘lgan frazeologizmlar va maqollar hamda ularning rus tilidagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. Lug‘atda XIX asr yozuvchilari ijodi materiallari asosida rus og‘zaki so‘zlashuvdagi birliklarning ahamiyati asoslangan. Bu zamonaviy leksikografiyada yangi shakldagi lug‘at sanaladi. Ushbu asar turkiy so‘zlar etimologiyasi va tahlili bo‘yicha muhim manba hisoblanadi. Lug‘atda so‘zlarning ma‘nosini izohlashda turli xil matnlardan keng foydalanilgan. Kitobda ham rus tiliga turkiy tildan o‘zlashgan so‘zlardan hosil bo‘lgan frazeologizmlar va maqollar ularning rus tilidagi o‘rni aks etgan bo‘lib, ularning orasida “qap” asosli leksemalar ham mavjud. Masalan, “*Прости, капнак, а шапка и так*”⁵⁶.

Kubchir. XIII – XIV asrlarda mo‘g‘ul feodal davlatining soliq va yig‘imlar tizimida tadqiqotchilar “kubchir” atamasini qayd etadilar. Ushbu mo‘g‘ulcha atamani o‘rganish 1836-yilda fransuz

⁵³ Баскаков Н.А. Русские фамилии тюркского происхождения. – М: Наука, 1979. – С. 109-110.

⁵⁴ Фасмер М. Этимологический словарь русского языка. Том 2. – Москва: Прогресс. 1986. – С. 186.

⁵⁵ Шипова Е.Н. Словарь тюркизмов в русском языке. – Алма-Ата: Наука, 1976. – С. 29.

⁵⁶ Юналеева Р.А. Тюркизмы в русской классике: словарь с текстовыми иллюстрациями. – Казан: Таглимат, 2005. – С. 15.

sharqshunosi E.M.Katrmerdan boshlandi. Kubchir – “yaylov yer” so‘zining aynan o‘zi ekanligini aynan shu olim qayd etgan. Shundan keyin terminning asl ma‘nosi – “er yig‘imi, solig‘i” ekanligi kelib chiqqan. Oradan bir yuz qirq yil o‘tgan bo‘lsa ham E.M.Katrmerning qarashi o‘zgarmadi.

D.I.Tixonov “kubchir” atamasini mo‘g‘ulcha emas, balki turkiy deb hisoblashni va uni uyg‘urlar mo‘g‘ullarga bo‘ysunishdan avval ham qo‘llagan va undiriladigan asosiy davlat solig‘i deb hisoblashni ta’kidlagan. D.I.Tixonov o‘z taxminlarini yetarlicha ilmiy asoslamagan. XIII-XIV asrlarda “kubchir” atamasining mazmunini ochib berishga urinishlar, ko‘p miqdordagi tadqiqotlar yuzaga kelgan. Bu tadqiqotlar, asosan, V.V.Bartold, A.A.Alizade va I.P.Petrushevskiyga tegishli⁵⁷.

Kaptura – issiq bosh kiyimi, kapyushon, boshliq. M.Fasmer *kapturaning* asosini shimoliy turkiy tillardan o‘zlashgan “qop” ma‘nosini anglatuvchi so‘z⁵⁸, deb qaraydi.

Katorga so‘zini ham rus tili va boshqa tillarga o‘zlashgan qap asosli turkiy so‘z hisoblanadi. Birinchidan, *kapturga* yuqorida keltirilgan “bosh kiyim” ma‘nosidagi *kaptura* so‘ziga struktur-semantik jihatdan juda yaqin. Ikkinchidan, V.Radlov “kapturga”ni qurol-yarog‘ solish uchun mo‘ljallangan qop, “kapturra” teridan ishlangan karmon, “kaptirga”ni qurol qismlari va patronlarini saqlovchi snaryad deb ta’riflaydi. Shunga o‘xshash yana bir nechta leksemalarning ma‘nosini izohlaydi. V.Radlov *kapturga* shaklida chig‘atoy tilida “katta chuqur qop” ma‘nosini ifodalashini yozgan. Teleut, oltoy, tatar, turk, qrim, ozarbayjon tillarida *kaptır* zastegivat “bog‘lamoq” ma‘nosida qo‘llanishini qayd etgan⁵⁹. Darhaqiqat, katorga so‘zi semantikasida ham “bog‘lash” semasi mavjud (katorgadagi mahbuslar og‘ir mehnatga qo‘l-oyoqlari va, hattoki, bo‘ynidan uzun zanjirlar bilan bandi etilgan holda jalb qilingan). Har qanday vaziyatda ham *kapturganing* turkiy so‘z ekani ma‘lum bo‘ladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bu leksema quyidagicha

⁵⁷ А. П . Григорьев. Налоговый термин «кубчир»//Turcologica// К семидесятилетию академика А. Н. Кононова//Ленинград: Наука, 1976. - С 235.

⁵⁸ Фасмер М. Этимологический словарь русского языка. Том 2. – М.: Прогресс. 1986. – С. 212

⁵⁹ Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. – Санкт-Петербург, 1899. Том 2. Часть 1. – С. 335.

izohlanadi: “Yunoncha katergon – galera, eshkak-yelkanli harbiy kema. Ma’nosi: Chor Rossiyasida va burjua mamlakatlarida jinoiy va siyosiy jinoyatlar uchun surgun qilish, juda og‘ir sharoitda ishlatish va qamashdan iborat jazo chorasini va shunday jazoni o‘tash joyi; umuman, og‘ir mehnat, chidab bo‘lmaydigan hayot sharoiti⁶⁰. Izohlarga tayangan holda, *katorga* leksemasi ikki xil ma’noni anglatadi, deb aytish mumkin. Birinchisi – o‘ta og‘ir tartibdagi majburiy mehnat; ikkinchi ma’nosi esa o‘ta og‘ir tartibdagi jazoni o‘tash joyi.

Ba’zi rus olimlarining fikricha, rus tili leksik qatlamidagi “kolbasa”, “lebeda”, “limon”, “pirog”, “balamut”, “shishka” kabi o‘zlashmalar qatorida “katorga” ham etimologiyasi noma’lum leksemalar sirasiga kiradi. Uning turkiy asosga egaligi hamda kelib chiqishi bahsli masala ekanligi qayd etiladi.

*Kaptan, kaptana*⁶¹ (keyinchalik kaptorga, kaptalka shaklini olgan) qadimgi turkiy tilda qishki yopiq transport, kareta. Qadimgi rus tilida kaptan (1534-yy), keyinchalik “kaptorga” leksemasi qishki tashuv vositasi ma’nosini anglatgan.

M.Fasmer “kaptan”ga kelib chiqishi jihatidan “mavhum so‘z” deb ta’rif beradi. “Katorga”ni esa yunoncha o‘zlashma, deb hisoblaydi hamda bu leksemani og‘ir tartibdagi mahbuslar mehnati va ular saqlanadigan joy sifatida izohlaydi.⁶² Fasmerning etimologik lug‘atida “qap” asosli leksemalarning hammasi ham turkiy o‘zlashma sifatida baholanmagan. Ammo V.Radlov bu so‘zni sof turkiy so‘z deb izohlab, “kaptama” turkiy kapla+ma (yopiq, berk)dan kelib chiqqanini bir qancha shu qatordagi so‘zlar bilan asoslaydi: *kapla-* (tat., tob., tur., kar. t, chag. kap+la) 1. Yopmoq, berkitmoq, tutashtirmoq; *kapta-* (kaz., tel. kap+la) 1. (tel.) yopmoq, berkitmoq; 2. (kaz.) qopga solmoq⁶³.

Qadimgi turkiy so‘zlar lug‘atlaridan olingan misollardan ko‘rinib turibdiki, “katorga” o‘ta og‘ir tartibdagi jazoni o‘tash joyi,

⁶⁰ЎТИЛ. –Б. 232.

⁶¹ Каримуллина Г.Н. Тюркские лексические элементы в русской лингвографии XVIII - XX веков. Авт.дисс.канд. фил. наук. Казань, 2007. – С.10.

⁶²Фасмер М. Этимологический словарь русского языка. Том 2. – М.: Прогресс. 1986. – С. 211.

⁶³ Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. – Санкт-Петербург, 1899. Том 2. Часть 1. – С. 335.

ya'ni qamoq demakdir. Aslida turkiy "qamoq" so'zining o'zagi ham "qap"dir. "Qap"da "yopmoq" va "berkitmoq" semalari mavjud. "Этимологический словарь тюркских языков"⁶⁴ asarida qadimgi turkiy tildagi "qapi/kapi" leksemasining "turma", "qamoq" ma'nosi ham keltirib o'tiladi⁶⁵. Hozirda o'zbek tili lug'at tarkibida mavjud bo'lgan "qamoq" leksemasi ham "qapi" yoki "qapaq"ning fonetik o'zgarishga uchragan ko'rinishidir.

"Katorga" leksemasining har ikkala ma'nosida ham qat'iy tartibdagi yopiqlik semasi mavjud. Yuqorida biz qadimgi turkiy til bo'yicha yaratilgan lug'atlar, etimologik lug'atlar, hozirgi kunda yaratilayotgan lug'atlar hamda katta sig'imli elektron lug'at maqolalarida "katorga" leksemasining izohlarini o'rganib, qiyosiy tahlil qildik. Qiyosiy tahlil jarayonida "katorga"ning avvalgi va hozirgi ma'nosida ham ana shu dastlabki yopiqlik semasi to'liq saqlanib qolganligi ma'lum bo'ldi. Turli davr lug'atlarida "katorga"ga berilgan ta'riflarni o'rganib, manbalardagi unga o'zakdosh so'zlarning ma'nolarini qiyoslab, olimlarning bu haqdagi qarashlarini tahlil qilgan holda uning sof turkiy leksema ekanligi haqidagi xulosaga kelish mumkin. Zero, turli xil ijtimoiy sabablarga ko'ra qadimgi turkiy tildan rus tiliga va u orqali dunyoning boshqa tillariga o'tib, jahon kezgan turkiy so'zlar ko'p miqdorni tashkil qiladi.

Rus tiliga o'zlashgan qap asosli so'zlar – 26ta: *kapital, katorga, kofta, kalpak, kapron, kapot, kopit, kaplya, kapilka, korobka, shapka, kepka, koshelyok, kapshuk, kabluk, kapkan, kaptura, kapyushon, kapturga, kaptirma, kaun (kavun), kaftan, kobura, koptir, kopil (qolip), kabinet* so'zlari ham rus tiliga turkiy tillardan o'zlashgan. *K'aban* (qobon), *k'abak'* (qovoq), *k'ap* (qop) leksemalari shimoliy kavkaz tillari turkiy tildan o'zlashgani haqidagi ma'lumotlar manbalarda qayd etiladi⁶⁶. Bu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlardi rus tiliga turkiy tillardan o'zlashgan *kaban* (yovvoyi

⁶⁴ Этимологический словарь тюркских языков. –М.: Языки русской культуры. 1997.

⁶⁵Этимологический словарь тюркских языков. –М.: Языки русской культуры. 1997. – С. 245.

⁶⁶ Тадинова Р.А. Тюркские лексические заимствования в системе северокавказских языков. Авт.дисс.док. фил. наук. –М., 2006. – С.20.

cho‘chqa) leksemasi og‘zaki nutqda “og‘ir vaznli erkak” ma’nosida ham qo‘llanishi aytiladi⁶⁷.

Korobka so‘zining asosi “qap” bo‘lib, lug‘atlarda *qoburchak* to‘rtburchak shakldagi kichik quti sifatida izohlanadi. XIV asrda Jamol id-Din at-Turkiy tomonidan yaratilgan «Kitobu bulg‘ot al-mushtoq fi lug‘ot it-turk va-l-qipchoq» asarida *qabyrcaqly baya* – toshbaqa (5,2)⁶⁸, ya’ni ustini qoplab turuvchi qutiga ega hayvon sifatida uchraydi.

“O‘zlashma so‘z – bu chet tildan ko‘chgan leksika bo‘lib, o‘zlashtiruvchi tilning fonetik, leksik-semantik, grammatik qobig‘iga bo‘ysunadi”⁶⁹. Rus tiliga o‘zlashgan “qap=” asosli so‘zlarda fonetik o‘zgarishlar, ma’no kengayishi, yangi semalarning yuzaga kelishi kuzatiladi. Turkiy tillardan arab tiliga *ibriq, qo‘r, kurak, yemish, biy, bek* kabi so‘zlar qatorida o‘zlashgan *qap=* asosli so‘zlarda ham bu hodisani kuzatish mumkin. Masalan: “qovun” o‘zlashmasining ko‘plik shakli arab tilida ko‘plik, muannas jinsining “-atun” qo‘shimchasi yordamida yasalgan, “qovun” so‘zidan قاوون – قاوونة ko‘pligi قاوونات shaklida⁷⁰.

Turkiy til va rus tili o‘rtasidagi o‘zaro aloqa-munosabat qadimgi davrlarga borib taqaladi. Bu jarayon olimlar tomonidan 5 davrga ajratiladi. Dastlabki davr eramizning I asridan boshlanadi⁷¹. Rus tili va u orqali boshqa tillarga qadimgi turkiy tildan juda ko‘p miqdorda so‘zlar o‘zlashgan bo‘lib, bu haqda qator tadqiqotlar olib borilgan, lug‘atlar yaratilgan. Etimologik lug‘atlarda ham ularning ko‘p qismi aks etgan. Ammo ba’zi shunday so‘zlarning kelib chiqishi turkiy ekanligi bahsli bo‘lgan holatlar ham mavjud. Ularning etimologiyasini aniqlash chuqur tadqiq va ilmiy tahlillarni talab etadi.

⁶⁷ Каримуллина Г.Н. Тюркские лексические элементы в русской лингвографии XVIII - XX веков. Авт.дисс.канд. фил. наук. Казань, 2007. – С.13.

⁶⁸ Гайнутдинова Г.Р. Историко-лингвистический анализ тюрко-татарского письменного памятника XIV века Джамал ад-Дина ат-Турки «Китабу булгат ал-муштак фи лугат ат-турк ва-л-кифчак». Авт.дисс.канд. фил. наук. Казань, 2004. – С.19.

⁶⁹ Маковский К.К. Теория лексических абстракций. –М., 1974.

⁷⁰ Носирова М.Араб тилига туркийдан ўзлашган сўзлар// Туркшунослик илдизлари. – Тошкент, 2009. –Б.53.

⁷¹ Коркмазова Л.М. Освоение в русском языке тюркизмов с неясными основами. Авт.дисс.канд. фил. наук. Махачкала, 2004. – С.9.

1. Jahon tilshunosligida leksemalar o'rtasidagi semantik aloqadorlikni o'rganish, etimologik tahlillar asosida leksemalarning semantik genezisini yoritish; tarixiy ildizlarini aniqlash amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Semantika doirasida olib borilgan tadqiqotlar leksema strukturasidagi o'zgarishlar, olam manzarasining lisoniy ongdagi ifodasi, til egasining idrok darajasi, madaniy bahosi tarixiy taraqqiyot davomida dinamik tarzda rivojlanib borishini ko'rsatadi.

2. Leksik birliklarning struktur-semantik taraqqiyoti fonetik-fonologik, leksik, grammatik sath masalalari atrofida o'rganilgan. Keyingi yillarda semantika dunyo tilshunosligidagi zamonaviy yo'nalish sifatida rivojlandi va tilning barcha sathlarini qamrab oldi. Bugungi kunda lug'aviy birliklardan tortib yordamchi so'zlar, morfologik birliklar, grammatik shakllargacha bo'lgan lingvistik belgilar semantikasiga bag'ishlangan tadqiqotlar yuzaga kelmoqda. Lingvistik semantikaning asosiy vazifalaridan biri borliqning so'z ma'nosida qanday aks etayotganligi va o'zgarayotganligini aniqlashdan iboratdir. Til birliklarining, jumladan, lug'aviy birliklarning grammatik, pragmatik, kognitiv, mantiqiy omillar bilan aloqadorligi semantik tahlillarning murakkabligini belgilaydi.

5. Semantikaga doir aksariyat tadqiqotlarda maydon nazariyasiga asoslanilgan. Leksik-semantik maydon so'zlarning semantik taraqqiyotini aniqlash va ularning boshqa so'zlar bilan sintagmatik munosabatini ham ko'rsatish imkonini beradi. Semantik maydon leksemalar o'rtasidagi mazmuniy aloqadorlikka asoslanib, muayyan mavzuga doir tushunchalarning semantik jihatdan maydondagi o'rnini ko'rsatishga xizmat qiladi.

6. Leksemaning fonetik-grammatik strukturasi bir qator leksemalarni muayyan semalar asosida birlashtiruvchi grammatik kod vazifasini o'taydi. Lug'aviy birliklarning semantik taraqqiyot tahlili obyekt va sub'ekt o'rtasidagi kategorial belgilarni namoyon etadi. Bu belgilarda xalqning qadriyati, voqelikka bergan bahosi, mental tafakkuri, qiyoslash xususiyatlari, ko'chim hosil qilish usullari o'z ifodasini topadi.

7. Semantikaga doir aksariyat tadqiqotlarda leksemalar semantik maydon asosida tahlil etilgan. Semantik maydon nazariyasi dastlabki qo'llanish davridan hozirga qadar takomillashgan ko'rinishga ega

bo'ldi. Semantik maydon so'zlar o'rtasidagi mazmuniy aloqadorlikni yoritishga xizmat qiladi. Semantik maydon lug'aviy birliklarning mavzuni ifodalashdagi o'rnini ko'rsatishda muhimdir.

8. Semantika bir qator ilmiy tadqiqotlarda lug'aviy sathga aloqador soha sifatida izohlangan. Keyinchalik mazkur sohaning tahlil doirasi yanada kengayib, til birliklarining belgilik xususiyatlari, yordamchi so'zlarning ma'no qirralari tahlilini o'z ichiga oladi.

Semantika qadimiy, tarixiy ildizlari falsafa, mantiq bilan tutashgan soha sifatida ham, bugungi yutuqlari axborot texnologiyalari va kompyuter sohalariga ham bog'liq bo'lgan sohadir. Semantikaga doir tadqiqotlar til birliklarning axborot-kommunikativ, emotsional-ekspressiv funksiyalarini tahlil qilishda, kompyuter lingvistikasida qo'llanayotgan sentiment tahlil, semantik to'r metodlarida, tezaurus lug'atlarda, til egalarining olamni idrok etish, borliq belgilarini o'zlashtirish xususiyatlarini izohlashda ahamiyatlidir.

9. Turkiy "qap=" asosli birliklar qadimgi turkiy til davrida faol qo'llangan. So'z semantikasidagi ijtimoiy-turmush tarzi, borliq bilan aloqador semalar lug'aviy birliklarning faol qo'llanishini ta'minlagan. Mazkur birliklar ijtimoiy-madaniy munosabatlar natijasida rus tili va boshqa tillarga o'zlashgan. Bu haqidagi ma'lumotlar ilmiy tadqiqotlarda va maxsus filologik lug'atlarda o'z ifodasini topgan. Rus tiliga o'zlashgan "qap=" asosli birliklar semantikasida so'z o'zlashtiruvchi xalqlarning tafakkuri, olamni idrok etishi bilan bog'liq o'zgarishlar sodir bo'lgan.

Rus tiliga o'zlashgan *qap*= asosli leksemalar fonetik jihatdan o'zgarishga uchragan, ammo aksariyat hollarda semantik xususiyatlarini saqlab qolgan.

“QAP=” ASOSLI HARAKAT-HOLAT LEKSEMALARNING TARIXIY-ETIMOLOGIK VA STATISTIK TAHLILI

“Qap=” so‘zi etimologiyasi va “qap =” asosli birliklarning lingvostatistik tahlili

Turkologiyada leksemalar struktur-grammatik va ma’no o‘zgarishlari jihatidan tahlil qilingan. Qirg‘iz tilshunosi B.M.Yunusaliyev o‘zakni morfologik qismlarga bo‘linmaydigan va buyum haqidagi aniq tushunchani yoki harakat-holatni ifodalash uchun xizmat kiluvchi tovushlar kompleksi sifatida tavsiflagan⁷². Olim turkiy so‘zlar o‘zaklari bir tovush yoki tovushlar jamligidan iborat bo‘lishi, turkiy so‘z-o‘zaklarining fonetik tarkibi necha tovushdan iborat bo‘lishi uchun chegara yuqligini yozadi. U o‘z monografiyasida ularning bir tovushdan tortib yetti tovushgacha bo‘lgan turini tahlil qiladi.

O‘zbek tili leksik tarkibi va grammatik vositalari shu tilning boyligi hisoblanadi va bularning barchasi birdaniga paydo bo‘lgan emas. O‘zbek tilining lug‘aviy tarkibi juda uzoq davrlardan beri leksik semantik hamda shakliy tuzilishiga ko‘ra ma’lum o‘zgarishlarga uchrab bugungi holatga kelgan.

Bizga ma’lumki, har qanday tilning lug‘at tarkibi faqat o‘z qatlam so‘zlaridan iborat bo‘lmaydi. Unga boshqa tillardagi so‘z va vositalar ham o‘tishi mumkin.

Qadimgi turkiy til davri leksikasi turkiy so‘zlar va qadimgi sankskrit, so‘g‘d, xitoycha o‘zlashmalardan tashkil topgan bo‘lsa, keyinchalik eski o‘zbek tili lug‘at tarkibiga fors-tojik, arab, rus tillaridan so‘zlar o‘tib o‘zlashdi va o‘zbek tilining lug‘at tarkibi boyidi.

O‘zbek tili leksikasining tarixiy shakllanishini bilish uchun so‘zlarni tarixiy etimologik jihatdan o‘rganib, ularni etimologik qatlamlarga ajratish zarur.

O‘zbek tili O‘rta Osiyodagi qadimiy xalqlarning turkiy tillar tizimidagi tillardan biri bo‘lib, uning lug‘at tarkibi ham qadimiydir.

O‘zbek tili leksikologiyasining tarixiy etimologik shakllanishini tahlil qilishda dastlab o‘zbek tilining qardosh tillar bilan aloqasi,

⁷² Юнусалиев Б. М. Киргизская лексикология. Часть 1. – Фрунзе, 1959.

soʻngra qardosh boʻlmagan tillar bilan aloqasi aniqlanadi. Shu tartibda tillarning oʻzaro taʼsiri ham koʻrib oʻtiladi.

Turkiy tillar boyligining shunday qatlami ham borki, u shu turkiy xalqlar bir jamoa boʻlib yashaganligi va shu jamoa birlashuvida, oʻzaro munosabatida sabab ekanligi, qanday doirada aloqada boʻlganlarini bildiruvchi detallarni koʻrsatib beradi⁷³.

Turkiy tub soʻzlar turkiy tillarga xos alohida xususiyatlarni, uning taraqqiyot yoʻlini aks ettiradi, turkiy xalqlarning turmush tarzi, yashash sharoitlari, urf-odatlar va madaniyati haqida maʼlumot beradi. Shuning uchun ham oʻz qatlamga oid birliklarni ajratish, ularni oʻrganish, etimologiyasini, semantik taraqqiyotini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

M.Mirtojiyev turkologiyada turkiy tub soʻz “oʻzak soʻz (korennoe slovo)” termini bilan yuritilishi hamda tub soʻz oʻzak bilan bogʻlanishini taʼkidlaydi. Kommunikatsiyadagi soʻzning eng kichik maʼnoli qismi oʻzak ekanini qayd etadi. Soʻzning eng kichik maʼnoli qismi esa morfema sifatida qaraladi.

Agglyutinativ til guruhiga kiruvchi turkiy tillarda oʻzak mustaqil qoʻllana oladi hamda yasama soʻz tarkibida oʻz shaklini saqlaydi, deyarli birlamchi semantik xususiyatini yoʻqotmaydi.

M.Mirtojiyev, shuningdek, rus turkologi N.A.Baskakov K +V +K tarkibli tovush tuzilishini turkiy oʻzaklarining oʻziga xos belgisi sifatida baholaganini qayd etadi. E.V.Sevortyan yopiq boʻgʻinlilik va auslauti undosh tovushdan iborat boʻlishini feʼl-ot oʻzakli turkiy soʻzlarning oʻziga xosligi belgisi ekanligini qayd etgan. E.V.Sevortyan monosillabik oʻzak yopiq tugashini aytish bilan tub soʻzlar K+V+K tipli fonetik tarkibga ega boʻlishini isbotlovchi bir dalil keltirgan. K+V+K tarkibli tub soʻzlar turkiy tillarda faqat bir turkumga oid bulmay, bir necha soʻz turkumida uchraydi. Ular ot, sifat, ravish va feʼl turkumida boʻlishi mumkin⁷⁴.

Turkiy tub soʻzlar, deyarli, hamma vaqt K+V+K (*koʻk, bor, kel, tur, qol, tosh, qop*) fonetik tarkibga va kamdan-kam K+V +K+K fonetik strukturasiga ega (bu fonetik strukturada keladigan taqlid soʻzlar oʻz qatlamga xos: *milt-milt, yilt-yilt, ort, yirt*). K+V va V+K fonetik tarkibga ega boʻlgan oʻzak morfemalar ham diaxronik

⁷³ Миртожиев М. Туркий туб сўзлар тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2017. – Б. 402.

⁷⁴ Миртожиев М. Туркий туб сўзлар тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2017. – Б.402.

ji hatdan K+V+K fonetik tarkibga ega ekanligi aniqlangan. K+V+K tarkibli soʻzlar ayrim hollarda tub soʻz sanalmay, yasama soʻz hisoblanadi. Bularning hammasi ham maʼlum qonuniyatga asoslanadi.

D.J.Klouson, B.M.Yunusaliyev, E.V.Sevortyan, A.N.Kononov, A.M. Sherbak, A.T.Kaydarov, Ye.Z.Kajibekov, A.G.Shayxulov kabi olimlarning taʼkidlashicha, turkiy tillardagi K+V+K tarkibli soʻzlarning oxirgi elementi grammatik formant yoki asosga qoʻshilgan biror koʻrsatkich hisoblanadi⁷⁵.

N.A.Baskakov taʼbiricha, turkiy tillardagi oʻzak morfema K+V+K fonetik tarkibiga ega boʻladi. Chunki, bu grammatik struktura turkiy tillarga xos taqlidiy-tasviriylar va undov soʻzlardan verbalizatsiyaga koʻra yuzaga keladi. Odatda, turkiy xalqlar taqlid-tasvir va undovlarni, aytilganiday, K+V+K holdagi uch tovush bilan tasavvur etadi. Oʻzak morfema bilan bogʻliq soʻz hosil qilinarkan, shu uch tovush oʻz ifodasini topadi. Taqlidiy-tasviriylar va undov soʻzlar verbalizatsiyasi, odatda, koʻproq kuzatiladi. Shu taqlid-tasvir va undovlar harakat va holatga asoslanadi. Bu harakat-holat bildiruvchi soʻzlar va undovlar baʼzan davomiy yoki takroriylikni koʻrsatadi. Davomiylik yoki takroriylik verbal oʻzak ketidan a yoki i tovushini orttirish orqali ifodalanadi. Bu tovushlar, yaʼni ergash morfemalar bilan kontakt beriladi. Masalan: ...qav+iq > qaviq kabi⁷⁶.

Oʻzbek tili lugʻat tarkibidagi **qap=(qop-)** asosi ham, xuddi yuqorida keltirilgan modellarga mos tarzda, turkiy oʻzak hisoblanadi. **Qap= (qop-)** asosidan yasalgan leksemalar ham turkiy asoslardan turkiy qatlarga oid affikslar qoʻshish natijasida yuzaga kelgan lugʻaviy birliklar hisoblanadi. Hozirda biz *qoplon*, *qopqon*, *qovurgʻa*, *qovushmoq* kabi leksemalarda uning asosini *qop* sifatida ajratamiz. Lekin baʼzi olimlar bu haqda boshqa qarashga ham ega.

X.G.Nigmatov *qa-* asosli *qala* soʻzi Mahmud Koshgʻariyning “Devon”ida mavjud ekanini qayd qiladi. Bunday asosli soʻzlar boshqa manbalarda uchramasligini taʼkidlaydi⁷⁷.

⁷⁵ Кузьмина А.А. Типы корневых основ имен существительных якутского языка (формирование одно- и двусложных основ). Авт.дисс.канд.фил. наук. Якутск, 2017. – С.10.

⁷⁶ Миртожиев М. Кўрсатилган манба. – Б.402.

⁷⁷ Нигматов Х.Г. О глагольных корнях типа огс и сг по материалам словаря Махмуда Кашгарского//Советская тюркология//1974. – №3. – С. 39

Qap= soʻzining asosi boʻlgan **qa**= “Devonu lugʻoti turk”da mustaqil holda qayd etilgan. Lugʻatda uch xil maʼnodagi **qa**= asosi qayd etilgan:

qa –I idish, qop. Lekin bu soʻz, asosan, suyuq narsalar idishiga qoʻllanadi. Chunonchi, bu soʻz juft holda qaqacha tarzida qoʻllanadi, qop-qanor, qop-qopchiq demakdir.

qa –II yuqorilamoq, koʻtarilmoq

qa –III mahkam ushlamoq, tutmoq (DLT, III, 114).

Turkiy tillar tarixiy taraqqiyotida **qap** asosi ikki yoʻnalishdagi semantik jarayonni ifoda etadi: harakat yoʻnalishidagi **qap**= oʻzak morfemasi va narsa-buyum, ashyo maʼnosidagi **qap** oʻzak morfemasi.

Qap= harakat maʼnosi oʻzak morfemaning **qa**- asosi xususiyatidan kelib chiqadi; maʼlum davrlarda **qa**= harakatni bildiruvchi mustaqil soʻz sifatida baholangan. **Qap** asosli leksemalar haqida soʻz borganda uning harakat-holat bildiruvchi **qa**= tarixiy asosidan shakllanganini taʼkidlash joiz. Tadqiqotimiz **diaxron**→**sinxron** emas, **sinxron**→**diaxron** yoʻnalishida boʻlgani bois **qap**= asosi va **qap**= asosli birliklar manba sifatida belgilandi. Harakat ifodalovchi **qa**= oʻzak morfemasi hozirda mustaqil qoʻllanmaydi.

Qop – narsa solish uchun maxsus tayyorlangan xaltadan katta buyum. Qadimda turkiy tilda “mesh, sanach, gʻilof, jild” kabi ancha keng maʼnoni anglatgan bu ot aslida **qap** tarzida talaffuz qilingan. Oʻzbek tilida a unlisi a unlisiga almashgan: qap > qap . Maʼnoda torayish boʻlib hozir bu soʻz xaltadan katta qanordan kichik buyumnigina bildiradi (OʻTEL,562). Boʻsh qop tik turmas (Maqol).

Etimologik tahlillar bu oʻzak morfemalar semantikasida aloqadorlik mavjudligini, ularning bir asosdan shakllanganini koʻrsatadi.

Qap= oʻzak morfemasidagi semantik taraqqiyotni ifodalash uchun turkiy tillardagi omonimlar shakllanishiga murojaat qilamiz. Maʼlumki, oʻzbek tilidagi omonimlar uch xil usulda yuzaga keladi:

1. Tarixan har xil soʻzlarning bir xil grafik shaklda ifoda etilishi natijasida omonimlar yuzaga keladi. Masalan, oʻt (olov), oʻt (oʻsimlik), oʻt (harakat), oʻt (tana aʼzosi) omonimlarining tarixiy shakllari unlilar ifodasiga koʻra farqlanadi.

2. Boshqa tillardan o'tgan so'zlarning o'zbek tilidagi so'zlar bilan bir xil shakl hosil qilishi natijasida omonimlar hosil bo'ladi: *bog' - bog', tok-tok, tort-tort, soya-soya*.

3. Ko'p ma'noli so'z ma'nolari o'rtasidagi bog'lanishning yo'qolishi natijasida omonimlar shakllanadi: *dam (hordiq), dam (bosqon), dam (nafas); gap (til birligi), gap (yig'in)*⁷⁸. Masalan, kun so'zi, bir tomondan, quyoshni, ikkinchi tomondan, sutkaning ma'lum qismi – kunduzi, uchinchi tomondan esa, sutkaning o'zini, to'rtinchidan, tirikchilikni bildiradi. Shuningdek, oy so'zi ham turli ma'noga ega⁷⁹.

Omonimlar shakllanishining uchinchi usuli ko'p uchraydi. A. Rustamov "Devonu lug'ot-it turkda" keltirilgan *qaq* omonim xususiyatli so'zning ma'nolarini tahlil qilib bergan. Asarda *qaqning qaq I* – danak, mag'iz; *qaq II* – et, har bir qotgan narsa; *qaq III* – asl, tomir ma'nolari qayd etilgan⁸⁰.

Harakat yo'nalishidagi *qap* = o'zak morfemasi va narsa-buyum, ashyo ma'nosidagi *qap* o'zak morfemasi uchinchi usul bilan, ya'ni so'z tarkibidagi semantik taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan.

Qap o'zak morfema hozirgi o'zbek tili nuqtai nazaridan omonim asos sanaladi: ***qap*** = (harakat) – ***qap*** (narsa-buyum).

Omonimlik hodisasi bir turkum doirasida yoki bir necha turkum doirasida sodir bo'ladi. Turkiy so'zlarda fe'l-ot omonimligi ko'p uchraydi: *to'y, tut, yoz*.

Turkiy tillarda omonimiyani yuzaga keltiruvchi hodisa – qadimgi turkiy til so'zlariga xos turkum sinkretizmi o'z ifodasini topgan. E.V. Sevortyan tomonidan "fe'l-ot asoslar" deb nomlangan bu hodisa turkiy tillarning boshlang'ich taraqqiyot bosqichlarida bir bo'g'inli leksik asosning ayni bir lug'aviy ma'noga ega bo'lgani holda ism sifatida ham, fe'l sifatida ham ishlatilishini ifoda etadi. E.V. Sevortyan o'z qarashlarida "fe'l-ot omonimligi", "fe'l-ot omoformalar" terminlarini qo'llagan. Shu bilan bir qatorda, bu

⁷⁸ Xolmanova Z. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Sano-standart, 2013. – B.54.

⁷⁹ Хозирги замон ўзбек тили. Лексикология. Фонетика. Графика. Орфография. Морфология. Фахри Камол тахрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси, 1967. – Б.75

⁸⁰ Рустамов А. Махмуд Кашгарский о словах с звуковой оболочкой *qaq* //Turcologica// К семидесятилетию академика А. Н. Кононова издательство «Наука» Ленинградское отделение. –Л., 1976. – Б. 146.

hodisani “leksik-morfologik sinkretizm” deb qarash to‘g‘riroq ekanligini e’tirof etgan⁸¹. Hozirgi o‘zbek tilidagi *yoz, tut, shish, to‘y* kabi so‘zlarda turkum sinkretizmi xususiyatlari namoyon bo‘ladi⁸². **Qap** asosi semantikasida ham turkum sinkretizmi hodisasi kuzatiladi. Fe’l asosdan ot asosning shakllanganini ko‘rish mumkin.

“Qap= ” asosli birliklar qadimgi turkiy tildan boshlab hozirgi davrga qadar iste’molda bo‘lib kelmoqda. Bu so‘z va uning ishtirokidagi lingvistik birliklar qadimgi turkiy tildan hozirgi davrgacha bo‘lgan semantik tarkibini, semalarini qiyosiy planda o‘rganish so‘z strukturasi va semantikasidagi o‘zgarishlarni tahlil qilish imkonini yaratadi. Quyidagi “qap” asosli birliklar faol ishtirok etgan manbalar yuzasidan amalga oshirilgan statistik tahlil asosidagi xulosalarimizni bayon etamiz.

Qap= asosidan yasalgan “eshik, darvoza” ma’nosidagi “qapiğ” qadimgi turkiy tilda toponim sifatida kelgan: “*Tämir qapiğqa tägi sülädimiz*” – “Temir darvozagacha qo‘shin tortdik”.

8-xatboshining 2-gapida: qur‘qaru *Temir qapiğqa tegi süläyü bermiş*”- “g‘arbga-Temir darvozaga qo‘shin tortib bermish”.

To‘nyuquq bitiktoshi 45-qatorda: “*Tämir qapiğqa tägi irtimiz, anta yanturtimiz*” – “Temir qapiqqacha quvib bordik, o‘sha yerdan qaytardik”.

Qadimgi turkiy yodgorliklarda *Temir-qapug‘* toponimi uchraydi. Bu toponim xitoy manbalarida *Te-min-guan*, arab manbalarida *Bab al-Xadid*, fors manbalarida *Dar-i Axanin* tarzida qayd etiladi. *Temur-Kapu* (*kapug‘*)ning turkiy shakli o‘rta asr manbalarida ham qayd etilgan. Xitoy manbalariga ko‘ra, bu tog‘ yo‘li, shuningdek, “turklar o‘tish yo‘li” yoki turklarga qarshi to‘siq deb ham nomlangan⁸³.

Temir qapiğqa tegi sülädimiz “Temir qopiq(darvoza)qa qadar qo‘shin tortdik” (KT)⁸⁴.

⁸¹ Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков (Общетюркские и межтюркские основы на гласные). М.:Наука.1974. –С.32-40.

⁸² Dadaboyev H., Xolmanova Z. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. –Toshkent, 2015. – B. 46.

⁸³ Камолиддин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. / Отв. ред. М. Исхоков. - Т.: «Шарк», 2006. – С. 98

⁸⁴ Abdushukurov B. Qadimgi turkiy til. – Toshkent, 2019. – Б. 58

“Qutadg‘u bilig”da *qap*= va *qap*= asosli 9ta lug‘aviy birlik uchradi:

Qapuy eshik. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida bu so‘z bir necha o‘rinlarda *qapüy* shaklida uchraydi. Masalan: Bu qul kün at ađyir bu yer suv *qamuy*, eligdın tegib açti davlät *qapüy* – Bu qul, cho‘rilar, otlar, ayg‘irlar, bu yer-suv barchasi hukmdordan tegib (davlat) senga (baxt) eshigini ochdi (QBN, 207b)⁸⁵.

Qapuy eshik ma‘nosi bilan bog‘liq bir qator tushunchalarni anglatgan: a) “uy eshigi” ma‘nosida kelgan: Tişig boşlay iđma japa tut **qapuy** – Ayolni bo‘sh qoldirma (ishdan holi), eshigingni yopiq tut (QBN, 10513; QBN, 1290) –QBIL, 70⁸⁶; b) “to‘siq” ma‘nosini ifodalagan: Öđi kelsä açlur bu beklig **qapuy** – Vaqti kelib, bu qulf eshiklar ochiladi (QBN, 5015; QBN, 541); v) “saroy” ma‘nosida qo‘llangan: **Qapuy**dan kirürdä onun aşnu mañ – Saroyga kirayotganingda, avval, o‘ng oyoq bilan qadam tashla (QBK, 2395) – QBIL, 195.

“Eshik” ma‘nosidagi **qapuy** so‘zining **qapyi** varianti ishlatilgan: Biläjin tesä sen oqi händäsä, açilyaj saqiş **qapyi** munda basa – Bilayin desang sen o‘qi handasa (geometriya), ana shunda hisob (matematika)ning eshiklari ochiladi (QBN, 3154; QBN, 4274) – QBIL, 113. Bu shakllarni sinonim sifatida baholash mumkin.

Qapuy so‘zidan yasalgan **qapuyçi** shaxs oti qo‘llanib, “darvozabon”, “eshik qo‘riqchisi” (privratnik, strajnik, stoyaniy u vorot – door-keeper) ma‘nolarini bildirgan: Qapuyçi tidumaz ja jol qilyuçi – Darvozabonlar va yo‘l boshlovchilar menga halal berisholmaydi (QBK, 2214).

Qap= “tutmoq” ma‘nosida kelgan: Üzäni bar ersä čigän berk **qapar** – Uzangi bor bo‘lsa, (otliq) jilovni mahkam tutadi (QBN, 43711; QBN, 5984) – QBIL, 83.

Qapuydaqı so‘z shakli “eshik oldidagi” degan ma‘noni anglatgan (naxodyaniysya u vorot, strajnik, stoyaniy u vorot–door-keeper): Qapuydaqı birlä jaraşyu keräk qatilyu kelişgü barişyu

⁸⁵Дадабоев Х., Холмуродова М. “Qutadg‘u bilig”dagi so‘zlarning o‘zbekcha, ruscha va inglizcha izohli lug‘ati. – Toshkent, 2018. – B. 12

⁸⁶ “Кутадғу билиг” дан олинган мисоллар қуйидаги манба асосида берилди: QBIL–Dadaboyev H., Xolmuradova M. “Qutadg‘u bilig”dagi so‘zlarning o‘zbekcha, ruscha va inglizcha izohli lug‘ati. –Toshkent, 2018. Manba sahifasi qavs ichida ko‘rsatildi.

keräk – Eshik og‘alari bilan muomala qilish kerak, ular bilan aralashib, borish-kelish qilish kerak (QBN, 3003; QBN, 4065).

Qapuš “talon-taroj qilish”: Qapuš qarma boldi müsülman neji – Musulmonlarning mol-mulki talon-taroj bo‘ldi (QBK, 38216).

Qar “qon-qarindosh”, “yaqinlar”: Jarašyu keräk qap qadašlar bilä – Qon-qarindoshlar bilan yarashish kerak (QBK, 18514).

“Devonu lug‘otit turk”da *qap*= asosli 25 ta so‘z qayd etilgan⁸⁷. Bu so‘zlardan oltitasi harakat-holatni bildiradi: *qopar*, *qapsadi*, *qamadi I*, *qamadi II*: *qapulg‘an*:

Senda qopar chazanlar

Quzg‘u sinak jılanlar

Do‘k min quju to‘manlar

Quzruq tikib jugrushur (Qish bilan yoz tortishuvi: senda chayonlar, pashsha, chivinlar, xalqqa ozor beruvchi har xil hashoratlar bor. Senda ilonlar dumlarini o‘rab (gajak qilib) xalqqa hamla qiladilar (DLT, III, 189). Bu o‘rinda qopar “yuqorilamoq”, “ko‘tarilmoq” ma’nosidagi *qa*= asosidan shakllangan (DLT, III, 114).

qapsadi: aning tegra kishi qapsadi. Uning atorofini odamlar qopladi (DLT, III, 149);

qamadi: ko‘z qamadi. Quyosh tig‘idan ko‘zi qamashdi (DLT, III, 144).

qamadi: anin tishi qamadi. Nordon yoki g‘o‘r meva yeyishdan uning tishi qamashdi (DLT, III, 144);

qapulg‘an: Bu nen ol qapug‘da qapulg‘an. Bu narsa eshikda va boshqada doim suqiladi (DLT, I, 237).

16 ta so‘z narsa-buyum, mahsulot otini bildiradi: *qacha*, *qova*, *qa I* (idish, qop), *qa II* (yuqorilamoq, ko‘tarilmoq), *qa III* (maxkam ushlamoq, tutmoq), *qovuq I*, *qavuq II*, *qavuq*, *qap I*, *qap II*, *qap III*, *qapug‘*, *qabaqliq*, *qog‘urmach*, *kopchuk*, *kopchuk*, *qapg‘a*, *kobik*:

qacha–qop, xalta. Shundan olinib, *qaqacha* ham deyiladi. Ba‘zan qisqartirib, *qacha* tarzida ham talaffuz qiladilar (DLT, III, 127)

qova – turkiy yuganlarda bo‘ladigan ot burniga tegib turadigan qayish. (DLT, III, 127)

⁸⁷ Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч томлик. Ўзбекистон ССР Фанлар академияси. – Тошкент, 1963.

qovuq – har bir ichi bo‘sh narsa. Bu so‘zning *qovuq* shakli ham bor. (DLT, III, 89)

qavuq – siydik qopi. Bu so‘zning *qawuq* shakli ham bor. (DLT, III, 89)

qavuq – tariq qipig‘i. (DLT, III, 89)

qap –I mesh, sanach. (DLT, III, 80)

qap –II g‘ilof, jild. Har bir ustki o‘rovga ham *qap* deyiladi. (DLT, III, 80)

qap –III ona qornida bola o‘ralib turgan parda, xalta. Agar bola shu parda bilan tug‘ilsa, qutlug‘ deb fol qilinadi. Uni *qaplig‘ o‘g‘ul* deb ataladi. (DLT, III, 80)

qapug‘ – eshik. Ol *qapug‘* yapindi –u eshikni bir o‘zi berkitdi. (DLT, III, 45);

qabaqliq – qovoq o‘sadiga joy, qovoqzor. (DLT, I, 231)

qog‘urmach – qovurilgan bug‘doy. (DLT, I, 227)

qopchuq – qopchiq. Egarning ustiga kiygiziladigan yopuq. (DLT, I, 221)

qapchaq – suv (ariq) tarmoqlarining bir-biriga birlashadigan, to‘qnashadigan joyi. (DLT, I, 219-bet);

qapg‘a – qopqa, darvoza. (DLT, I, 200-bet)

qobiq – “chopon qavish” deb qayd etilgan (DLT, I, 193-bet). *Qobiq* so‘zi izohga ko‘ra harakat nomi shaklida berilgan. Harakat nomi shakli aslida fe‘l turkumiga mansub bo‘ladi. Ammo so‘zning shakliga asoslanib (-ik–ot yasovchi qo‘shimcha) uni “qaviq”, ya’ni “qavilgan joy” ma’nosida ot turkumiga, o‘rin-joy otiga mansub, deb hisobladik.

Ikkita so‘z belgi-xususiyat bildiradi:

qapa – har bir baland narsa. *Qapay* o‘glo‘g o‘q – Pati baland o‘q. (DLT, III, 118)

qabig‘lig‘ –bokira qiz; *qabig‘lig‘ qiz* – uyda o‘tirgan, kuyovga chiqmagan qiz (DLT, I, 228).

Bittasi olmosh turkumiga mansub: *qamug‘* – hamma. Su *qamug‘* yig‘lishdi. Hamma askarlar to‘planishdi (DLT, III, 57); Qurumlar *qamug‘* yuflushdi. Hamma katta toshlar yumaladi. (DLT, III, 57)

Bitta soʻz ravish turkumiga mansub: *qap* – ol mening birla uya qap oldi. U men bilan bir qorindan tugʻilgandek yaqin. (DLT, III, 80).

Ahmad Yassaviy hikmatlarida *qabugʻ* ishlatilgan: Oshiq Mansur “Analhaq” deb yoshi oqti, Chiltan birla hamroh boʻlub *qabugʻ* qoqti...⁸⁸

Nosuriddin Burxoniddin Rabgʻuziyning “Qisasi Rabgʻuziy”⁸⁹ asarida *qap*= asosli bir qator leksemalar uchraydi. *Qapugʻ* soʻzi 70 oʻrinda kelgan⁹⁰:

“uy eshigi” maʼnosida qoʻllangan: *Qapugʻdin* kirmadilar, mehrob tomindin kirdilar (QR,29); Bir *qapugʻda* bir avrat chiqti. Sulaymon aydi: “Taomgʻa muhtojman” (QR,41);

“xazina eshigi”ni anglatgan: Aymishlar, xazina *qapugʻlarin* berkitti. Yana bir ev qildurdi toshdin. Tepasin temur birla yopti, qoʻrgʻoshin birla suvadi. Bilqis taxtini anda qoʻydilar (QR,51).

Taxt tomonlarini ifoda etgan: Ul taxt oʻrtasinda bir qubba oʻn arshun, yashil parchadin *qamugʻi* gavhar birla bezaklik toʻrt *qapugʻligʻ* taxt erdi. Bir *qapugʻi* billurdin, biri aqiqdin, biri qahrabodin, biri oq kumushdin (QR,47);

“jannat eshigi” maʼnosini bildirgan: Aydi: «Koʻklar *qapugʻi*, ujmohlar *qapugʻi* ochildi (QR,196);

“toshdan qilingan toʻsiq” maʼnosida kelgan: Sulaymon tosh *qapugʻda* bularni qazgʻulugʻ koʻrub soʻrdi (QR,30);

“saroy” maʼnosida kelgan: Aydi: “Man gʻaribman. *Qapugʻga* keldim. Mani bogʻgʻa kiyurdilar. Koʻnuqladilar, kuch birla qiz berdilar”. (QR,43);

“saroy darvozasi”: Saroylar *qapugʻi* qurugʻ qoldi. Borib tomosha qilaling, teb bu tiltogʻ birlan Samdunni busugʻ yeriga kelturdi (QR,36); Toʻrt yigʻochliq yerdin saroy *qapugʻiga* tegi. Yana farmonladi. Togʻlardin yassi toshlar kelturdilar. Maydonda toʻshadilar Yana bir xos maydon qildurdi, bir kirpich, bir oltun kumush kirpich toʻshadilar (QR,50).

⁸⁸ Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (Yangi topilgan namunalar). – Toshkent: Movarounnahr, 2004. –B. 67.

⁸⁹ Носуриддин Бурхониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 2-китоб. –Тошкент:Ёзувчи, 1991. –Б. 269.

⁹⁰Носуриддин Бурхониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 2-китоб. – Тошкент:Ёзувчи, 1991. –Б. 28.

“hovli” ma’nosini ifodalagan: Samdun aydi: «Bulutg’a ayg’il tengizlar tubindin yinjular olsun. Kunaning saroy *qapug’ing’a* yomg’irtek yog’dursun (QR,40). Bunda sinekdoxa asosidagi ma’no ko‘chishi yuz bergan;

“tuxum ichidagi pardalar” ma’nosi ifodalangan: «Yumurtqaning ich *qopitek*, ichinda besh parda bor erdi, toshindin ko‘rinur erdi (QR,47);

Qapug’chi “darvozabon” ma’nosidagi shaxs oti qo‘llangan: Hudhud xatni tumshuqi birla tutub issiq havoda Bilqisg’a keldi. Bilqis saroylar *qapug’in* bog‘lab, *qapug’chilarga* saqlatib, o‘zi ichkari kirib, taxt uza oq harir o‘rtunub yotur erdi... *Qapug’chilarni* yig‘durdi. “Bu bitikni kim kelturdi?” teb so‘rdi. (QR,47);

“suyakning yuza qismi” ma’nosida qo‘llangan: Ramazon oyining o‘n yetinch kecha Ali namozqa kirurda Shabib busub ura, qilich *qapug’* suyakinga tegdi. Aliqa tegmadi (QR,200).

Qovush so‘zi 15 o‘rinda qo‘llanib, quyidagi manolarni ifodalagan:

“yopilmoq”: Mavlo yorliqi birla yigoch ikki pora bo‘ldi. Zakariyo kirdi, yig‘och *qovushti* (QR, 80);

“inoyat aylamoq, bermoq”: Man Ka’bag’a borib Ka’ba xalqasin tutayin, eshikka boshim qo‘yayin, Ka’baning tengrisindan tilagayin, bo‘lg‘aykim ul amonatni bizga *qovushturg‘ay* (QR, 103);

“tutashmoq”: Ammo Jabrailni farishtalik suratincha ikki yo‘li ko‘rdi. Ul ko‘kning etaklari yerga *qovushg‘an* yerda kun tug‘artek. O‘ng yoninda ujmohning Buroqin minib. Buroqning bir qo‘li, buti Qofdin naru. Bir qo‘li, bir buti Qofdin (QR, 148);

“birga bo‘lmoq”: Andog‘ qildilar ersa qapug yoruqidin xotun ko‘zi anga tush bo‘ldi. Ul erni o‘ziga undadi, anga qovushtilar. Bu erga telim nig‘matlar beru boshladi (QR, 188);

“birlashmoq”: Ya’ni biling, do‘st do‘stqa *qovushti* teb. Kim andog‘ tirilsa o‘lumi andag‘-o‘q bo‘lur. Iziyo, Abu Bakrning sidqi haqqi hurmati, oxir damda imon ro‘zi qilu ber! Omin, rabbil olamin (QR, 196).

“Jamlik”, “hamma”, “barcha” ma’nosidagi **qamug’** 317 o‘rinda kelgan: *qamug’* payg‘ambar (QR,187), *qamug’* olamliqlar (QR,188), *qamug’* yig‘lashtilar (QZ,193), *qamug’* olam (QR, 195), *qamug’* kufr va sehr va tug‘yon (QR, 196), *qamug’ini* yondurdi

(QR,201). *qamug'* birikib (QR,214). Bizning oramizda bir er chiqti, otalarimiz dinin o'gradi. Tengrilarimizni so'kar, otalaringiz *qamug'* tamugluq teyur (QR, 186).

“Boburnoma”da “eshik”, “darvoza” ma'nosidagi *qopu* qo'llangan: Ushmundoq qopuda kelgan g'anim hech nav' mutazarrir bolmay ajrashti. Masal borkim, “Qopudag'ini qopmasa, qariguncha qayg'urur”⁹¹. “Alisher Navoiy asarlari lug'ati”da *qobqa*⁹² so'zi qo'llangan bo'lib, u chelakka o'xshagan idish ekanligi izohlanadi.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da qap asosli 52ta leksema qayd etilgan: shaxs, **narsa-buyum, hodisa nomlari** – 30ta: qabariq, qamal, qamoq, qamrov, qayish, qop, qopi, qoplam, qoplama, qoplovchi, qoplon, qopu, qopcha, qopchiq, qopqon, qop-qop, qopqoq, kapital, katorga, qovurg'a, qovuq, qaviq, qovoq, qovun, qobiq, qalpoq, qo'lqop, paypoq, qopchiq, qopqa.

Harakat-holatni bildiruvchi leksemalar – 18ta: qabarmoq, qabarchimoq, qavimoq, qamramoq, qappaymoq, qamamoq, qamashmoq, qamashtirmoq, qapishmoq, qayishmoq, qovushmoq, qovushtirmoq, qopinmoq, qoplamoq, qoplanmoq, qopmoq, qoptirmoq, qopqoqlamoq.

Belgi-xususiyat bildiruvchi leksemalar – 4ta: qovurma qopag'on, qopong'ich, qopqoqli.

“Qap=” asosli leksemalar tahlili bu leksemalar struktur-grammatik jihatdan o'zgarishga uchraganini ko'rsatadi. Bu leksemalarda p→m, p→w fonetik o'zgarishlari kuzatiladi. Ularni semantik jihatdan farqlash mumkin bo'ladi.

Tarixiy manbalarda “qap=” asosli so'zlarda “qamrab olish”, “o'rab olish”, “ichi bo'sh”, “ustki qatlam” semalari faolligi kuzatildi.

Qadimgi turkiy tilda **qapuy** “eshik”, *qamug'* – hamma, *qap* “g'ilof, jild” leksemalari faol qo'llangan.

Qadimgi turkiy til davridagi *qovuq*, *qovush*, *qap*, *qobiq* so'zlari hozirda ayni shaklda ishlatiladi.

Qamug' – hamma, *qapsa-*, *qama-*, *qapulg'an*, *qapug'*, *qabaqliq*, *qog'urmach*, *qopchuq* so'zlari fonetik o'zgarishlar bilan qo'llanadi. *Qapuv* “eshik”, *qacha* “qop, xalta”, *qova* “turkiy yuganlarda

⁹¹Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент, 2008. – Б. 122.

⁹² Шу асар. – Б. 58.

bo‘ladigan ot burniga tegib turadigan qayish” so‘zlari hozirgi o‘zbek shevalarida uchraydi.

Qapʻi “eshik”, *qapuvč* “darvozabon”, *qapuš* “talon-taroj qilish” so‘zlari hozirda qo‘llanmaydi, hozirga qadar iste’moldan chiqqan.

O‘zbek tilida *qa*= asosli 230ga yaqin birlik mavjud. Bu lug‘aviy birliklarning miqdori ko‘p bo‘lgani, yana ham chuqurroq tahlillarni talab qilganini, hozirda mustaqil asos sifatida mavjud emasligini, qo‘llanmasligini e’tiborga olib, tadqiqotimizda shu asosdan shakllangan va uning semalarini ifoda etuvchi “*qap*=” harakat-holat morfemasi hamda undan shakllangan lug‘aviy birliklarni tahlil qildik.

“*Qap*=” harakat-holat asosli, o‘zbek tilida faol qo‘llanuvchi 57dan ortiq, tarixiy leksemalar va so‘z shakllari hamda rus tiliga o‘zlashgan leksemalar bilan birga 122ta, barqaror birikmalarni ham hisoblaganda 197ta lingvistik birlikni tahlilga tortdik.

“Qap=” asosidan shakllangan harakat-holat leksemalarining tarixiy-etimologik tahlili

Harakat bildiruvchi *qap*= asosli *qavarmoq*, *qavimoq*, *qoplamoq*, *qovurmoq*, *qovushmoq*, *qayishmoq* kabi leksemalarda “yopmoq”, “qoplamoq”, “qapishmoq”, “to‘plamoq”, “yig‘moq”, “biriktirmoq” semalari aks etadi.

Qavar – “ishqalanish, kuyish natijasida biroz shish-”. Mening ham dastyorchilik qilaverib oyog‘im qavardi (Oydin). Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu fe’l asli “biroz shishgan, ko‘tarilgan” ma’nosini anglatgan **qaba//qapa** sifatidan (DS, 399, 420) –**r** qo‘shimchasi bilan yasalgan; o‘zbek tilida **b** undoshi **v** undoshiga almashgan: **qaba+r>qabar->qavar**⁹³.

Qavi – “avra-astari orasiga paxta solingan narsani yirik-yirik qilib tik-”. (Qosimjon) uyga kelganda oyisi ayvonda ko‘rpa **qavib** o‘tirardi (O‘lmas Umarbekov). Eski o‘zbek tilida ham shunday ma’noni anglatgan bu fe’lni (KRS, 310) qadimgi turkiy tildagi **qavʻish-** (DS, 437; 1. “soedinyatsya”); **qavsa-** (DS, 437; “okrujat, oxvatʻivat”) so‘zlari bilan qiyoslashdan ko‘rinadiki, qadimgi turkiy tilda **qav-** fe’li mavjud bo‘lib, **qavʻy-** so‘zi ana shu fe’lga takror

⁹³ ЎТЭЛ 1-жилд, - Б. 500.

ma'nosini ifodalovchi –**Ы** qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan; keyinchalik **Ы** unlisining qattiqlik belgisi yo'qolgan: qavы-qavi⁹⁴.

“Qop” asosida yasalgan birlik *qoplamoq*dir. Hozirgi o'zbek tilida *qoplamoq* so'zi quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:

1)“biror narsaning ustini yoki hamma yog'ini qamramoq, burkamoq, egallamoq, bosib olmoq”: Ko'k yuzini bulut qopladi. Xonani tutun qopladi.

“Qoplamoq” to'laligicha qamrab olish tushunchasini ifoda etadi. Ufqni qizg'ish tumanlik *qoplagan*. Kun bo'yi yona- yona toliqqan osmon yendi yaxlit cho'g'ga aylanib tinchigandek (O'.X. Ikki eshik orasi). Ushbu misolda *qoplamoq* osmonning bir chekkasi, ufqni qamrab olishni ifodalagandek tuyulsa-da, aslida “to'liq qamrab olish” semasini anglatadi. Chunki fe'l ufq obyektiga nisbatan ishlatilgan va bu o'rinda ufq yaxlit butunlik sifatida qaraladi;

“biror narsaning sathini, yuzasini, betini egallamoq, band qilmoq” ma'nosida ham “to'liq qamrab olish” semasi aks etadi: Suv betini muz qopladi. Qirlarni yam-yashil maysalar qopladi. Shunda yaproqsiz novdalarning hammasi yirik-yirik qizil gullar bilan *qoplanadi*.

Inson ko'rinishining bir holtdan ikkinchi holatga o'tishini bildiradi: Endi yuzlari, peshona va chakkalari keksalik ajinlari bilan *qoplanibdi*.

2) so'z moddiylikning “ko'p miqdor” semasini ifoda etadi: U bir nafas sukut qildi. Yirik, lekin qizil, mayda tomirchalar bilan qoplangan xira ko'zlarini qisib javob berdi...Oybek, Qutlug' qon;

mavhum voqelikning “ko'p miqdor”ini ifodalaydi: Uning boshini turli fikrlar, rejalar qopladi. Oybek, Navoiy;

3) yuqoridagi misollarda *qoplamoq* tabiiy jarayonning “to'liq qamrab olishi”ni ifoda etgan. Quyidagi misolda esa “to'liq qamrab olingan” sun'iy voqelikka ishora qilinmoqda: “predmetning yuzasini boshqa narsa bilan o'ramoq, yuzasiga boshqa narsa yopishtirmoq, to'shamoq” – G'adir-budur g'isht *qoplangan* maydondan o'tib borarkanman, qoqilib o'mbaloq oshib ketdim. (O'.X. Ikki eshik orasi); Yuziga (yoki betiga) charm *qoplamoq*.

⁹⁴ ЎТЭЛ 1-жилд, - Б. 501.

Qoplamoq muayyan maqsadda amalga oshirilgan “to‘liq qamrab olish” semasini ifodalaydi: Chodirning ichi zar ipak bilan to‘qilgan mato bilan *qoplangan*, sultonning tepasida bir tirsak balandligida qimmatbaho toshlar ila bezatilgan toj osig‘liq turardi. (P.Q.Humoyun va Akbar)

Quyidagi misolda “to‘liq qamrab olish”ga nisbatan “bezash” semasini ustun: Poklik timsoli bo‘lgan ma’naviy otasining qabrini Akbar dengiz tubidan olingan sof sadaflar bilan *qoplattirdi*. (Oybek, Qutlug‘ qon);

“to‘smoq”, “berkitmoq”: Safarov supadagi kigizni tortib, alanganing ustini *qopladi*-da, yugurib, tashqariga chiqdi. (A. Q.Ko‘r ko‘zning ochilishi);

4) “talab”, “ehtiyojini qondirmoq”, “etarli bo‘lmoq” ma’nolarida qo‘llanadi: Ularning topgan pullari ro‘zg‘or ehtiyojini zo‘rg‘a *qoplardi*. (S.A. Mavlono Muqimiy);

5) “yo‘qotilgan yoki yetishmaydigan narsaning o‘rnini to‘ldirmoq”, “o‘rnini bosmoq”: Zararni qoplamoq. Qarzni qoplamoq. Dehqonning ming mashaqqat bilan ekib olgan hosili xarajatni qoplay olmasdi. N. Safarov, Olovli izlar⁹⁵.

“Qap=” asosidan shakllangan harakat-holat bildiruvchi so‘zlardan biri *qovushmoq* so‘zidir. *Qovushmoq* – 1.Bir biriga yopishib, birikib, ulanib, bir butunlikni tashkil qilmoq, qo‘shilmoq, tutashmoq, yopishmoq. 2.Qo‘shilmoq, juftlashmoq. 3.Ittifoq, hamjamiyat bo‘lmoq, bir-biriga monand ish tutmoq. 4.Bir-biriga monand, muvofiq kelmoq, mos tushmoq, uyg‘unlashmoq, yopishmoq⁹⁶.

Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu so‘z asli –*qap* fe’lining “mahkam ushla”, “quchoqla” ma’nosidan birgalik ma’nosini ifodalovchi -(ы)sh qo‘shimchasi bilan hosil qilingan; qadimdagi turkiy tilda p undosh b undoshiga almashgan yana keyinroq ikkinchi bo‘g‘indagi ы unlisi u unlisiga almashib, *qovush* shakli yuzaga kelgan. Mahmud Koshg‘ariy bu so‘z tarkibida yumshoq sh undoshi qatnashuvini va bu undoshning v undoshiga almashtirish mumkinligini alohida ta’kidlaydi. O‘zbek tilida bu

⁹⁵ЎТИЛ, –Б.334.

⁹⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. 5-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. –Б.334.

soʻzning birinchi boʻgʻinidagi a unlisi o unlisiga almashgan: qab + ish = qabish > qabish > qavish > qovush⁹⁷.

Chuvalangan boʻyra ustida paxtasi arang *qovushib* turgan koʻrpacha. R.Azizxoʻjaev. Bu oʻrinda qovushmoq “nomigagina birikmoq” maʼnosida kelgan. Boyagidan bir muncha kuchaya tushgan shamol gulni gulga *qovushtirib*, goʻyo bu ikki yoshga: Siz ham mana shu gullar kabi qoʻshiling, degandek koʻrinar edi. A.Qahhor. Bu misolda esa “chirmashmoq” maʼnosini bildirib kelgan.

Alisher Navoiy asarlarida *qovushmoq* “birikmoq”, “birga boʻlmoq”, “toʻplanmoq” hamda “yorga yetishmoq” maʼnolarida ishlatilgan:

Bu qadam qoʻygʻoch yetar mahbubgʻa,
Hajr borib *qovushur* mahbubgʻa (LT)⁹⁸.

Hajr, yaʼni ayriliqning mahbubga qovushishi sogʻinchning yuqori darajasini ifodalashga xizmat qilgan.

Qapish – “bir-birini zich ushla”, “bir-biri bilan zich birlash”. Yigitning qoʻllari qizning bellariga chirmashdi, koʻkraklari bir-biriga qapishdi (Oybek). Qadimgi turkiy tilda “bir-birini ushla-”, “bir-biriga yopish-” maʼnosini anglatgan bu soʻz asli qadimgi turkiy tildagi “mahkam ushla” maʼnosini anglatgan **qap-** feʼlidan birgalik maʼnosini ifodalovchi **-(y)sh** qoʻshimchasi bilan hosil qilingan. Maʼno taraqqiyoti natijasida “bir-birini ushla-” maʼnosi asosida “bir-biri bilan zich birlash-” maʼnosi yuzaga kelgan⁹⁹.

Qapishmoq yuqorida keltirilgan “qovushmoq” soʻzining fonetik oʻzgarishga uchragan shakli. Soʻzning strukturasida boʻlgan oʻzgarish uning semantikasiga ham taʼsir koʻrsatgan. “Yopishmoq”, “birikmoq” semasi qovushmoq soʻziga nisbatan qapishmoqda nisbatan kuchli darajada ifodalanadi.

Qapishmoq harakat-holat leksemasi quyidagi maʼnolarni ifodalaydi:

“yopishmoq”: Qumtepalarning terskay tomonida saksovul va yantoqdan tashqari hindlar jahonu deb ataydigan yulgʻunsimon

⁹⁷ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Туркий сўзлар. – Тошкент: Университет, 2000. –Б.522.

⁹⁸Навоий асарлари луғати. Э.Фозилов таҳрири остида. –Тошкент:Фан, 1985, –Б. 766.

⁹⁹ ЎТЭЛ 1-жилд. –Б. 522.

o‘simlik, pxoch nomli butalar to‘p-to‘p bo‘lib, yerga *qapishib* o‘sadi;

Ta’na a’zolariga, asosan, qoringa nisbatan ishlatilib, “ichiga botmoq, puchaymoq” ma’nolarini anglatadi: Masalan, ozib, qorni *qapishib* ketmoq. Qorni *qapishgan* ot. Sherbek bir qarashda ularning biqini *qapishib* yotganini payqadi. (S.A. Oqsoy)

Tilshunos R.Rasulov *qapishmoq*, *qovushmoq* fe’llarini “birikish” semasiga ega fe’llar deb izohlagan: Ushbu fe’llarning doimo ikki predmet orasidagi munosabatni aks ettirishi, predmet munosabati ularning bir-biri bilan birikkan, tutashgan ko‘rinishiga, «yopishgan» holatga o‘tishi, shaklan bir butunligi bilan ajralib turishini qayd etgan. Predmetlar o‘rtasidagi bu munosabat, ularning muayyan nuqtalari orasidagi mavjud aloqa (birikish) muayyan sabab ta’sirida yuz berishini qayd etadi. Qapishmoq fe’lining “butunlay yopishgan holatda bo‘lmoq” tushunchasini ifodalashini misollar orqali ko‘rsatib bergan: Panjara orqasidagi ipak gullar tong qirovidan yerga qapishgan (A.Muxtor). Yomg‘irda yerda qapishgan maysalar mag‘rur kekkayadi (Shuhrat).

Qovushmoq so‘zining “tutashgan holatda bo‘lmoq” ma’nosini ifodalashi, qapishmoq bilan sinonimlik hosil qilishini aytib o‘tgan. Qapishmoq ma’nosida belgi darajasi, ta’sirchanlik nisbatan kuchli ekanligini, qapishmoq so‘zining ko‘proq jonli so‘zlashuv nutqiga, qovushmoqning badiiy nutqqa xosligini ta’kidlagan. *Qapishmoq* so‘zi ma’nosini nisbatan salbiy, qovushmoq so‘zi ma’nosini esa ijobiy bo‘yoqqa ega, deb baholagan. *Qapishmoq* shaxsga ham, predmetga nisbatan ham qo‘llanishini, *qovushmoq*ning esa asosan shaxsga, uning juft a’zolariga nisbatan ishlatilishini qayd etgan¹⁰⁰.

“Qap=” asosidan shakllangan ayrim harakat-holat so‘zlarida “bo‘rtmoq”, “shishmoq”. “ko‘tarilmoq” semalari ustundir.

Qappaymoq esa *qapishmoq* fe’lining aksicha, “shishib, to‘lib, to‘lishib ko‘tarilmoq, oldinga turtib, do‘ppayib chiqmoq, do‘ppaymoq” ma’nolarini ifodalaydi: Masalan, qorni qappaygan odam. Lekin Mevajon o‘n oyda ham, o‘n bir oyda ham tug‘may, qorni *qappayib* yuraverdi. (P.Q. Humoyun va Akbar).

¹⁰⁰ Расулов Р.Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Тошкент, 2006. –Б.73-76.

Bu fe'l eski o'zbek tilida qadimgi turkiy tildagi "ko'tarilgan", "baland" ma'nosini anglatgan **qapa** sifatidan (DS, 420) –y qo'shimchasi bilan yasalgan; qo'shimcha qo'shilganidan keyin **q** undoshi qatlangan: **qapa+y>qappay**. DSda **qapa** so'ziga **qaba** so'zidan havola qilingan (339-bet); aksincha, **qabar** so'ziga (339-bet) **qapar** so'zidan (420-bet) havola berilgan va bu so'z asosida yasalgan qabarg'an ("voldır"), **qabart** (pobud. ot qabar-) so'zlari keltirilgan. Ko'rinadiki, bu so'zning asosiy shakli qapa emas, qaba bo'lgan. Bu sifat asli –a qo'shimchasi bilan yasalgan; demak, qadimgi turkiy tilda "shish-", "dumaloq shakl ol-" ma'nosini anglatgan **qab-** fe'li mavjud bo'lgan (Bu fikrni o'simlik turlaridan birini anglatuvchi **qabaq** so'zi ham tasdiqlaydi). Yuqoridagi mulohazalarga suyanib, **qappay-** so'zining tarkibini quyidagicha ko'rsatish mumkin: (**qab- +a= qaba>qapa**)+y=**qapay->qappay**¹⁰¹.

Qabarmoq yoki *qabarchimoq* leksemasi ham "bo'rtmoq", "shishmoq" semalarini ifoda etadi: Ishladik, ishladik to'kib marjon ter, Qo'llar qabarchidi va bo'ldi qadoq. Qo'llar qabarchisa.. qilma xavotir, Mehnat bilan ketar yurakdagi dog'. X. Saloh, Toshkent bilan suhbat.

Qopmoq fe'lining birinchi ma'nosi tishlamoq¹⁰² bo'lib, uning bosh ma'nosi, asosan, hayvonlarga, xususan, it va tuyaga nisbatan ishlatiladi. Masalan, It qutursa, egasini qopadi. Maqol.

Yoki: He bedovlar jazosini topadi, Bir nechasi ag'nab, qumni *qopadi*. «Alpomish».

Qop – "tishla-" (it, tuya harakati haqida). It qutursa, egasini qopadi (Maqol). Qadimgi turkiy tilda "ushla-" (DS, 420), "echib ol" (Devon, II, 10) kabi ma'nolarni anglatgan bu fe'l asli qap- tarzida talaffuz qilingan. O'zbek tilida a unlisi ä unlisiga almashgan: qap->qäp. Ma'no taraqqiyoti natijasida bu fe'l hozirgi o'zbek tilida faqat itning, tuyaning hamla qilishinigina anglatadi¹⁰³.

Qopmoq insonga nisbatan qo'llanganda uning ko'chma ma'nosi yuzaga chiqadi. Bunda jerkib, urishib gapirmoq, dag'al muomala va dilini og'ritmoq kabi salbiy ma'nolari anglashiladi. Yaxshi topib

¹⁰¹ ЎТЭЛ 1-жилд. –Б. 522.

¹⁰² ЎТИЛ 5-жилд. –Б. 334.

¹⁰³ ЎТЭЛ 1-жилд. –Б. 562.

gapirar, yomon *qopib* (gapirar). Maqol. ... -Davlatbaxt qani ? Nega u kelmadi ? – *qopib* gapirdi Olloyor. Oybek, Navoiy.

Qa= asosli harakat-holat leksemalarida “qamrab olish”, “biriktirmoq”, “yopishtirmoq” semalari dominantlik qiladi.

Harakat-holat leksemalari zamon, mayl, shaxs-son, fe’lning vazifa shakllari, nisbat qo‘shimchalari bilan kelib, lug‘aviy ma’noga qo‘shimcha grammatik ma’nolar ifodalangan.

“Qap=” fe’l leksemasi ishtirokidagi barqaror birikmalarning funksional-semantik, kognitiv xususiyatlari

Har bir tilda bir-birini taqozo qiladigan, yaxlit holda ma’no ifodalashga xizmat qiladigan, bir butun holda lisoniy ongda voqelanadigan *barqaror birikma*ar yoki *paremiologik birliklar* mavjud.

G.L.Permyakov paremiyaning kengroq tushuncha ekanligini ta’kidlab, unga gap ko‘rinishidagi xalq hikmatlarini (masalan, maqol, matal, alomatlar) yoki qisqa hikoyachalarni (masalan, qiziqarli hikoyacha, latifa, topishmoq)larni kiritadi¹⁰⁴. G.L.Permyakov muayyan bir qolipda doimo takrorlanuvchi muqim so‘z birikmalarini bir necha guruhga bo‘ladi:

1. Frazelogizmlar. Ularning eng umumiy xususiyati shaklan kamida ikki alohida so‘zdan iborat bo‘lib, ma’no jihatidan yagona tushunchani bildiradi, ya’ni qandaydir alohida narsa-hodisaning belgisi bo‘lib keladi. Frazelogizm shaklan bir necha so‘zdan iborat bo‘lsa ham, ma’no jihatidan odatda bir so‘zga tengligi uni lug‘aviy birliklar qatorida sanashga asos bo‘ladi.

2. Maqol va matallar. Bular shaklan to‘liq yoki noto‘liq, murakkab yoki sodda jumlagacha teng bo‘lib, mazmunan bir narsa-hodisani emas, balki muayyan narsa-hodisalar orasidagi munosabatning, ya’ni muayyan vaziyat (situatsiya) yoki holatning belgisi bo‘lib keladi. Maqol va matallar har qancha murakkab bo‘lsa-da, mazmun yaxlit jumla orqali reallashadi.

3. Bir necha jumladan tashkil topgan qaytariluvchi matn birliklari. Bular xalq og‘zaki ijodiga taalluqli turli ixcham janrlar,

¹⁰⁴ Пермяков, Г.Л. От поговорки до сказки: заметки по общей теории клише / Г.Л. Пермяков. – М., Наука, 1970. – С.33.

kichik masallar, latifalar, topishmoqlar, parafrazalar, ertaklar va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotimizda G.L.Permyakov tasnifi va bir qator tadqiqotlarda keltirilgan tasniflarga asoslanib, *qap*= ishtirokidagi barqaror birikmalar sifatida frazemalar va maqollar, matallarni tahlilga tortdik.

Qap= asosidan shakllangan *qovushtirmoq* harakat-holat leksemasi frazemalar tarkibida kelib, turli funksional-semantik vazifalarni bajargan.

“O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”¹⁰⁵da *qovushtirmoq* semantik yadrosi asosida shakllangan frazemalar keltirilgan.

Qo‘l(ini) qovushtirmoq 1) qo‘lni, besh panjani birin-ustin kesishtirgan holda tutmoq. *Mirshab odamlaridan biri avval xatirchilik bandining qo‘lini oldiga qovushtirib bog‘lab, peshband qilmoqda edi.* S. Ayniy, Qullar; 2) birovlariga hurmat, ehtirom yuzasidan shu vaziyatda turmoq, qulluq qilmoq. *U darvozadan kirib, supaga o‘n-o‘n besh qadam qolganda, qo‘l qovushtirib, ta‘zim bilan: -Assalomu alaykum, – dedi.* Oybek, Tanlangan asarlar; 3) *ko‘chma ma’noda:* ish qilmasdan kekkayib, qaqqayib qarab turmoq. *Ochil, brigadirman, deb qo‘l qovushtirib o‘tirmaydi.* F. Nurullaev, Bo‘z yitit¹⁰⁶.

“O‘zbek xalq maqollari”¹⁰⁷ kitobidan tarkibida *qap* va *qap* asosli birliklar qo‘llangan 73ta maqolni ajratdik.

Maqollar tarkibida qo‘llangan harakat bildiruvchi **qap** asosidan yasalgan so‘zlar orasida eng faoli, chastotasi eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgani *qopmoq* harakat leksemasidir. *Qopmoq* leksemasi turli grammatik shakllarda kelgan:

qopar (10ta): Yirtiq to‘nni it qopar (485), Indamasni it qopar (64), Ot bo‘lsang, choparsan, It bolsang, qoparsan (156), Yomon kishi bolasin Tuyada ham it qopar (159), It qutursa, egasini qopar, Chumchuq qutursa, burgutga chopar (184), Azobli qulni ot ustida it qopar (193), Baxtsiz kishini tuyaning ustida it qopar (194),

¹⁰⁵ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. –Б. 407.

¹⁰⁶ Раҳматуллаев Ш. Кўрсатилган манба. – Б.514.

¹⁰⁷ О‘zbek xalq maqollari (Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov; Mas’ul muharrir: Sh.Turdimov. – Toshkent: Sharq, 2005. –Б.512 .

Kambag'alni ot ustida it qopar (196), Eski choponni it qopar (238), Eshak semirsa, egasini tepar, It semirsa, egasini qopar (332);

qopib (5ta): Yaxshi topib gapirar, yomon qopib, Tekinxo'r qopib yeydi, Mehnatkash topib yeydi (42), Yaxshilar topib so'zlar, Yomonlar qopib so'zlar (75), Bilgan topib gapirar, Bilmagan – qopib (127), Yaxshi topib so'zlar, Yomon – qopib (342);

qopmas (4ta): Vovulagan it qopmas, Hippakisidan qo'rq¹⁰⁸ (427), It qopmas, Ot tepmas dema (430), Tepmas ot yo'q, Qopmas it yo'q (437), Uyga kelganni it qopmas (227);

qopadi (1ta): Tekinxo'rga teng kelma, qopadi, O'z aybini tekin pulga yopadi (42);

qopolmas (qopa olmas) –1 ta: It qarisa, qopolmas, Ot qarisa, chopolmas (465);

qopmay (1ta): O'chakishgan it qopmay qo'ymas (77);

qoptirma (1ta): Tualiga bostirma, Itlikka qoptirma (205);

qovushar (2ta): Alishar bo'lsang, chiningni ayt, Qovushar bo'lsang, siringni ayt (44), Tog' tog' bilan qovushmas, Odam odam bilan qovushar (245);

qovurmoq (1ta): Yel ishi – sovurmoq, Olov ishi – qovurmoq (429);

qoplon (1ta): Quyion bolasini botirim der, It bolasini qoplonim der (230),

qopag'on (1ta): Itni qopag'on qilgan – egasi (156).

Qap va qap asosli so'zlar ishtirokidagi maqollarning chastotali jadvali:

Maqollar qap=asosli so'zlar	tarkibidagi	Qap= asosli so'zlarning qo'llanish chastotasi
qopar		10
qopib		5
qopmas		4
qovushar		2
qopadi 1		1
Qopolmas (qopa olmas)		1
Qopmay		1
Qoptirma		1

¹⁰⁸ Maqollar quyidagi manbadan olinadi. Nashr saҳifasi qavc ichida kўrsatiladi.

Qovurmoq	1
Qopag'on	1

“Qap=” harakat-holat leksemasi mustaqil ravishda faqat bir ma’noda, “tishlamoq” ma’nosida, asosan, hayvonlarga, itga nisbatan ishlatiladi. It qutursa, egasini qopadi (maqol).

Xalq og‘zaki ijodi namunalarida *qopmoq* otlarga nisbatan ham qo‘llangan: He bedovlar jazosini topadi, Bir nechasi ag‘nab, qumni *qopadi*. «Alpomish».

Qopmoq leksemasi og‘iz orqali “qamrab olish” semasini ifoda etadi. “Qop” – “tishla” qadimgi turkiy tilda “ushla”, “echib ol” [Devon II, 10] kabi ma’nolarni anglatgan bu fe’l asli “qap” tarzida talaaffuz qilingan; o‘zbek tilida a unlisi keyinchalik o unlisiga almashgan: qap-qop.

O‘zbek xalq maqollari ichida *qopmoq* fe’lining o‘z ma’nosida ham, ko‘chma ma’noda ham qo‘llanish holatlari ham mavjud. Masalan:

Eshak semirsa, egasini tepar, It semirsa, egasini qopar maqolida ham *qopmoq* leksemasi o‘z ma’nosida ishlatilgan.

O‘zbek tilining etimologik lug‘atida Sh.Rahmatullaev *qop* leksemasining qadimgi turkiy tilda “tut”, “mahkam ushla” ma’nosi borligini qayd etadi¹⁰⁹. Demak, *qop* semantik maydoni juda keng bo‘lib, “qamrab olmoq”, “yopmoq”, “birlashmoq”, “berkitmoq” bilan bir qatorda “tutmoq” semasini ham aks ettiradi.

O‘zbek xalq maqollari tarkibida ishlatilgan *qopmoq* leksemasi quyidagi maqollar tarkibida o‘z ma’nosida, “tishlamoq”, “qamrab tishlamoq”, “tutmoq” ma’nolarida qo‘llangan, maqol semantikasidagi ko‘chma ma’noning reallashuviga xizmat qilgan:

Qop= leksemasi “jonzotga xos doimiy xususiyati”ni ifodalaydi:

It qopmas, Ot tepmas dema (430¹¹⁰); Tepmas ot yo‘q, Qopmas it yo‘q (437); Ot bo‘lsang, choparsan, It bo‘lsang, qoparsan (156).

¹⁰⁹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 1-жилд. -Тошкент: Университет, 2000.

¹¹⁰ O‘zbek xalq maqollari. –Toshkent: Sharq, 2005. Qavs ichida shu nashr sahifasi kўrsatiladi.

Qop= leksemasi “jonzoʻtga xos doimiy xususiyatning namoyon boʻlmaligi”ni ifodalagan: It qarisa, qopolmas, Ot qarisa, chopolmas (465); Vovullagan it qopmas, Hippakisidan qoʻrq (427);

Qopish muayyan vaziyat natijasi sifatida aks etgan: It qutursa, egasini qopar, Chumchuq qutursa, burgutga chopar (184); Eshak semirsa, egasini tepar, It semirsa, egasini qopar (332); Itni qopagʻon qilgan –egasi (156); Oʻchakishgan it qopmay qoʻymas (77).

Qop= salbiy baho, baxtsizlik, omadsizlik belgisi sifatida tasvirlangan: Yirtiq toʻnni it qopar (485); Azobli qulni ot ustida it qopar (193); Baxtsiz kishini tuyaning ustida it qopar (194); Kambagʻalni ot ustida it qopar (196).

Qop= harakat-holat leksemasida “ehtiyotlash”, “himoya qilish” semasi ifodalangan: Tualiga bostirma, Itlikka qoptirma (205).

Qop= muayyan vaziyatga nisbatan koʻrsatilgan reaksiyani bildirgan: Indamasni it qopar (64).

Qop= milliy qadriyatni ifodalashga xizmat qilgan: Uyga kelganni it qopmas (227).

Qopmoq insonga nisbatan qoʻllanganda uning koʻchma maʼnosi yuzaga chiqadi. Bunda jerkib, urishib gapirmoq, dagʻal muomala va dilini ogʻritmoq kabi salbiy maʼnolar anglashiladi. Yaxshi topib gapirar, yomon *qopib* (gapirar).

Aslida “tishlamoq”ni anglatuvchi bu leksema insonlarga nisbatan ishlatilmaydi, chunki qopish va tishlash faqat hayvonga xos. Ammo salbiy maʼnoda “qoʻpol soʻzlash”ni ifodalashda *qopmoq* leksemasidan foydalaniladi. *Qopmoq* feʼlining koʻchma maʼnosida “jerkimoq”, “urishmoq”, “dagʻal, dilini ogʻritib gapirmoq” semalari ifodalanadi.

Quyida keltirilgan oʻzbek xalq maqollarida *qopmoq* leksemasi koʻchma maʼnoda qoʻllanib, turli funksional-uslubiy vazifalarni bajargan.

Tekinxoʻr qopib yeydi, Mehnatkash topib yeydi maqolida *qop* shaxsga xos “yulish”, “soʻrash”, “urishib olish” semalarini ifodalagan. *Qopish* tekinxoʻr shaxsning salbiy belgisi sifatida tasvirlangan: Tekinxoʻrga teng kelma, qopadi, oʻz aybini tekin pulga yopadi (42).

Qopish shaxsning noʻnoqligini, salbiy belgisini ifodalashga xizmat qilgan: Bilgan topib gapirar, Bilmagan – *qopib* (127).

Yuqorida *qopmoq* leksemasining barcha o‘rinlarda salbiy ma’no ifodalaganini kuzatdik. Tarixiy manbalarda mazkur leksemadan hosil bo‘lgan qopag‘on sifati shaxs ismi tarkibida kelib, ijobiy bo‘yoq kasb etgan: qadimgi turkiy yil davrida (691-716 yillar) *Hoqoq Qopog‘on* ismli hukmdor qayd etilgan ¹¹¹. “Qahramon, bahodir” ma’nosidagi *kaban* (qobon) so‘zini mazkur tushunchalarga nisbatan omonim deb izohlaydi¹¹². Bu ikki *qop* asosni semantik usulda yasalgan, ya’ni harakat ma’nosini ifodalagan qap= asosidan yuzaga kelgan omonimlar, deb baholash muki.

Qovushmoq “uchrashmoq”, “ko‘rishmoq”, “birlashmoq” ma’nolarini ifodalagan: *Tog‘ tog‘ bilan qovushmas, odam odam bilan qovushar* maqolidagi qovushmoq fe’li uchrashmoq, juftlikning birlashuvi, yuzma-yuz kelishi ma’nosini anglatgan. Tog‘ bir joyda muqim turgani uchun bir-biri bilan uchrasholmaydi, lekin inson doim harakatda, shuning uchun vaqt o‘tib bo‘lsa ham o‘zaro duch kelib qolaveradi.

*Alishar bo‘lsang, chiningni ayt, Qovushar bo‘lsang, siringni ayt.*¹¹³

maqolidagi qovushmoq leksemasi esa aynan “birlashmoq” ma’nosini ifodalagan. Ya’ni agar insonlar biror maqsadda birlashadigan bo‘lsa, o‘rtada sir qolishi kerak emas, ikkala tomon bir-birining ahvolidan to‘liq xabardor bo‘lishi kerak.

Er qoplar, xotin saqlar (365) ¹¹⁴ maqolidagi qoplar “yig‘moq”, “to‘plamoq” ma’nosini anglatadi. Ushbu maqolda erning mehnat qilib to‘plaganlarini xotin tejab, saqlashi lozimligi haqidagi fikr ilgari surilgan.

Qap= asosidan shakllangan birliklar frazemalar, maqollar tarkibida kelib, barqaror birikmalar semantikasining reallashuviga asosiy o‘rin tutadi. Barqaror birikmalarning tarkibiy komponenti sifatida yaxlit ko‘chma ma’noni ifodalashga xizmat qilgan. Lug‘aviy ma’noga uyg‘un ravishda turli funksional-uslubiy vazifalarni bajargan.

¹¹¹ Азимов И., Рахматов М. Қадимги туркий тил. –Тошкент, 2005. –Б. 3.

¹¹² Шипова Е. Словарь тюркизов в русском языке. –Алма-ата: Наука, 1976. 109-б. –Б. 69.

¹¹³ O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. –Б. 44.

¹¹⁴ O‘zbek xalq maqollari. –Toshkent: Sharq, 2005. –Б. 365.

1. *Qap*= asosli leksemalar tahlili harakat-holat ma'nosidagi *qap*= va narsa-buyum ma'nosidagi *qap* leksemalari mavjudligini ko'rsatdi. Bu birliklar til tarixining keyingi davrlarida semantik usul natijasida yuzaga kelgan omonim sifatida baholanadi. Dastlab, muayyan jarayonni ifodalovchi harakat bildiruvchi *qap* fe'l-leksemasi yuzaga kelgan. Keyinchalik, shu leksemadan shakllangan narsa-buyumni ifodalovchi *qap* ot-leksemasi semantik usul bilan hosil bo'lgan. Hozirgi vaqtda ular alohida mustaqil ikkita leksemaga sifatida qaraladi.

2. Qadimgi turkiy tilda yuzdan ortiq *qap*= asosidan shakllangan leksemalar qo'llanib, shaxs harakati va faoliyati, jonzoqlar xatti-harakati, narsa-buyum, idish, sabzavot otlari va hokazo otlarni ifodalab keladi. Boshqa leksemalar bilan munosabatga kirishish jarayonida mazkur birliklar semantikasiga xos ma'nolar reallashgan. Qadimgi turkiy tilda yuzdan ortiq *qap*= va *qap*= asosidan shakllangan leksemalarning hozirgi o'zbek tiliga munosabati ayrim leksemalarning o'zgarishsiz, ayni shakllarda qo'llanishi, semantik o'zgarishlar bilan ishlatilishi, o'zbek shevalarida qo'llanishi va ba'zi birliklarning iste'moldan chiqqanligi bilan izohlanadi. Bu leksemalarda $p \rightarrow m$, $p \rightarrow w$ fonetik o'zgarishlari kuzatiladi. Ularni semantik jihatdan farqlash mumkin bo'ladi.

3. *Qap*= asosli birliklar ishtirok etgan tarixiy yozma manbalar tahlili lingvistik birliklarning tarixiy shakllarini, tarixiy va arxaik ma'nolarini bilish, unga aloqador yangi so'zlarni anqlash imkonini beradi. Mumtoz-tarixiy manbalarda lug'aviy birliklarning o'z va ko'chma ma'nolari, umumiy va farqlovchi semalar kuzatiladi.

4. Etimologik tahlillar leksema semantik mundarijasini yoritish omili hisoblanadi. *Qap*= asosli birliklar etimologiyasini yoritishda qadimgi turkiy til, eski o'zbek adabiy tili manbalari faktik material vazifasini o'taydi. *Qap*= asosli birliklarning semantik taraqqiyoti, semalar tarkibi leksemalar semantikasining kengligi bilan xarakterlanadi. Bu birliklar semantikasidagi semalar o'z tadrijiy taraqqiyotiga ega. *Qap*= asosli leksemalarning tarixiy ma'nolari leksemalar semantik tarkibida saqlanib qolgan.

5. Harakat-holat bildiruvchi *qap*= asosli leksemalarda "yopmoq", "qoplamoq", "qapishmoq", "to'plamoq", "yig'moq", "biriktirmoq" semalari mavjud. Mazkur lug'aviy birliklardagi ayrim

fonetik o'zgarishlar so'z semantikasiga ham ta'sir ko'rsatgan. Bu shakllar qo'llanish uslubiga ko'ra ham farqlanadi.

6. *Qap*= asosli leksemalar frazemalarda, maqol va matallar tarkibida axborot uzatishdan tashqari ekspressiv-emotsional funksiya bajarishga xizmat qiladi. Bu birliklar qo'llanish shakllari va chastotasi bilan o'zaro farqlanadi. Shu bilan bir qatorda barqaror birikmalar tarkibidagi yaxlit sememani reallashtirish omili ham hisoblanadi.

“QAP=” ASOSLI OT LEKSEMALAR GENEZISI VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

“Qap=” asosidan shakllangan ot leksemalarning tarixiy-etimologik tahlili

“Qap=” (aniqrog‘i *qa=*) asosida harakat–holat birlamchi ma’no hisoblanadi. Turkiy tillardagi ot-fe’l omonimligiga asoslangan turkum sinkretizmi hodisasiga oid misollarni tahlil qilganda ham harakat-holat, ya’ni fe’l semasining dastlabki belgi ekanligini ko‘rish mumkin. Borliqda eng ko‘p tushuncha harakat-holat va narsa-buyumdir. Shu bois ularning qaysi birlamchi ekanligi haqidagi masala nisbiy. Dastavval, fe’l asoslardan otlar shakllangan. Keyingi jarayonda fe’llarning ot asosdan yasalgani haqida ko‘p misol keltirish mumkin. “Qap=” asosida harakat-holat ma’nosi birlamchi va yetakchi mavqega ega. Ot leksemalar keyingi jarayonda yuzaga kelgan.

“Qap=” asosidan shakllangan ot leksemalar 32tani tashkil qiladi: *qapi*, *qopqon*, *qalpoq*, *qo‘lqop*, *paypoq*, *qamoq*, *qovurg‘a*, *qopqoq*, *qobiq*, *qovurdoq* kabi. Shulardan ayrimlari izohida to‘xtalamiz.

Qap= asosidan yasalgan leksemalar kiyim va kiyim bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalaydi.

Qalpoq leksemasi ham turkiy tilga xos bo‘lib, uning asosi ham “qop”dir. Eski o‘zbek tilida, xususan, Alisher Navoiy asarlarida *qalpoq*, *qalpog‘* shakllarida uchraydi.

Shohu toju xil’atikim, men tamosho qilg‘ali,

O‘zbekim boshida *qalpoq*, egnida shirdog‘i bas. (G‘S.258)

Sarvig‘a tortib qabo, cho‘kkon quyoshqa soyabon,

Chobukum bo‘yida shirdog‘, boshida *qalpog‘idur*. (FK.168)

Hozirgi turkiy tillarda, masalan, qirg‘iz tilida *qalpaq*, uyg‘ur tilida *qalpaq* kabi variantlarda qo‘llanadi.

Qalpoq so‘zi yasama bo‘lib, u *qap+la+q* qismlaridan tashkil topgan. Qadimgi turkiy tilda *qap* asosidan *qapildi* – *qamaldi* (MK, P, 136), *qapsadi* – *qopladi*, *qapsar*, *qapsamoq* (MK, Sh, 299), *qapug‘*, *qapg‘a*, *капыд* – *eshik*, *darvoza* kabi so‘zlar yasalgan. Bu so‘zlar *qalpoq* so‘zi bilan bir asosga (*qap*) ega. *Qalpoq* so‘zining

ma'nosi bekituvchi, qoplovchi, qoplab turuvchidir. Bu so'zda l-p metateza hodisasi yuz bergan¹¹⁵.

O'zbek tilining izohli lug'atida qalpoqning quyidagi ma'nolari keltirilgan: 1.Yupqa namatdan qilingan bosh kiyimi. 2.Har qanday to'qima yoki matodan tikilgan bish kiyim. 3.Kaska, mis qalpoq, po'lat qalpoq. 4.Do'ppi,kallapo'sh. 5.Narsalar ustini qoplab,berkitib turadigan soyabon yoki qopqoq.6.Biror narsaning qalpoqli qismi yoki kallak. Biror ishni qoyil qilib bajaruvchi biror ish-faoliyatning juda ustasi bo'lgan shaxsga nisbatan qo'llanadi¹¹⁶.

Sh.Rahmatullayev "O'zbek tilining etimologik lug'atida" *qalpoq*ning kelib chiqishini "yuqori" ma'nosidagi **qal-** asosi bilan bog'laydi: Bu bosh kiyim dastlab namatdan konussimon shaklda tikilib tepa uchi ancha baland ko'tarilib turgan, odatda boshqa bosh kiyimi ustidan kiyilgan. Keyinchalik ma'noda voqe' bo'lib, har qanday qalin bosh kiyimni anglata boshlagan. Bu so'zning tarkibini asli qadimgi turkiy tildagi "ko'taril" ma'nosini anglatgan "qali" fe'lidan "-ba" qo'shimchasi bilan yasalgan otga kichraytirish ma'nosini ifodalovchi "-q" qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan deb izohlash mumkin, keyinchalik 2- bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qo'ygan, b undoshi p undoshiga, 1-bo'g'indagi a unlisi a unlisiga almashgan: (qali+ba=qaliba)+q=qalibaq>qalbaq>qalpaq>qalpâq¹¹⁷.

Qaviq 1. Chok turi; qaviladigan narsalar (to'n, do'ppi, ko'rpa va shu kabilar)ning ikki tomoniga o'tkazib tikilgan choki. Yirik qaviq. Guldor qaviq. E'zozxon paranji ichidan boshini ko'tarib qaradi, Razzoqning ixcham kirza Etigini, mayda qaviq paxtalik shimini ko'rdi.H. G'ulom, Mash'al. 2. Qavish ishi.¹¹⁸

Qaviq jarayonni ifodalaydi: Unsin xola qizining uch yangi ko'rpasini qoplab, qaviqdan chiqardi (A. Hayitmetov).

Metonimiya asosida shu jarayonga aloqador buyumni bildiradi:

Unsin xola Qo'liga igna kirgani bahona bo'ldi-yu, yuragiga sig'mayotgan qaviqni ham yig'ishtirib qo'ydi.R. Fayziy, Hazrati inson.

¹¹⁵Бафоев Б. Кўҳна сўзлар тарихи. – Тошкент:Фан, 1991. –Б.132.

¹¹⁶ЎТИЛ –Б. 334.

¹¹⁷Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент, 2000 –Б. 518.

¹¹⁸ ЎТИЛ –Б. 338.

Qayish leksemasining asosi “qap” hisoblanadi. Uning qapishmoq fe’li bilan aloqasi mavjud. B.Bafoev *qayish*ning asosi *qap* ekanligini va uning asosidagi *qap* tananing ustki qismini qoplab turuvchi teri ma’nosini anglatganini qayd etgan¹¹⁹. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *qayish*ning pardoatlanmagan, yaxshi ishlov berilmagan xom, past navli charm; turli maqsadlar uchun ishlatiladigan uzun tasma charm (kamar, tirkish, bog‘ich) kabi ma’nolari sanab o‘tiladi. Masalan: O‘ktam etigini askarcha qunt bilan tozalab, *qayish*ni bo‘shatib ko‘rpachaga o‘tirdi....Oybek “Oltin vodiya shabadalar”. *Qayish*da “ustma-ust qo‘yish” (teri ustma-ust qatlamdan iborat), “biriktirish” semalarini anglatadi. O‘zbek tilida so‘zlashuv nutqida “yon bosmoq” ma’nosida ishlatiladigan *qayish*- harakat-holat leksemasi semantikasi ham shuni ko‘rsatadi.

Alisher Navoiy asarlarida *kapanak* – “jundan qilingan ustki kiyim, jul (bosma) chakmon; darvishlarning jul kiyimi” ma’nosida uchraydi. Masalan:

Saltanat xil’atidin ortuq erur dayrda mast,

Sudrasam boda gadolig‘ida yirtuq kapanak. (G‘.S.)¹²⁰

Kapaki oti esa poyabzalning tagcharmini anglatadi. Bundan tashqari, eskirgan, teshilgan tagcharm ustidan qoplanadigan charm, rezina va shu kabi materialni anglatadi. Misol: Uning (Omontoyning) *kapaki* solinaverib tagcharmi qalinlashib ketgan etigining qo‘njlari buklanib, chang yig‘ilib qolgan. S.Ahmad. Cho‘l shamollari¹²¹.

Qo‘lqop leksemasi “qo‘l” va “qop” qimlaridan iborat bo‘lib, uning birinchi ma’nosi qo‘lni sovuqdan, kir bo‘lishdan, zararlanishdan saqlash uchun qo‘lga kiyiladigan buyum, ikkinchi ma’nosi esa boks sport turida qo‘lga kiyib olinadigan maxsus buyum¹²² sanaladi.

Paypoq leksemasining asosi ham “qop” bo‘lib, u to‘piq, son, boldirni berkitadigan, sun’iy yoki ipak va jun gazlamadan to‘qib tayyorlanadigan oyoq kiyimini anlatadi. Ikkinchi ma’nosi esa parrandalardagi panja ustini, to‘piqni qoplab turuvchi pat

¹¹⁹ Бафоев Б. Кўхна сўзлар тарихи. –Тошкент: Фан, 1991.-Б. 132.

¹²⁰ Навоий асарлари луғати. –Тошкент: Ғафур Ғулом, 1972. – Б. 304.

¹²¹ЎТИЛ. –Б. 288.

¹²²ЎТИЛ –Б.335.

hisoblanadi. Xo‘rozning paypog‘iga ko‘zi tushmoq. paypoq+dor: to‘piqdan uzun patlar o‘sib chiqqan. Paypoqdor kabutar.¹²³ *Paypoqdor* shu narsa-buyumga egalik ma’nosidagi sifat yasovchi qo‘shimcha orqali hosil bo‘lgan¹²⁴.

So‘zda metateza asosidagi tovush o‘zgarishi kuzatiladi: paypoq (poy>qop). Qiyoslang: qo‘l+qop.

Qap= asosidan shakllangan bir qator leksemalar makon tushunchasini ifodalaydi.

Kapa leksemasi G.Gumbatov “arman tiliga turkiy tildan o‘zlashgan” deb keltirgan 50 ta so‘z tarkibida uchraydi, “ustki kiyim” ma’nosida izohlangan¹²⁵.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili va ba’zi hudud shevalarida *kapa* leksemasi mavjud bo‘lib, lekin u ustki kiyim emas, balki aynan turar joy, makon ma’nosida qo‘llaniladi. Ya’ni *kapa* vaqtincha yashash uchun daraxt shoxlari va yirik o‘t-o‘lanlar bilan o‘rab, yopib quriladigan xona, yozlik uy, chayla. Hamma o‘ziga qamishdan *kapa* qilib olgan. S.Ahmad, Odamning izi¹²⁶.

O‘zbek xalq maqollari tarkibida *Kapasiga yarasha qirmovi* maqoli mavjud bo‘lib, uning tarkibidagi *kapa* ham boshpana ma’nosini anglatadi.

Kapa va *kapanak* leksemalarini “qamrash, o‘rash” semalari bog‘lab turadi.

Qamal leksemasida “qamrab olish”, “yopiqlik” semasi ustun turadi. Uning bosh ma’nosi shahar, qal’a, armiya va shu kabilarni taslim bo‘lishga majbur etish maqsadida qurshab olishdir¹²⁷. Agar *qamal*ni davom etkazsa, biz ham oxirgi kishimiz qolguncha olishgaymiz. (P.Q. Humoyun va Akbar)

Qamoq “qap=” asosidan yasalgan leksemalar qatoriga kiradi. Unda ham yopiqlik semasi ustun.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *qamoq* leksemasi ozodlikdan mahrum etilgan kishilar, mahbuslar, jinoyatchi va shu kabilar qamaladigan joy; qamoqxona, turma hamda qamoq hukmini

¹²³Hojiyev A. va b. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 2001. – B.172.

¹²⁴Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиш тизими.-Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – Б.85.

¹²⁵ Гумбатов Г. Историческая прародина тюрков. – Баку: Элм и тахсил, 2012. – Б.205.

¹²⁶ЎТИЛ. –Б.288.

¹²⁷ ЎТИЛ –Б.232.

(jazosini) o'tash jarayonini anglatadi. Qamoqdagi qariyalarga bir qultum suv, bir burda non ham berishmabdi. T. Rustamov, Mangu jasorat¹²⁸.

“Qap=” asosli leksemalar narsa-buyum, idish ma'nolarini ifodalaydi.

Qapaq /qopqoq. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu so'z asli eshik ma'nosini anglatgan *qapug'* otidan kichraytirish ma'nosini ifodalovchi (a)q qo'shimchasi bilan hosil qilingan. Qo'shimcha qo'shilgandan keyin ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qo'ygan, shuning uchun g' undoshi q undoshiga, a unlilari â unlilariga almashgan. *Qapug' +aq=qapug'aq >qapg'aq >qapqaq >>qâpqâq*. Qadimgi turkiy tilda bunday ma'no *qapaq* so'zi bilan ham anglatilgan. (DS, 420 kapak I pokryishka, kryishka)¹²⁹.

Shosha- pisha choynaklarni xontaxta ustiga qo'yib, samovar qopqog'ini ochsam, tagida ikki qultum suv qolibdi. (O'.X. Ikki eshik orasi).

Qopqoq leksemasi idish, sandiq, yashik va shu kabi buyumlar og'zining ochilib-yopilab turadigan, bekituvchi qismi; yopqich. Masalan: choynakning qopqog'i, qozonning qopqog'i, soatning qopqog'i kabilar.

“Qap=” asosli leksemalar “qamrab olish”, “o'rash” ma'nolarini bildiradi.

Qobiq narsaning ustini qoplab turuvchi qatlam, po'stloq, ustki qatlamdir. Bu yong'oqning mag'zi qobig'idan oson ajralar ekan. Bu ot asli qadimgi turkiy tildagi qopla-, yop- ma'nosini anglatgan *qabu-fe'*idan (AS. 421. *qapulug' “zakrytiy, zapertiy”*) –q qo'shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik a unlisi â unlisiga, u unlisi i unlisiga almashgan: *qabu- + q = qabuq > qâbiq*¹³⁰. O'z qobig'iga o'ralmoq (ibora).

Alisher Navoiy asarlarida *qabug'*, *qobuq*, *qobug'* – qobiq, po'st, teri¹³¹ ma'nolarida uchraydi.

Donadek o'lubon qabug'a iki badan bir,

¹²⁸ЎТИЛ –Б.334.

¹²⁹Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: 2000. –Б.565.

¹³⁰ЎТЭЛ. –Б. 556.

¹³¹Навоий асарлари луғати. –Тошкент: Фафур Фулом, 1972. –Б.304.

Dona qabug‘i kibi kafan bir. (L.M.725)

Qobiq ko‘chma ma’noda doira, aura ma’nosini ham anglatishi mumkin.

Hatto jo‘n bir tuxumni yorib chiqqan jo‘ja ham shu tuxumning *qobig‘iga* qaytib kirolmaydi-ku. Antonining tasavvurida ulkan burgutga o‘xshab uchayotgan Akbar qanday qilib katolik dinining *qobig‘iga* kirsin! (P.Q.Humoyun va Akbar).

Qap= asosli leksemalar, tana a’zosi nomini ifodalaydi.

Qovurg‘a umurtqadan chiqib, ko‘krak suyagiga egilib keladigan, ko‘krak qafasini tashkil qiladigan yoysimon ensiz suyak¹³².

- Chu! - Chol qovurg‘asi sanalib qolgan ot ustida qamchi aylantirdi (O‘.X. Daftar hoshiyasidagi bitiklar)

Qovurg‘a ko‘chma ma’noda bino va inshootlarni mustahkam tutib turish uchun biriktirilgan qismni ham anglatadi.

Qovuq I anat.Odam va aksariyat hayvonlarning siydik to‘planadigan, ichi bo‘sh, xaltasimon a’zosi; siydik pufagi.

Qovuq II Chaqmoq surtib, uning uchqunidan o‘t yoqish uchun qilinadigan maxsus pilik, pilta: Kishi Otabekni o‘tqizgach, tokchadan sopol lagan bilan qovuqni olib, chaqmoq surtdi. Sham yoqildi.A. Qodiriy, O‘tgan kunlar¹³³.

Qovoq leksemasi qadimgi turkiy tildagi ham **qab** otining idish, o‘rab turuvchi narsa ma’nosidagi, kichraytirish ma’nosini ifodalovchi **a(q)** qo‘shimchasi bilan hosil qilingan. Keyinchalik **b** undoshi **v** undoshiga, **a** unlisi unisiga almashgan. Ya’ni qovoqda ham, qopqoqda ham, qobiqda ham shakl, vazifa jihatdan “yopiq” semasi ustun.

Qovoq leksemasi omonim leksema hisoblanadi.

Qovoq ko‘z kosasini qoplovchi, ochilib yopilib turadigan teri, tana a’zosi demakdir. Oyim keksayib qolganini, sochlari oqarib ketganini, qovoqlari salqib, yuzi yillab to‘shakka yopishib yotgan odamdek sarg‘imtil- zahil tusga kirganini yendi payqadim. (O‘.H. Ikki eshik orasi).

Qovoq mumtoz adabiyotda *qabag‘* shaklida ishlatilgan. Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida shunday yozadi:

¹³² ЎТИЛ. –Б.331.

¹³³ ЎТИЛ –Б.334.

Va xo‘blarning ko‘z va qoshlari orasinki, *qabog‘* derlar, forsiyda bu uzvning oti yo‘qtur. Masnaviyda bir jamoat xo‘b ta‘rifida mundoq deyilibdurkim, bayt:

Mengizlari gul-gul, mijalari xor,
*Qabog‘*lari keng-keng, og‘izlari tor¹³⁴.

Qovoq – poliz ekini turini ham anglatadi. Palak otib o‘sadigan, shapoloq bargli, karnaysimon yirik sariq gulli, bir yoki ko‘p yillik poliz o‘simligi va uning turli shakllarda bo‘ladigan yirik hosili¹³⁵ma’nosida hozirgi o‘zbek tilida mavjud: – Yur, *qovoq* somsa beraman! (O‘.H. Ikki eshik orasi).

Qovoq/qabaq po‘sti qattiq bo‘lgani, idish sifatida ishlatiladigan turi ham mavjud bo‘lgani bois harbiy mashqlarda nishonga olinadigan buyum o‘rnida ishlatilgan: *Qaboq* maydonida maydon boshidin chopib, yoyni tushurub qo‘rub, otib qaboqni urar edi.¹³⁶

Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatadigan bu ot *qab* otining idish, o‘rab turuvchi narsa ma’nosidagi, kichraytirish ma’nosini ifodalovchi a(q) qo‘shimchasi bilan hosil qilingan. Keyinchalik b undoshi v undoshiga, a unlisi o unisiga almashgan: *qabaq-qovoq*¹³⁷.

Oshqovoq – qovoq turini anglatadi. *Oshqovoq* suviga qorib zog‘ora yopayotgan ekan....! (O‘.H. Ikki eshik orasi).

Qovoq asosidan yasalgan yana bir leksema *nosqovoq* bo‘lib, narsa-buyum otlari qatoriga kiradi: – Mehmon emas, mezbон! – dedi, *nosqovoq*ni egasiga qaytarib (O‘.H. Ikki eshik orasi).

Qoplam leksemasi narsa-predmetning sirtini qoplab turuvchi qismni anglatadi: ustki qoplam. Uning yana bir hajm-o‘lchov ma’nosi ham mavjud. Masalan: bir qoplam paxta.

Qoplama 1. Biror narsaning sirtiga, betiga, ustiga qoplangan, o‘ralgan, sirilgan tashqi qatlam yoki g‘ilof. Devorning marmar qoplamasi.

Qoplama ko‘rpa. Avra-astari ustidan yangi avra-astar kiydirilgan, lekin qavilmagan ko‘rpa. *Qoplama* “fe’ldan anglashilgan ish-

¹³⁴ Алишер Навоий. Муҳокаматул луғатайн. Нашрга тайёрловчи П.Шамсиев. –Б.6.

¹³⁵ЎТИЛ. –Б.335

¹³⁶Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Тошкент: Ўқитувчи, 2008. – Б. 293.

¹³⁷Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 1-жилд. –Тошкент: Университет, 2000. –Б. 518.

harakat uchun mo'ljallangan, shunga belgilangan narsani bildiruvchi ot"¹³⁸

Qoplama tarkibidagi *-ma* affiksi fe'ldan ot va sifat yasash uchun xizmat qiladi. Ot yasovchi sifatida ham, sifat yasovchi vazifasida ham hozirgi o'zbek adabiy tilida mahsulli affiks hisoblanadi. *-ma* affiksi yordamida hozirgi o'zbek adabiy tilida fe'ldan anglashilgan ish-harakat uchun mo'ljallangan, shunga belgilangan narsani bildiruvchi otlar yasalgan: *qoplama*, *tirkama*, *yo'qlama*, *qo'manma*, *ko'rgazma*, *bosma*, *to'shama* kabi¹³⁹.

-ma qo'shimchasi bilan yasalgan otlar u qadar ko'p bo'lmasada, bunday otlarning ma'lum qismi *-ma* affiksi bilan yasalgan sifatlarning otlashuvi orqali yuzaga kelgan. Mas., *dimlama*, *qovurma*, *tirkama* otlari xuddi shu yo'l bilan yuzaga kelgan. Shuning uchun ham bunday otlarning nomi umumiy tushunchani bildiradi¹⁴⁰.

Qap= asosidan zoonimlar hosil qilingan.

Qoplon mushuksimonlar oilasiga mansub bo'lgan mo'ynasi qalin yirtqich hayvon. Tarixiy manbalarda ham uchraydi: ...besha saboini misli *qoplon* va *arslon* va soyir darrandalar ko'p o'lturur erdi¹⁴¹.

Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu ot asli ***qaplan*** tarzida talaffuz qilingan. A.M. Shcherbak bu so'zni qo'shma so'z deb talqin qilish tarafdori (*arslan* so'zini qo'shma so'z deydi); uning fikricha, bu so'zning 2-qismi "hayvon" ma'nosini anglatuvchi "an" so'zi bilan ifodalangan; bu so'zning 1-qismini esa sifat deb qarashga tarafdor; lekin qapil sifati manbalarda aks etmagan va bu sifatning ma'nosini A.M. Sherbak men uchun noma'lum deydi. Nazarimizda, ***qaplan*** so'zi sodda so'z bo'lib qadimgi turkiy tildagi "maham ushla", "o'g'rincha bos" ma'nolarini anglatgan ***qap*** fe'lining kuchaytirish ma'nosini ifodalovchi ***-la*** qo'shimchasi qo'shilgan tarzda *-n* qo'shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik

¹³⁸ Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясалиш тизими. –Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – Б.58.

¹³⁹ Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими. –Тошкент: Ўқитувчи, 2007. –Б. 81.

¹⁴⁰ Ўша асар. – Б. 88.

¹⁴¹ Alisher Navoiy. Tarixi mulki ajam. www.ziyouz.com kutubxonasi. –Б. 21.

o‘zbek tilida **-a** unlilari **â** unlilariga almashgan: (qap+la=qapla)+n=qaplan>qâplân¹⁴².

Qoplon ko‘chma ma’noda qo‘llanganda mardlik va jasurlikni yoki shunday xususiyatli insonga berilgan nisbatni anglatadi. Masalan: Bu xabar kelgach, Gadoyi tag‘oyi, Poyanda Muhammad qoplon, Abul-Hasan qo‘rchi, Mo‘min atka boshliq ichkilari va yigitlari jilovrez ilgari yiborib, o‘zum ham tez yurudum (410). “Boburnoma” dan olingan bu misolda kishi ismiga qo‘shilgan *qoplon* shaxning xususiyatlarini yuzaga chiqarib, shu insondagi mardlik sifatini ifodalaydi.

Qoplon leksemasining asosi “tishlamoq” ma’nosidagi qopmoq fe’lidir. *Qoplon* yitqich hayvon sifatida tishlash, qopish xususiyatiga ega. Itga nisbatan qopish darajasi yuqori va tezligining ortiqqligi uchun unga *qoplon* nomi berilgan. *Qoplon* qopag‘on, qopadigan demakdir. *Qobon* zoonimi ham shu sema asosida shakllangan.

Qobon so‘zi erkak to‘ng‘iz yoki yovvoyi to‘ng‘izni anglatadi. Kaban I. dikaya svinya; sames domashney svini (Dal,2,60; Ushakov,1,1273). Ogienko kaban so‘zining tatar tilidan o‘zlashgani, V.Radlov qozoq, qumiq, tatar, turk tillarida uchrashini aytadi¹⁴³.

Alisher Navoiy asarlarida qobon/qabon shakllarida uchraydi.

Chiqti o‘trusidin Suhayli daler,

Ul sifatkim, qobon masofig‘a sher¹⁴⁴. (Sab‘ai sayyor)

Qap= asosidan narsa-buyum otlari yasalgan.

Qopchiq leksemasi kichkina qop, xalta yoki xaltacha demakdir. Normat qopchig‘ini ochib, bugungi norma noni, shakarini o‘rtaga qo‘ydi. I. Rahim.

Qopchiq tibbiy termin sifatida ishlatiladi: ko‘z yoshi qopchig‘i.

Qopqon so‘zi ov qilinadigan yoki zararli hayvonlarni ovlash, ilintirish, tutish uchun qo‘yiladigan moslama, qurilmani anglatadi¹⁴⁵. Bu ot eski o‘zbek tilida “mahkam ushla” ma’nosini anglatuvchi “qap” fe’lining kuchaytirish ma’nosini ifodalovchi -qa qo‘shimchasi bilan hosil qilingan shaklidan -n qo‘shimchasi bilan yasalgan

¹⁴² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Туркий сўзлар. –Тошкент, 2000. – Б. 518.

¹⁴³ Шипова Е. Словарь тюркизмов в русском языке. –Алма-ата: Наука, 1976. 109-б. –Б. 69.

¹⁴⁴ Навоий асарлари луғати. Э.Фозилов таҳрири остида. –Тошкент: Фан, 1985, –Б.58.

¹⁴⁵ЎТИЛ, –Б.331.

keyinchalik a unlilari â unlilariga almashgan:
(qap+qa=qapqa)+n=qapqan.¹⁴⁶

Qo‘buz, G.Dyorferning fikricha, bu musiqa asbobining nomi aslida qopuz shaklida bo‘lgan va turli turkiy tillarda turlicha fonetik variantlarga ega. Ushbu leksemaning asosi qadimgi turkiy tilda “ko‘tarilmoq”, “yuqorilamoq” ma’nosiga ega bo‘lgan qop fe’lidir¹⁴⁷.

Soqiyo may to‘lakim arbada istar ko‘nglum,
Ey, mug‘anniy, chola boshla o‘kurur ko‘kda qo‘buz¹⁴⁸.
(Xazoyinul-maoniy)

Ustoz Qulmuhammad – Shibirg‘ondindur. Kichik yoshida g‘ijjak cholar erdi. Ammo ud va g‘ijjak va *qo‘buzni* asrida oncha kishi chala olmas va muammo qavoidin ham mazbut bilur¹⁴⁹.

Qap= asosli ayrim so‘zlar adabiy tilda qo‘llanmaydi, hozirgi o‘zbek shevalarida ishlatiladi.

Qop asosdan yasalgan eng serunum birlik bu *qopqadir*. O‘zbek tilining izohli lug‘atida *qopqaga* “darvoza” ma’nosidagi eskirgan so‘z shakli deb ta’rif beriladi. Darvoza fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, qadimgi turkiy tilda bu birlik o‘rnida *qapi*, *qapig‘*, *qapug‘* shakllari keng iste’molda bo‘lgan. Hozirda Xorazm shevasida eshik, darvoza ma’nosini anglatuvchi *qapi* tarixiy shakl saqlanib qolgan. Shahar qopqasi. O‘zingni kamsitma, Toshkentning O‘n ikki qopqasiga borilsa, kimning yeri – Qurbonhojining yeri-ku! Oybek, Tanlangan asarlar.¹⁵⁰

Qopu – shv. eshik, eshik tabaqasi. It darvoza qopusini tishlab kemira boshladi. E. Samandar, Tangri qudug‘i¹⁵¹.

O‘zbek xalq shevalarida *qopqa*, *qapi* kabi so‘zlar aynan tarixiy shaklida ishlatiladi.

Qap asosidan yasalgan ba’zi otlar hozirda qo‘llanmaydi, iste’moldan chiqqan, arxaik birlikka aylangan. Masalan, *kapton* turkiy xalqlarning qadimiy ustki kiyimlarining nomidan biri bo‘lib, XI asr tilida ham uchraydi. Qapton – to‘n, ustki kiyim (DLT, 1,

¹⁴⁶ЎТЭЛ, –Б.565.

¹⁴⁷Шенцова И.В. Лексико-семантическая группа «музыкальные инструменты» в шорском языке//Российская тюркология//М., 2019-1-2. –С. 111.

¹⁴⁸ Навоий асарлари луғати. Э.Фозилов таҳрири остида. –Тошкент: Фан, 1985. –Б.76.

¹⁴⁹ Navoiy A. Majolis un-Nafois (I- qism). library.ziyonet.uz. –Б.80.

¹⁵⁰ЎТИЛ. –Б.332.

¹⁵¹ЎТИЛ. –Б.334.

408). Navoiyda ham *qapton//xafton*: Chirqa aning jismida qapton bo‘lub, Qaptoni tan, jismi aning jon bo‘lub (HA 110) . “Navoiy asarlari lug‘ati”da xafton : 1) ustdan kiyiladigan hashamatli to‘n; 2) zireh (urush kiyimi) ostidan kiyiladigan paxtalik to‘n, kaftan (NL, 652) deb izohlangan¹⁵².

Qabqab so‘zi E.Fozilovning “Starouzbekskiy yazыk”¹⁵³ asarida oyoq kiyimi, etik ma’nosiga ega ekanligi qayd etiladi. *Xanaqah yeshikinde bir so‘fy, qabqabyına urur yedi mismar.*

Manbalar va turli lug‘atlardan olingan ushbu ma’lumotlar shundan dalolat beradiki, *qop* va uning asosida yasalgan leksemalar tarixan keng iste’molda bo‘lgan faol leksemalar qatoriga kiradi. Bu leksemalarning aksariyati hozirgi kunda ham faol qo‘llanmoqda. Ba’zi *qop* asosli birliklar qadimgi davrdagi ma’nosini saqlab qolgan, ayrimlari esa semantik o‘zgarishlarga uchragan.

“Qap=” asosli ot leksemalar ishtirokidagi barqaror birikmalarning funksional-semantik, kognitiv xususiyatlari

Qap= asosli birliklar barqaror birikmalar tarkibida kelib, umumiy, yaxlit semantikasi yuzaga keltirishda funksional qiymatga egadir.

Dastavval, *qap=* asosli birliklar ishtirok etgan frazemalar xususida to‘xtalamiz. *Qap=* asosli leksemalar hozirda bir qator frazemalar tarkibida ham faol qo‘llanadi.

Frazemalarning o‘rganish sohasi bo‘lgan frazeologiya, dastavval, leksikologiyaning bir bo‘limi sifatida qaralgan, keyinchalik mustaqil rivojlangan sohadir. Sh. Rahmatullaevning “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari” nomli monografiyasida frazeologizmlarning grammatik tabiati keng ko‘lamda yoritib berilgan. Frazeologizmlarni grammatik va semantik planda o‘rganishda I.Kuchkartaev¹⁵⁴, A.Isaev¹⁵⁵, H.Qaxxorova¹⁵⁶, B.Yo‘ldoshev¹⁵⁷, A.Mamatov¹⁵⁸,

¹⁵² Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. –Тошкент: Фан, 1981. –Б. 51.

¹⁵³ Фазылов Э. Староузбекский язык. –Тошкент: Фан, 1966-1971, Т 2, - С. 577.

¹⁵⁴ Кучкартаев И.Фразеологическое новаторство Абдуллы Каххара. – Ташкент, 1965.

¹⁵⁵ Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка. – Ташкент, 1977.

¹⁵⁶ Каххарова Х. Фразеология Абдуллы Кадыри. – Ташкент, 1985.

¹⁵⁷ Йулдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 1994.

Sh.Almamatova¹⁵⁹ boshqalarning izlanishlarida frazeologizmlar funksional-uslubiy jihatdan sistem holatida o'rganilib, nutq jarayonidagi uzual va okkazional vazifalari, badiiy matndagi pragmatik imkoniyatlari, funksional-uslubiy tavsifi boy til materiallari asosida tadqiq etilgan¹⁶⁰.

Frazeologizmlarning shakllanishi uchun birinchi manba leksemalardir. Frazeologizmlar leksemalarning o'zaro shakllangan barqaror birikmasi hisoblanadi. Frazeologizmlar xalq ijodiyotining mahsuli bo'lganligi sababli muayyan bir joyning tabiati, xalqning iktisodiy tuzumi, tarixi, madaniyati, xayot tarzi, og'zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san'ati, fani, urf-odati kabilarni aks ettiradi va avloddan-avlodga o'tib boradi. Shu jarayonda ular ma'lum semantik va struktur o'zgarishlarga ham uchraydi. Frazemalar tuzilishi, leksik-semantik, funksional-uslubiy va sintaktik vazifalariga ko'ra, tilning boshqa birliklaridan ajralib turadi. Shunga ko'ra ular alohida leksik birlik sifatida o'ziga xos shakllanish qonuniyatlariga ega. Frazemalar faqatgina til hodisasigina emas, balki ijtimoiy hodisa hamdir. Frazemalar ijtimoiy-siyosiy xayot, ya'ni narsa-hodisalar, voqealar, xarakterlarni obrazli-ekspressiv ifodalash ehtiyoji asosida yuzaga keladi. Frazemlarning funksional-uslubiy xususiyatlarini ochib berishda uning komponentlari semantikasi muhim ahamiyatga ega.

Quyida *qap*= asosli birliklarning frazemalar tarkibidagi semantik xususiyatlarini tahlil qilamiz.

“O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati”¹⁶¹dagi *qap*= asosli birliklar ishtirokidagi 12ta frazmadan 11tasini *qap*= asosidan shakllangan ot komponentli frazemalar tashkil qiladi. Bu frazemalar *qovoq* I (tana uzvi), *qovoq* II (poliz ekini), *qovurg'a* semantik yadrosi asosida shakllangan.

Qovoq I (tana uzvi) semantik yadrosi asosida shakllangan frazemalar (6ta):

¹⁵⁸ Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2000.

¹⁵⁹ Алмаматова Ш. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили. – Тошкент, 2008.

¹⁶⁰ Ёулдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 1994.

¹⁶¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 407.

Qovoq solmoq (yoki **uymoq**) yoki **qovoqni osiltirmoq**
qovog‘i soliq, qovog‘idan qor yog‘adi, qovog‘ini ochmoq.

Qovoq II (poliz ekini) semantik yadroli frazemalar (1ta):
qovoq kalla (yoki **bosh**)¹⁶².

Qovurg‘a semantik yadroli frazemalar (4ta):


Qovurg‘asi ko‘rinib (yoki **sanalib**) **qolmoq, qovurg‘asi**
bukilmagan.

Qovun semantik yadroli frazemalar (1ta): **Qovun tushirmoq** q.
tushirmoq.

Qovushtirmoq semantik yadroli frazemalar (1ta):

Qo‘l(ini) qovushtirmoq.

Qovoq ishtirok etgan frazemalarda “yopiqlik”, “qorong‘ulik”
semalari semantik uzv vazifasini bajaradi.



¹⁶²Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 5-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. –Б. 335.

Qap= asosli soʻzlar ishtirokidagi frazemalarning chastotali jadvali:

Qap= asosli birliklardan shakllangan semantik yadrolar	Frazemalar	Frazemalar chastotasi
Qovoq I (tana uzvi)	<i>qovoq solmoq</i>	6
	<i>qovoq uymoq</i>	
	<i>qovoqni osiltirmoq</i>	
	<i>qovogʻi soliq</i>	
	<i>qovogʻidan qor yogʻadi</i>	
	<i>qovogʻini ochmoq</i>	
Qovurgʻa	<i>qovurgʻasi koʻrinib qolmoq</i>	4
	<i>qovurgʻasi sanalib qolmoq</i>	
	<i>qovurgʻasi bukilmagan</i>	
	<i>qovurgʻasi sinmagan</i>	
Qovoq II (poliz ekini)	<i>qovoq kalla</i>	1
Qovun	<i>qovun tushirmoq</i>	1

Qap= asosli birliklarning frazemalar tarkibida ishtiroki til birliklarning kognitiv xususiyatlari bilan bogʻliq ravishda namoyon boʻladi. Masalan, **qovoq kalla** (yoki **bosh**) Miyasi yoʻq, aqlsiz, ahmoq. *Shuni ham tushunmay soʻrab oʻtirasanmi, qovoq bosh.* S. Ayniy, Jallodlar. *Bilmasang, nega, urdi deb qoʻl qoʻyasan.. qovoq kalla.* O.Yoqubov, Larza. Bu frazema tarkibidagi qovoq leksemasi “ichi boʻsh” semasini ifoda etib, aqlsizlik, ahmoqlik haqidagi belgini ifoda etishga xizmat qilmoqda. “Ichi boʻsh”lik belgisi orqali “yoʻqlik”, “ega emaslik” tushunchasi aks etmoqda. Tabiatda ichi boʻsh narsalar koʻp: puch yongʻoq, bochka, quduq. Lekin aynan qovoqdagi ichi boʻshlik oʻzbek tili sohibi ongida “aqlsizlik” tushunchasini yuzaga keltirgan.

Qovoq solmoq (yoki **uymoq**) yoki **qovoqni osiltirmoq** Norozilik yoki xafalik ifodalab xoʻmraymoq. *[Saodat] Birovga kulib qarasa, birovga qovoq soladi.* I. Rahim, Ixlos.

Qovogʻi soliq 1) nimadandir norozi, xafa, kayfi buzuk. *Kumush javob bermadi, qovogʻi soliq edi.* A. Qodiriy, Oʻtgan kunlar; 2)

ko'chma yog'sa-yog'guday, avzoyi buzuq, aynigan. *Havoning qovog'i soliq. Qovog'i soliq osmonning chehrasi asta ochila boshladi.* S. Anorboyev, Oqsoy.

Frazeamalar tarkibidagi komponentlar tahlilida psixolingvistik jihatlarga ham e'tibor berish lozim bo'ladi. Quyidagi frazemalarda shaxsning ruhiy holati va bu holat natijasidagi tana qismining ko'rinishi frazeologik semantikani yuzaga keltirishga asos bo'lgan.

Qovog'idan qor yog'adi 1) juda xafa, achchig'i chiqqan, avzoyi bo'zuq. *Oqsoqolning qovog'idan qor yog'ar, juda jahli chiqqan edi.* J. Sharipov, Xorazm; 2) badjahl, xo'mraygan.

Frazema kishilar fe'l-atvoridagi salbiy belgi-xususiyatni ifodalashga ham xizmat qiladi: Yaxshi xotin yuzida oy ko'rinar, Yomon xotin qovog'idan qor yog'ilar (258), *Qor yog'ishi* kognitiv xususiyat bilan bog'liq bo'lib, "qorong'ulik" semasini ifoda etmoqda. Tabiatdagi qorong'ulik belgisi inson ruhiyatidagi tundlikka ko'chirilgan. Bu frazemaning semantikasiga teskari mazmun *qovog'ini ochmoq* frazemasida kuzatiladi:

Qovog'ini ochmoq 1) ko'zini ochmoq, qaramoq; 2) *ko'chma* chehrasini ochib qaramoq, kulib boqmoq. *O'zi ham, onasi ham bir og'iz gapirmasa, bir martagina qovog'ini ochib qaramasa-ya!* A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari.

Qovoq solmoq (yoki **uymoq**) yoki **qovoqni osiltirmoq, qovog'i soliq, qovog'idan qor yog'adi** iborolari "yopiqlik" semasiga ko'ra bir semantik to'rga birlashadi. Yuqoridagi frazemalarga zid ma'nodagi "*qovog'ini ochmoq*" frazemasining mavjudligi ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Qovun tushirmoq frazemasini semantikasi ham kognitiv, psixolingvistik omillarga asoslangan. Inson qo'lidan boshqa narsalarni ham tushirishi mumkin. Masalan, shisha idishni. Lekin noqulay ahvolda qolish, vaziyatni to'g'ri baholamaslik aynan qovunning tushirilishi orqali idrok etilgan. Bu frazema shaxsning no'noqligi, o'zini qaysi joyda qanday tutishini bilmasligini aks ettiradi: **Qovun tushirmoq q. tushirmoq.** *O'z vaqtida tanbeh bermasa, mezbon ikki-uch marta qovun tushirib qo'yishini yaxshi bilardi.* N. Aminov, Qahqaha.

Mazkur frazemaga qiyosan tarvuzi tushmoq frazemasini olishimiz mumkin. Bu frazemada "umidsizlanish", "bo'shashish"

semalari mavjud. Har ikki frazemada tushish harakatining murakkab vaziyatlarga olib kelishi bu poliz ekinlari hajmining kattaligi bilan bog'liq. Olmaning, anorning yoki bodring tushishida bu holat kuzatilmaydi.

Qovurg'asi ko'rinib (yoki sanalib) qolmoq frazemasi “juda ozib ketmoq” ma'nosini ifodalaydi. *Jo'raning ko'zlari cho'kib, qovurg'alari sanalib qoldi, har kun qamchi, har kun azob..* H. Shams, Dushman. Frazemada qovurg'a inson tanasining tayanch qismini ifoda etgan.

Qovurg'asi bukilmagan (yoki sinmagan) Yap-yangi, hali tutilmagan, ezilmagan (qog'oz pul haqida). *Hakim akamlarning cho'ntaklariga qovurg'asi sinmagan chervonlarni.. tushirdim.* B. Rahmonov, Xo'jayin ko'chdi. ...cho'ntak-lari qovurg'asi bukilmagan yuztaliklarga to'la. «Tanish basharalar».

Bu frazemada qovurg'aning shaxs tanasini bir tekisda, me'yorda tutib turish xususiyati narsa-buyumga ko'chirilgan.

Qap= asosli birliklar maqollar va matallar tarkibida ham kelgan.

O'zbek xalq og'zaki ijodida maqollar o'ziga xos o'ringa ega. Maqollarning asosiy xususiyati shundaki, ular xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan xulosalari sifatida milliy o'zlik, milliy madaniyat va dunyoqarash, urf-odat va qadriyatlarini o'zida jamlaydi. T.Mirzaev bu haqda shunday yozadi: “Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi, o'zi va o'zligi to'la namoyon bo'lgandir”¹⁶³.

Maqollar xalq orasida keng doirada yoyilgan va u asrlar davomida jonli so'zlashuv va o'zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotda doimiy ravishda qo'llanilib kelmoqda. Davrlar o'tishi bilan yangi maqollar yaratiladi, eskilari muomaladan chiqishi yoki ma'noviy xususiyatlari o'zgarishi mumkin. Vaqt o'tib ba'zi maqollar butunlay iste'moldan chiqib ketadi va unutiladi.

Maqollar nutqqa o'zgacha jilo beradi, uning ta'sirchanlik darajasini oshiradi. So'zlovchi o'z maqsadlarini yanada tugal, mukammal, ta'sirchan ifodalash maqsadida maqollardan keng

¹⁶³ Mirzayev T., Musaqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent, 2019. – B. 5.

foydalanadi. Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'otit turk» asarida 400 ga yaqin maqol va matal keltirilgan, ularning aksariyati tilimizda ishlatilmoqda.

Qap= asosli lesemalar ishtirokidagi maqollar qadim ajdodlarimiz o'giti, hayotiy xulosalari mahsulidir, qimmatli ma'naviy merosdir. Ularda chuqur ma'nolar ifodalanadi. Maqollar ko'p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasi sifatida yuzaga kelar ekan, hayotiy asosga egaligi tufayli bugungi kunda ham keng doirada iste'mol qilinmoqda.

Maqoldagi har bir so'zning o'z o'rnini bor. Ularda tarixan butunlay boshqa ma'noni ifodalagan so'zlar ishtirok etadi¹⁶⁴.

Maqollar so'z san'ati mahsulidir, unda til birliklari o'z ma'nosida, ko'chma ma'noda va har ikkala ma'nolarida ham qo'llanilishi mumkin. Shuning uchun maqollarda badiiy-tasviriy vositalarning xilma-xil shakllarini uchratishimiz mumkin.

Yuqorida frazemalar tarkibida kuzatgan o'xshatishlar, qiyoslar maqollarda kam kuzatiladi. Maqollarda o'xshatishning kam ishlatilishini, uning bu janr uchun xarakterli emasligi adabiyotlarda qayd etilgan. Maqollar o'xshatishlar bilan o'zgartirib qo'llansa, odatda, ular o'z maqollik xususiyatini yo'qotadi¹⁶⁵.

Qap= asosli lesemalar mazmunan boy va xilma-xildir. Ularda insoniy fazilatlar, qarashlar ifoda etiladi. Maqollar orqali uzoq davr mobaynida to'plangan tajriba ortidan kelib chiqqan g'oyalar avloddan-avlodga yetkaziladi.

“O'zbek xalq maqollari”¹⁶⁶ kitobidan tarkibida *qap*= asosli ot leksemasi ishtirok etgan 53ta maqolni ajratdik.

Qop 11ta maqol tarkibida qo'llangan: Bo'z yamog'i – bo'zcha, Qop yamog'i – qopcha (378)¹⁶⁷, Bo'sh qop tik turmas (382), Sinalmagan sop qolmas, Yirtilmagan qop qolmas (400), Yirtiq qopda turmaydi, Butun qopga sig'maydi (409), Yuz qopni bog'lab

¹⁶⁴Ўзбек халқ мақоллари. Тузувчилар: проф. Т.Мирзаев, А.Мусақулов, Б.Саримсоқов. — Тошкент, 2019. —Б. 5.

¹⁶⁵Ўзбек халқ мақоллари. Тузувчилар: проф. Т.Мирзаев, А.Мусақулов, Б.Саримсоқов. — Тошкент, 2019. —Б. 6.

¹⁶⁶ O'zbek xalq maqollari (Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov; Mas'ul muharrir: Sh.Turdimov. — Toshkent: Sharq, 2005. —Б. 512.

¹⁶⁶ Мақоллар қуйидаги манбадан ол. —Б. 512.

¹⁶⁷ Мақоллар қуйидаги манбадан олинди. Нашр саҳифаси қавс ичида кўрсатилди.

bo‘lar, Yuz og‘izni bog‘lab bo‘lmas (416), Qopning gardi ketsa-ketsin, Odamning burdi ketmasin (240), Qozonga kirgan qaytib qopga kirmas (366), Har kishi o‘z qopining og‘zini o‘zi ochar (375), Gap desang, qop-qop, Ish desang, Ashtarxondan top, Gap desang, qop-qop, Ish desang – betob (25-bet), Yomon xotin kimniki – olaqopniki, Olaqoping bo‘lmasa, allakimniki (58);

Maqollar tarkibida *qap* asosidan yasalgan quyidagi so‘zlar uchraydi:

qopqon (2ta): Sichqon tutishga qopqon zarur, Dushmanni otishga – sopqon (400), Quyon qopqoni bilan arslonni ovlab bo‘lmas (402);

qopqa (1ta): Bozorning qopqasi yo‘q, Ovulning – eshagi (407);

qopun/qovun (13ta): Qovunning sarasini it yer, Olmaning sarasini – qurt (93), Qovun qovundan rang olar (164), Bemaza qovunning urug‘i ko‘p (223), Qovunning yomoni – po‘la, Xotinning yomoni – bo‘la (270), Qovun ichidan iriydi (319), Qovoq ekib, qovun kutma, (319), Qovuni yo‘q kuz bo‘lganini bilmas, Sovuni yo‘q yoz bo‘lganini bilmas (344), Qovun eksang polizga, Joy qilib qo‘y dahlizga (377), Qovun yesang, sahar ye, Sahar yemasang, zahar ye (449), Bug‘doy olaman desang, qovun polga ek, Paxta olaman desang – jo‘xori polga (450), Tarvuz – davo, qovun – sabo (455), Qovun ekkan qovoq olmas (458);

qovoq I tana uzvi (3ta): Falokat qosh-qovoq orasida (439), O‘lim qosh bilan qovoqning orasida (463); Qiz bor – qirg‘iz qovoqli, Qiz bor – qarchig‘ay qanotli (181);

qovoq II poliz ekini (1ta): Qovun ekkan qovoq olmas (458);

oshqovoq (1ta): Pishmagan oshdan xom oshqovoq yaxshi (369);

qovoqari (1ta): Suvsiz yerda tol bolmas, Qovoqarida bol bo‘lmas (173);

qovurg‘a (1ta): Qo‘y semirsa, qovurg‘asi kichrayar (458);

qalpog‘ (1ta): Qalpog‘ingni qaytoqi qilguncha, Qo‘ylaringni bo‘rdoqi qil (458);

kapa (1ta): Kapasiga yarasha qirmovi, Eshagiga yarasha tushovi (116);

qolip (qopil) – 1ta: Rejasiz ish –qolipsiz g‘isht (377), Qolipsiz g‘isht bitmas, Rejasiz ish bitmas (378),

Qap va qap asosli soʻzlar ishtirokidagi maqollarning chastotali jadvali:

Maqollar tarkibidagi qap va qap asosli soʻzlar	Maqollarning qoʻllanish chastotasi
<i>qopun/qovun</i>	13
<i>qap</i>	11
<i>qovoq</i> I (tana uzvi)	3
<i>qopqon</i>	2
<i>Qopqa</i>	1
<i>qovoq</i> (II poliz ekini)	1
<i>Oshqovoq</i>	1
<i>Qovoqari</i>	1
<i>Qovurgʻa</i>	1
<i>Qalpogʻ</i>	1
<i>Kapa</i>	1
<i>qolip (qopil)</i>	1
<i>Qoplon</i>	1

Qop 11ta maqol tarkibida qoʻllangan:

Maqollar tarkibida qop leksemasi quyidagi semalarni ifodalagan:

“kattalik, katta hajm” semasi ifodalangan: Boʻz yamogʻi – boʻzcha, Qop yamogʻi – qopcha (378)¹⁶⁸;

“biror narsaga moʻljallangani va shusiz kerakli holatda boʻla olmaslik” semasi aks etgan: Boʻsh qop tik turmas (382). *Qop* leksemasi matn tarkibida bir necha koʻchma maʼnolarini yuzaga chiqaradi. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da unga quyidagicha izoh beriladi: “Sochiluvchan narsalar solib qoʻyiladigan, mato, chipta va sh.k.dan tikilgan, xaltadan katta, qanordan kichik roʻzgʻor buyumi. Kanop qop. Chipta qop. Qogʻoz qop. Demak, qop narsa-predmetlarni bir joyga jamlab, toʻplab turuvchi buyum, unda ham yopiqlik, ham jamlik semalari yuzaga chiqadi¹⁶⁹. “*Boʻsh qop tik turmas*” maqolida *qop* aynan buyum maʼnosini anglatgan. Yaʼni qopning narsa-predmet, mahsulotlarni bir joyga jamlab, toʻplab turish xususiyati aks etgan. Qopning ichi toʻla boʻlgandagina u oʻzining shaklini

¹⁶⁸ Мақоллар қуйидаги манбадан олинди. Нашр саҳифаси қавс ичида кўрсатилди.

¹⁶⁹ ЎТИЛ. 5-жилд. – Б. 335.

namoyon qilib turadi, agar qopning ichi bo'sh bo'lsa, u tik turmaydi, o'z shaklini yo'qotadi. *Qappaymoq* fe'li ham shundan kelib chiqqan bo'lib, dumaloqlik, semizlikni ifoda etadi: *qorni qappaygan*.

Men sizlarga mana bu sovg'alarni olib keluvdim, - dedi qopni ko'rsatib... R.Fayziy. Sen yetim emassan. ...qopning og'zini ochib, elakka hovuchlab un soldi, qopning og'zini yana burab qo'ydi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

"kundalik hayotda ko'p ishlatilishi" o'z ifodasini topgan: Sinalmagan sop qolmas, Yirtilmagan qop qolmas (400). Chunki qopdan turmushda ko'p foydalanilganligi bois yirtiladi. Bu sema Qopning gardi ketsa-ketsin, Odamning burdi ketmasin (240) maqolida ham aks etgan:

"osonlik" semasini ifodalagan: Yuz qopni bog'lab bo'lar, Yuz og'izni bog'lab bo'lmas (416);

"yo'q bo'lish" semasi iffodalangan: Qozonga kirgan qaytib qopga kirmas (366);

"mulk" semasi aks etgan: Har kishi o'z qopining og'zini o'zi ochar (375);

"ko'p"lik semasi ifodalangan: Gap desang, qop-qop, Ish desang, Ashtarxondan top, Gap desang, qop-qop, Ish desang – betob (25-bet). "Qop" leksemasi ko'chma ma'noda ishlatilgan. Ushbu "qop-qop" leksemasining takrori me'yordan ortiqligini anglatadi. Ya'ni bu birlik bekorchi gaplarning haddan ortiqligini anglatgan. Ya'ni bu maqolda me'yoridan ko'p gapirish va dangasalik illat sifatida qoralanadi. Insonlarni bu yo'ldan qaytarishga undaladi. Mehnat insonni ko'klarga ko'tarishi haqidagi g'oya ham shu maqol orqali aks ettiriladi. *Qop-qop* takrori mana shu mazmunni kuchliroq tarzda ifodalashga xizmat qilgan. Ayrim shevalarda uning "*Gap desang qop-qop, ish desang Samarqanddan top*" yoki "*Gap desang qop-qop, ish desang Ashtarxondan top*" kabi variantlari ham mavjud. Lekin ularning barchasida deyarli bir xil fikr ilgari suriladi. O'zbek xalqida mehmondo'stlik, mehnatkashlik, insonparvarlik kabi yuksak insoniy fazilatlar qadimdan ulug'lanadi, bular xalqning ma'naviy qadriyatiga aylangan. Dangasalik, ishyoqmaslik kabilar esa, aksincha, doim salbiy baholanadi. Shuning uchun bola tarbiyasida juda kichikligidan boshlab bu qadriyatni asta-asta singdirib borishga harakat qilinadi.

Gap desang, qop-qop, Ish desang – betob maqolida “ko‘p”lik semasi salbiy bo‘yoqdorlik asosida namoyon bo‘lgan. Mana bu maqolda esa “ko‘p”lik semasi ijobiy bo‘yoq asosida reallashgan: *Ish qilganga qop-qop, Qilmaganga bo‘sh qop*. Bu maqoldagi “qop-qop” mahsulotlarning ko‘pligiga ishora qilib, keyingi yillarda moddiy mablag‘ni ham anglatadi. Chunki kishilik jamiyatining dastlabki taraqqiyot bosqichlarida pul ishlatilmagan va mehnatga haq to‘lashning mahsulot ko‘rinishi amalda bo‘lgan. Tovar ayriboshlash jarayonida ham mahsulotlar moddiy farovonlik asosini tashkil qilgan. Maqoldagi *qop-qop* birligida “farovonlik” semasi ham aks etgan. Bu maqoldagi *qop* leksemasi maqolning qadimiyligini bildirishga ham xizmat qiladi;

“qutulish” semasi ifodalangan: Yomon xotin kimniki – olaqopniki, Olaqoping bo‘lmasa, allakimniki (58). Matn mazmunidan olaqopning mahsulotlarni yoki chiqindilarni tashlash uchun mo‘ljallangan anjom ekanligi ko‘rinib turibdi. Bunda “yomon xotindan voz kechish” semasi aks etgan.

Ish qilganga qop-qop, Qilmaganga bo‘sh qop [7,28] maqolidagi “qop-qop” takrori esa ko‘plikni anglatadi. Ya’ni mehnat qilganning rizqi butun bo‘ladi, buning orqasidan ko‘p davlat topadi, dangasa, ishyoqmas insonlarning esa, aksincha, rizqi ham bo‘sh bo‘ladi.

Demak, maqolda “qop” leksemasi takrori belgining ortiqligi, hajmning haddan ziyodligini anglatgan.

Qop leksemasi topishmoqlar tarkibida ham qo‘llangan: Yirtiq qopda turmaydi, Butun qopga sig‘maydi (409).

Qovun leksemasi 13ta maqol tarkibida kelib, quyidagi semalarni ifodalashga xizmat qilgan:

“yaxshi” semasi ifodalangan: Qovunning sarasini it yer, Olmaning sarasini – qurt (93); bu mazmunga qarama-qarshi ravishda quyidagi maqollarda “yomon” semasi aks etgan: Bemaza qovunning urug‘i ko‘p (223) Qovunning yomoni – po‘la, Xotinning yomoni – bo‘la (270),

“ma’naviy ta’sir” semasi ifodalangan: Qovun qovundan rang olar (164). Maqolda aslida moddiy ta’sir nazarda tutilgan, lekin so‘z maqol semantikasidagi “ma’naviy ta’sir” semasiga yo‘naltirilgan.

Qovun ichidan iriydi (319) maqolida “ich-etini yeyish” semasi o‘z ifodasini topgan. Qovunning tabiiy xususiyati til sohibi ongida insonning g‘am-alamni ichga yutishi, sirtiga chiqarmasligi, dardini bildirmasligi kabi holatlarga ishora qilgan.

Qovoq ekib, qovun kutma (319) maqolida qovun “yuqori daraja” semasini aks ettirgan. Maqolda *qovun* qovoqdan ustun qo‘yilgan. Bu semalar maqollarning nutqda qo‘llanishi, sub’ektiv munosabat jarayonida shakllangan. Bu maqolda diktum tinglovchiga qaratilgan bo‘lsa, *Qovun ekkan qovoq olmas* (458) maqolida nutq jarayonida ishtirok etmayotgan sub’ekt harakati baholanmoqda. Qovoq qovundan foydali bo‘lishi mumkin, lekin inson, birinchidan, uning tayyor holda iste’mol qilinishiga qarab, baho bergan. Chunki qovoqni pishirmasdan iste’mol qilib bo‘lmaydi. Ikkinchidan, maza-ta’m ham hisobga olingan;

“payt” semasi ifodalangan: Qovuni yo‘q kuz bo‘lganini bilmas, Sovuni yo‘q yoz bo‘lganini bilmas (344). Qovunning kuzda yetilishi va bu jarayonning doimiy ravishda kuzatilishi “payt” semasining reallashuviga asos bo‘lgan; “rejali ishlash” nazarda tutilgan: Qovun eksang polizga, Joy qilib qo‘y dahlizga (377);

“foйда-zarar” semasi ifodalangan: Qovun yesang, sahar ye, Sahar yemasang, zahar ye (449). Qovun uning yeyilish vaqtiga arab inson salomatligiga foydali yoki zarar bo‘lishi nazarda tutilgan. *Tarvuz – davo, qovun – sabo* (455) maqolida ham qovunni sabo(h)da, ya’ni ertalab yeyish lozimligi ta’kidlangan;

“imkoniyat” semasi ifodalangan. Bug‘doy olaman desang, qovun polga ek, Paxta olaman desang – jo‘xori polga (450). Maqolda qovun polining bug‘doydan yaxshi hosil olish uchun imkoniyat sifatidagi xususiyati ta’kidlangan.

Qovun so‘zidan *furush* qo‘shimchasi yordamida shu mahsulotlar bilan savdo qiluvchi shaxe ma’noli ot hosil qilinadi: *qovunfurush*¹⁷⁰.

Maqollar tarkibida qap= va qap= asosli birliklar tushuncha ifodalashdan tashqari barqaror birikma semantikasidagi kognitiv, psixolingvistik belgilarni ham ifodalashga xizmat qilgan.

¹⁷⁰ Ҳоҗиев А. Ўзбек тили сўз ясалиш тизими. –Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – Б.58.

Qap= asosli lingvistik birliklarning semantik to‘r asosidagi tahlili

Semantikaga oid taqiqotlarda leksemalar tahlili semantik maydon asosida amalga oshirilgan. So‘zni semantik maydonlarga ajratishda dastlab “tushuncha maydoni”dan kelib chiqib yondashiladi. Bu yondashuvga ko‘ra, har bir so‘z bir ma’lum bir “tushunchalar guruhi”ga, ya’ni semantik maydonga kiradi va hech biri oraliq holatida qolmaydi. So‘z ma’nosining tarixiy taraqqiyoti o‘zgarmas holda tuzilgan maydonning qayta qismlarga bo‘linishi sifatida izohlanadi. Demak, so‘zning semantik maydonga mansubligi sinxron xarakterga ega bo‘lib, davrlar osha o‘zgarishlarga uchrashi mumkin.

Ma’lum semema tarkibida nechta asosiy sema mavjud bo‘lsa, ushbu semema har bir semasi asosida turlicha ma’noviy bog‘lanishlar hosil qila oladi. Ya’ni, sememaning xar bir semasi klassemani vujudga keltira oladi. Bunda semema tarkibidagi semalar shunday semaga ega bo‘lgan semantik maydonga oid leksemalar bilan birikish imkoniga ega¹⁷¹.

So‘z ma’lum sememasiga ko‘ra muayyan semantik maydonlarga birlashadi.

Bir semantik maydonga mansub leksemalar sememalari uchun umumiy bo‘lgan va ularni birlashtiruvchi sema arxisema; semantik maydonning guruhleri (maydonchalari)ga mansub leksemalar sememalari uchun umumiy bo‘lgan va ularni birlashtiruvchi sema integral semadir. Differensial sema semantik maydonga kirgan har bir leksema sememasining o‘ziga xos tomonini, xususiyatini belgilaydi¹⁷².

Semantik maydonda so‘zlar bir-biri bilan tutashmasligi qayd etiladi. So‘z ma’nolarining bir-biriga tutashmasligi nisbiy tushuncha bo‘lib, etimologik tahlillar turli maydonga mansub leksemalarning semantik jihatdan bog‘lanishi mumkinligini ko‘rsatadi. Mazkur aloqadorliklar semantik to‘rlarni yuzaga keltiradi. Bu esa semantik maydon tushunchasining semantik to‘rlar bilan to‘ldirilishini taqozo qiladi.

¹⁷¹Хакимова М. Семасиология. –Тошкент, 2008. – Б. 72.

¹⁷²Ўша асар. 58- б.

“Semantik to‘r” semantika masalalariga qaratilgan integratsiya asosidagi tahlil metodlaridan biri hisoblanadi. Semantik to‘r kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasida faol qo‘llanmoqda¹⁷³. Semantik to‘r ham hodisani, ham metodni ifodalaydi.

Semantik to‘rlar dastlab mashina tarjimasida sun‘iy intellekt hosil qilish uchun ishlab chiqilgan. Semantik to‘rlar dastlab mashina tarjimasida sun‘iy intellekt hosil qilish uchun ishlab chiqilgan. Sun‘iy intellekt kompyuter texnologiyalari sohasining tarkibiy qismi bo‘lib, o‘tgan asr oxirlaridan buyon turli sohalarda qo‘llanib kelmoqda. Sun‘iy intellekt inson kabi o‘ylash imkoniyatini namoyon qiladi va muammolarni kompleks holatda hal qilishga yordam beradi. Boshqacha qilib aytganda, sun‘iy intellekt bilimlarni tartibga solish uchun inson aql-zakovati xususiyatlarini kompyuterga singdiruvchi sun‘iy algoritmdir. Sun‘iy intellekt biologiya, psixologiya, mantiq, matematika kabi sohalarda ham qo‘llanadi.

“Semantik to‘r” tushunchasi 1967-yilda Quillian tomonidan bilimlarni grafik ko‘rinishda ifodalash maqsadida taklif qilingan. Semantik to‘r bilimlarni tarmoqlangan grafik shaklida ifodalaydi. Har qanday fikr, voqea, vaziyat yoki obyekt kompozitsion tuzilishga ega bo‘lib, bu struktura semantik tarzda konseptual uzvlar vositasida ifodalanadi. Umuman olganda, “tarmoq” tushunchasi mavhum tushunchadir, u kompyuterda dasturlashtirilgan bo‘ladi yoki elektron simli ulanishni ifoda etadi. Bundan farqli o‘laroq, semantik to‘rlar tabiiy tilda tasvirlanishi mumkin bo‘lgan har qanday bilimni tizimli ifodalashni maqsad qiladi. Semantik to‘r tizimi nafaqat aniq tizimlashgan tarmoq tuzilmasini, balki undan ancha kattaroq tuzilmani, ya‘ni konseptual bilimlar majmuasini ham o‘z ichiga oladi.


Semantik to‘rning bir qancha turlari mavjud bo‘lib, ulardan ayrimlari haqida to‘xtalamiz.

1. Ta’riflovchi to‘rlar obyektni kichik turlarga bo‘lib, ular orasidagi munosabatni ifodalaydi. Bu tarmoq “umumlashtirish yoki o‘zlashtirish ierarxiyasi” deb ham ataladi. Ta’riflovchi to‘r supertip (substansiya) uchun belgilangan xususiyatlarni uning barcha kichik

¹⁷³ Xolmanova Z. Semantik maydon va semantik to‘r imkoniyatlari. “Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim va istiqbollari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. –Toshkent, 2022. –B.37-43


turlariga (subtip) nusxalaydi, ya'ni "an'anaviylik", "bir-biridan o'tish" qoidasini qo'llab-quvvatlaydi. Ta'riflovchi to'r bizga ma'lum bo'lgan eng qadimgi semantik to'r sanalib, eramizning III asrida yunon faylasufi Porfiriyl tomonidan Aristotel kategoriyalarini sharhlash maqsadida qo'llangan. Porfiriyl bu tarmoqdan Aristotelning tur-jins yoki umumiy turini ko'rsatish orqali kategoriyalashtirish, muayyan super tipning turli tarmoq tiplari (subtip) orasidagi farqlarni ko'rsatib berish metodini tasvirlash uchun foydalangan.

Quyidagi chizmada "Porfiriyl daraxti" asosida chizilgan semantik to'r ko'rsatilgan, chizma ispaniyalik mantiqshunos olim Pyotr tomonidan chizilgan (1329). Chizmada substansiya (oliy jins, umumiy toifa) tarkibidagi toifalar tasvirlab berilgan:



2. Tasdiqlovchi to'rlar g'oyalarni tasdiqlash uchun mo'ljallangan. Ta'riflovchi to'rdan farqli o'laroq tasdiqlovchi to'rdagi ma'lumotlar model operator tomonidan aniq belgilanmagan bo'lsa, shartli ravishda to'g'ri deb taxmin qilinadi. Gottlieb Frege (1879) daraxt usulida mantiqiy qayd qilishni, konseptual tizimlashtirishni rivojlantirdi. Charles Sanders Peirce (1880, 1885) esa algebraik tizimlashtirishni Peano belgilarini o'zgartirish orqali rivojlantirdi. Peirce algebraik tizimlashtirishni kashf qilish bilan qanoatlanmadi. 1882 yil boshlarida u grafik tizimlashtirish ustida izlana boshladi. Bu usul organik kimyoda atom va molekulalar tuzilishni ko'rsatib berishda qo'llanadigan chizmaga o'xshaydi.

3. Implikatsion (izohlovchi) to'rlarda tugunlarni ulash uchun asosiy vosita sifatida izohdan foydalaniladi. Bu turdagi to'rlar fikr, sabab yoki xulosalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Izohga asoslansak, bunday to'rlarni dalillovchi tarmoqlar, sabab tarmoqlar, Baes tarmoqlari deb ham atash mumkin. Quyidagi rasmda o'tlarning (o'simlik) o'sish sabablari ko'rsatilgan: har bir ustun taklifni ifodalaydi va o'qlar esa ularning oqibatlariga ishora qiladi. Agar yomg'irli mavsum bo'lsa, T bilan belgilangan o'q yaqinda yomg'ir yog'ganligini bildiradi. F belgisi bilan markerlangan o'q suv purkagich ishlatilayotganligini bildiradi. Ikki xil tashqi ta'sir va uning oqibatlari izohlab ko'rsatilgan. Quyidagi chizma implikatsion to'rning sodda namunasi sanaladi:



4. Bajaruvchi semantik to'rlar ba'zi mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Masalan, bir amaldan boshqasiga o'tish yoki xulosalar chiqarish, xabarlarni uzatish qidirish uchun biriktirilgan buyruqlar majmuasini aks ettiradi. Quyidagi 3 turdagi mexanizmlar bajaruvchi semantik tarmoqlarda keng qo'llanadi:

a) xabar almashish tarmoqlari ma'lumotlarni bir tugundan boshqasiga o'tkazish vazifasini bajaradi;

b) biriktirilgan protseduralar muayyan bir tugundan qo'shni tugunga yo'nalgan harakatlar, xususan, hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonini o'zichiga oladi;

c) grafik o'zgartirishlar grafiklarni birlashtiradi, ularni o'zgartiradi yoki kichikroq qismlarga bo'lib, ajratib chiqadi.

5. O'quv to'rlari yangi bilimlarni namunalar yordamida egallash orqali o'z tizimini yaratadi va kengaytiradi. Yangi ma'lumotlarni qo'shish, eski tarmoq tugunlari va yo'ylarini o'chirish yoki raqamli qiymatlarni o'zgartirish orqali tarmoq ma'lumotlarini kengaytirish mumkin. O'quv to'rlari shaxsiy ilmiy ma'lumotlarni tarmoqli shakllantirish maqsadida ham qo'llanadi.

6. Gibridd tarmoqlar ikki yoki undan ortiq tarmoq xususiyatlarini birlashtiradi, ya'ni o'quv, izohlovchi, bajaruvchi, ta'riflovchi, tasdiqllovchi to'rlar qorishuvidan hosil bo'ladi¹⁷⁴.

O'rganishlar natijasida ma'lum bo'ldiki, *qa*= asosidan shakllangan harakat-holat bildiruvchi *qap*= leksemasi semantikasida, dastavval, "qamrab olmoq", "birikmoq", "qo'shilmoq", "yopishmoq" semalari mavjud bo'lgan. Keyinchalik "ustma-ust qo'yimoq", "yopmoq", "yashirmoq" semalari shakllangan: osmonni bulut qoplashi ("to'laligicha qamrab olish") → qapi (eshik, uy og'zini "yopish") → qopqoq ("idishni yopish").

Qap= leksemasidan semantik usul bilan, turkum sinkretizmi asosida *qap* oti yasalgan. Natijada harakat-holat bildiruvchi leksemadan narsa-buyum nomini bildiruvchi leksema hosil bo'lgan. Buning oqibatida "ichi bo'sh", "berkitish", "o'rash" semalari yuzaga kelgan.

Qap= asosidan shakllangan lug'aviy birliklar muayyan semantik uzvlar orqali o'zaro birlashadi. Leksema semantik tarkibidagi muayyan semalar semantik uzv vazifasini bajaradi. Sema narsa-hodisaning, voqelikning tushunchada aks etgan muhim belgilaridir. "Sema "belgi" ma'nosini ifodalaydi, leksik ma'no (semema)ni tashkil toptiruvchi komponent (qism)larni bildiradi¹⁷⁵".

Qap= asosli *qamal*, *qamoq*, *qamrov*, *qoplam*, *qoplama*, *qoplovchi*, *qobiq*, *qovurg'a*, *qopqon*, *qoplon*, *qamramoq*, *qamamoq*, *qoplamoq*, *qoplanmoq*, *qopmoq*, *qoptirmoq*, *qobon*, *qopag'on*, *qopong'ich* so'zlarini "qamrash" semantik uzvi birlashtirib turadi.

Qadoq, *qabariq*, *qabarmoq*, *qabarchimoq* *qappaymoq* leksemalar "bo'rtish" semantik uzvlari orqali bog'lanadi.

Qaviq, *qayish*, *qavimoq* leksemalarida "ustma-ust qo'yish", "biriktirish" semalari semantik uzv vazifasini bajaradi.

Qop, *qopcha*, *qopchiq*, *qopqon*, *qovuq*, *qovun*, *qovoq*, *qo'lqop*, *paypoq*, *qalpoq* leksemalarining semantik uzvi "ichi bo'sh" semasidir.

Qopi, *qopu*, *qopqa*, *qopqoq*, *qopqoqli*, *qopqoqlamoq* leksemalari "yopmoq" semantik uzvi asosida birlashadi.

¹⁷⁴ Маълумотлар олинган манба: "Semantic Networks" JohnF. Sowa


¹⁷⁵ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент, 2002. –Б.22.

Qamashmoq, qamashtirmoq, qapishmoq, qovushmoq, qovushtirmoq, qovurma leksemalarining semantik uzvi “biriktirmoq” semasi hisoblanadi. Ushbu leksemalarni “qamrash”, “birlashish” semantik uzvi asosida ham birlashadi.

Qap= asosidan shakllangan leksemalar semantikasidagi semalar tadrijiy taraqqiyotini quyidagicha ifodalash mumkin:

“qamrab olmoq” → “birikmoq” → “qo‘shilmoq” → “yopishmoq” → “ustma-ust qo‘ymoq” → “yopmoq” → “yashirmoq”.

Hozirda qo‘llanayotgan qap = va qap = asosli leksemalar semantikasida qadimgi turkiy til davridagi ma’nolar saqlanib qolgan. Masalan, *qa* – asosidagi “mahkam ushlamoq”, “tutmoq” ma’nosi (DLT, III, 114) “tishlamoq” ma’nosidagi *qopmoq* leksemasida saqlangan:



Qap= asosli birliklarning tarixiy semantikasida o'zgarishlar kuzatiladi. Masalan, *qap*= leksemasining "g'ilof", "jild", "ona qornida bola o'ralib turgan parda, xalta" (DLT, III, 80) ma'nolari hozirgi o'zbek tilida kuzatilmaydi.

Qap= asosidagi "ona qornida bola o'ralib turgan parda, xalta" (DLT, III, 80), "tuxum ichidagi parda" ma'nosi (QR,47) *qobiq* (bug'doyning ustki qismi), *o't qopi* leksemalarida kuzatiladi.


"*Qap*=" asosli leksemalar tahlili bu leksemalar struktur-grammatik jihatdan o'zgarishga uchraganini ko'rsatadi.


Leksemalar tahlili so'z tarixiy taraqqiyot jarayonida semantik aloqadorlik asosida bir necha yangi leksemalarning shakllanishiga asos bo'lishini ko'rsatdi. Tilshunoslikda "bir xil tovush qobig'i" (zvukovaya obolochka) tushunchasi mavjud. Bir xil fonetik qobiq bir til doirasida kuzatilsa, aksariyat o'rinlarda semantik aloqadorlik mavjudligini ko'rish mumkin. Bu aloqadorlik semantik tahlillar orqali, leksemaning komponent analizi orqali aniqlanadi.

Quyida biz "berkitmoq" semasi ostida birlashuvchi *qap*= asosli leksemalarni ko'rib chiqamiz.

Qop leksemasiga sochiluvchan narsalar solib qo'yiladigan, mato, chipta va sh.k. dan tikilgan, xaltadan katta, qanordan tikilgan kichik ro'zg'or buyumi¹⁷⁶. Ushbu izohni davom ettirgan holda *qop*ning vazifalarini ajratamiz. *Qop*, birinchi navbatda, sochilib ketish xavfi mavjud bo'lgan mahsulotlarni bir joyga jamlab turadi, ikkinchidan, ularning yopiq holda saqlanishini ta'minlaydi, uchinchidan esa, ichidagi mahsulotni tashqi ta'sirlardan himoyalaydi, ya'ni berkitadi. Demak, *qop*da "berkitish" semasi ustun.

¹⁷⁶ ЎТИЛ. 5. – Б. 335.





Eshik, darvoza ma'nosidagi *qapi/qopi/qopqa* leksemalari ham asosan uy, saroy, qal'a kabilar devorining ichkari va tashqariga harakatlanish uchun ochiq qoldirilgan qismini yopib, ichkari qismni begonalardan, dushmanlardan, umuman, tashqi ta'sirlardan berkitib turadi. Unda ham "berkitmoq" semasi ustunlik qiladi.

Qoplam/qoplama biror narsaning sirtiga, betiga, ustiga qoplangan, o'ralgan, sirilgan tashqi qatlam yoki g'ilof. Devorning marmar qoplamasi. Mebel qoplamasi. Yo'lning asfal't qoplamasi. Tish qoplamalari. Qopla-ma materiallar. Chumchuq tumshug'i bilan simning qoplamasini ketma-ket cho'qib ko'rdi. R. Fayziy, Hazrati inson¹⁷⁷.

¹⁷⁷ ЎТИЛ. 5. –Б. 334.



Qoplamoq biror narsaning ustini qamramoq, burkamoq, bosmoq yoki Sathini, yuzasini, betini egallamoq. Ko‘k yuzini bulut qopladi. Yer yuzini qorong‘ilik qopladi. Suv betini muz qopladi. Yoki uning aynan to‘smoq, berkitmoq, egallamoq semalari ham mavjud. Misollar: qo‘li bilan og‘zi-burnini qoplamoq¹⁷⁸.

Qoplamoq leksemasining qopga solmoq ma’nosida ham berkitmoq semasi mavjud.

Qoplanmoq leksemasining narsa-buyum sathini egallash ma’nosida sathning shu narsa bilan “berkitilgani” tushuniladi. Osmon bulut bilan qoplendi.


¹⁷⁸ ЎТИЛ. 5. –Б. 334.

Shu ish-harakatni bajaruvchi qoplovchi shaxs oti ham bu leksemalar qatoriga kiradi. Masalan, mebel qoplovchilar. Ko‘rpa qoplovchi ayol.

Paxta qoplovchilar. O‘g‘it qoplovchi ishchi.

Qopqoqlamoq leksemasi “qopqoq bilan berkitmoq”, “qopqog‘ini yopmoq”, “mahkamlamok” ma’nolarini bildiradi. Masalan: Quduqni qopqoqlamoq. Qopqoqlash avtomati. Hamrobibi dasturxon yozdi, baqirlab qaynayotgan samovarni keltirib, qopqoqlab qo‘ydi¹⁷⁹. R. Fayziy, El mehri.


Qa= asosli leksemalar “qamramoq”, “birlashmoq”, “ustma-ust qo‘ymoq”, “birlashtirmoq”, “bekitmoq”, “narsa-buyum” ma’nolarini ifoda etadi:



¹⁷⁹ ЎТИЛ.5. –Б. 334.

Qap (genezisi jihatidan *qa*) asosli leksemalarda yana bir sema ustunlik qiladi. Bu birgalik, jamlik semasidir. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi “hamma” birgalik olmoshi mana shu jamlik semasiga ega bo‘lgan leksema sanalib, uning tarixiy shakli qamag‘/qamug‘ sanaladi. Bu sema “qa”ning qamrab, o‘rab, jamlash turish xususiyatidan kelib chiqadi. Birgalik olmoshlari ot, sifat va son o‘rnida kelib, narsa - predmet miqdori, sanog‘ini bildirgan. Qadimgi turkiy tilda qamuğ, alqu, barča, bütün, qop

“barcha, hamma” kabi birgalik olmoshlari ishlatilgan¹⁸⁰.



¹⁸⁰Abdushukurov B. Qadimgi turkiy til. –Toshkent, 2019. –Б. 50.

qamag' / qamug' – etimologiyasi jihatidan munozarali soʻz deb qaraladi. Qadimgi yodgorliklarda uch xil shaklda uchraydi. Shuning uchun uning kelib chiqishi haqida aniq fikr aytishga imkon bermaydi.

Masalan, Kul-Tegin bitiktoshida *qmy qmyi*, yaʼni odatda *a* yozilmasa ham oʻqiladi – qamay: Türk qara qamay budun “barcha turkiy xalqlar” (IE 8, NE 8), qamayi jeti jüz âr boldi “hammasi 700 erkak boʻldi” (Malov PDP 29-30), qamayi bes otuz süladimiz “jami yigirma besh marta yurish qildik” (KT, 18);

Bilga xoqonda *qmy [qamay]* (qara qamay bodun “butun lashkar”, qamayi bis “jami yigirma besh”. Qadimgi uygʻur: 1) qamayi a) tütüs keris qilmasar sen özürjgâ qamay adatın ozyaj sen “agar siz hech qanday nizo boshlamasangiz, unda siz oʻzingizni barcha xavflardan xalos qilasiz” (TT I); bu jirtincüdâ qamay tinliylar üçün “bu dunyodagi barcha jonzotlar uchun” (KR 47); qamayda erklıgjultuz “barcha yulduzlarning eng kuchlisi” (LSK 10577); qamayqa ajayuluq ciltâyülük bolyajlar “ular hamma tomonidan hurmat qilinadi” (Suv 195)¹⁸¹.

Birgalik, jamlik maʼnosi *qop* tarixiy shaklining oʻzida ham mavjud. Masalan:

Toʻnyuquq bitiktoshida: Toquz oğuz beğläri bodunı bu sabımın edgüti eşid! Qatığdı tınlä! Ilğärü kün toğsıq (q)a, birğärü kün ortusınaru, qurığaru kün batsıqına, yırğaru tün ortusınaru, anta içräki bodun qop maña körür, anča bo(dun)

Yaʼni: Toʻqqiz oʻgʻuz beklari, xalqi bu soʻzlarimni yaxshilab eshit, diqqat qilib, tingla! Oldinga – kunchiqarga, oʻngga – janubga, orqaga – kunbotarga, chapna – shimolgacha boʻlgan yer ichidagi xalq (lar) hammasi menga qaraydi. Shuncha xalqni qop etdim. Ol emti ayiğ yoq Türk qağan Ötükän yış olursar, eltä buñ yoq ilğärü Shantun yazıqa tegi sülädim, taluyqa kiçig tegmädim, birğärü Toquz - ersänkä tegi sülädim, Tüpütkä kiçig tegmädim, qurığaru Yinçü ögüz. Yaʼni: mamnun qildim. U endi yovuz emas, Turk xoqoni Oʻtukan yishda tursa, elda tashvish yoʻq. Shimolga Shantung koʻligacha qoʻshin tortdim, dengizga biroz yetmadim. Janubga

¹⁸¹Этимологический словарь тюркских языков. Том 9 (дополнительный). Этимологический словарь базисной лексики тюркских языков / Составитель Дыбо А.В. - Астана: Prosper Print, 2013. –С 31-40.

To‘quz arsangacha qo‘shin tortdim, Tuputga biroz yetmadim. G‘arbga Yinchi (Sir) daryoni¹⁸² Jūkūnūrmen bilge bilig paramit qutiņa Qop-ı arıy mūnegūsūz jig ökūš tip // Qopdın sınar burqan-lar-qa ögidilmiš Qolulaju ūlgūlejū bolyu-luy-suz Quruy bige bilig saņa jūkūnūrmen (Men hikmat fazilatining buyukligiga (inoyatiga) sajda qilaman, Har narsada sof, beg‘ubor, eng yaxshi, mo‘l-ko‘l (uni) hisobga olib, ulug‘langan, o‘lchab bo‘lmas hikmat-sizga ta‘zim qilaman!¹⁸³

Yuqoridagi ilmiy manbalardan olingan misollar hamda ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, *qopda* ham, *qamug‘da* ham jamlik, birgalik, qamrab olinganlik ma‘nolari mavjud. Bu qadimgi shakllar hozirda fonetik o‘zgarishlarga uchrab, *hamma* tarzida qo‘llanadi. Leksemaning shaklida o‘zgarish bo‘lgan, ammo uning semantikasi hech qanday o‘zgarishga uchramagan, qadimda qanday ma‘noda ishlatilgan bo‘lsa, hozir ham xuddi shunday ma‘noda ishlatiladi.

Semantik to‘rlar bugungi kunda kompyuter lingvistikasining faol tahlil usullaridan biri bo‘lgan sentiment tahlil metodlari uchun ham asos vazifasini bajaradi.

Semantik to‘rlar lisoniy birliklar o‘rtasidagi aloqadorlikni tarmoq usulida yoritishda, matnni tushunishda, pragmatik ma‘nosini anglatishda, fikr ifodasini aniqlashtirishda o‘ziga xos o‘rin tutadi¹⁸⁴.

Leksemalar tahlili jarayonida semantik to‘r metodini tatbiq etish lug‘aviy birliklar o‘rtasidagi aloqadorlikni, so‘z yasaliş xususiyatlarini, semantik taraqqiyot belgilarini yoritishda ahamiyatlidir.

1. Turkiy tillardagi ot-fe‘l omonimligiga asoslangan turkum sinkretizmi hodisasi tahlillariga, mavjud lug‘atlardagi izohlar asosida qap= leksemasida harakat-holat birlamchi ekanligini ta‘kidlash mumkin. Qap/qop ot leksemasi semantik usul asosida shu fe‘l asosidan yuzaga kelgan. Borliqda eng ko‘p tushuncha harakat-holat va narsa-buyumdur. Dastavval, fe‘l asoslardan otlar

¹⁸² Shu asar. –B. 93.

¹⁸³ Каиржанов А.К. Древнетюркские памятники письменности: открытия и исследования // Введение в тюркологию.- Астана: ЕНУ им. Л.Н.Гумилева, 2013.- С.28-62.

¹⁸⁴ Xolmanova Z. Semantik maydon va semantik to‘r imkoniyatlari. “Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim va istiqbollari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. –Toshkent, 2022. –B. 37-43.

shakllangan, qap fonetik qobig'iga oid ot leksemalar keyingi jarayonda yuzaga kelgan.

2. "Qap=" asosli ot leksemalar kiyim-kechak, narsa-buyum otlari bo'lib, zoonimlar, tana a'zolari nomlarida ham ishtirok etgan. Narsa-buyum otlari "qamrab olish", "ichi bo'sh", "ustma-ust qo'yish", "buyum" semantik uzvlari orqali birlashadi. "Qap=" asosidagi ot leksemalar struktur-grammatik, tarixiy jihatdan muayyan o'zgarishlarga uchragan.

3. "Qap=" asosli ot leksemalar barqaror birikmalar tarkibida kelib, axborot berishdan tashqari funksional-uslubiy vazifa bajaradi. Qap= va qap= asosli lug'aviy birliklar frazemalar tarkibida semantik mundarijasida semalarni ifoda etgan. Shu bilan bir qatorda so'z va tushuncha munosabatiga doir kognitiv-semantik xususiyatlarni namoyon qilgan. Qap= va qap= asosli lug'aviy birliklar maqol va matallar tarkibida kelib, umumiy didaktik mazmunni reallashtirishga xizmat qilgan.

4. Tilshunoslikning aniq fanlar, tabiiy fanlar bilan integratsiyasi bir qator metodlarning o'zbek tiliga tatbiq etilishiga omil bo'lmoqda. Hozirgacha amalga oshirilgan ishlarda semantik valentlik, semantik maydon tushunchalaridan til masalalarini tadqiq qilishda foydalanilmoqda. Semantik maydon tushunchalarni oson o'zlashtirishga, lisoniy ongda barqarorlashtirishga, mohiyatini anglashga xizmat qiladi.

Semantika masalalarini tahlil qilishda integratsiya asosidagi tahlil metodlaridan biri bo'lgan "semantik to'r" metodi tatbiq etilmoqda. Semantik to'r leksemalar o'rtasidagi aloqadorlik uzvlarini, zanjirlarini aniqlashga yordam beradi.

5. "Semantik to'r" tushunchasi XX asrning ikkinchi yarimlarida keng qo'llana boshlagan tushuncha bo'lib, bilimlarni tarmoqlangan grafik shaklida ifodalashga asoslanadi. Semantik to'rlar aniq fanlarda ko'proq amal qiladi. Semantik to'rlar, ayniqsa, leksemalar o'rtasidagi semantik munosabatlarni, mazmuniy aloqadorlikni yoritishda ham qulay imkoniyatlar yaratadi.

Semantik to'r ta'riflash, izohlash, aniqlash maqsadida qo'llanadi.

6. Barqaror birikmalar har bir tilning o'ziga xos murakkab birliklari hisoblanib, tilning tasviriylilik, ta'sirchanlik xususiyatlari, to'plash funksiyasini o'zida aks ettiradi.

Frazemalar barqaror birikmalar sifatida ikki yoki undan ortiq so'zlarning shakliy, ma'noviy birikishiga asoslangan semantik to'rlar hisoblanadi. Yaxlit bir umumiy ko'chma ma'no bir komponent atrofida jamlanadi va ma'no aloqadorligi mantiqiy to'r ko'rinishida shakllanadi.

Maqollar mazmuni ham semantik to'rlarga asoslanadi. Maqollar uzvi o'rtasidagi aloqadorlik ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan, anglangan, turmush tajribasida o'z isbotini topgan mazmundir.

Tilshunoslikda lug'aviy birliklarni lisoniy ongda barqarorlashtirish, tizimli ravishda joylashtirish, leksemalar o'rtasidagi semantik aloqadorlikni o'rganish, leksemalarning tarixiy genezisini yoritish; tarixiy ildizlarini aniqlash amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Semantika doirasida olib borilgan tadqiqotlar til sathlarining muhim jihatlarini, mazmun strukturasidagi o'zgarishlar, olam manzarasini lisoniy ongda aks ettirish imkoniyatlarini, milliy-madaniy munosabatning shakllanish omillarini tahlil qilishga qaratilgan. Semantika doirasida olib borilgan tadqiqotlar leksema semantik strukturasining ijtimoiy-turmush tarziga bog'liq ravishda va til egasining dunyoqarashi negizida dinamik tarzda rivojlanib borishini ko'rsatadi.

Leksik birliklarning struktur-semantik taraqqiyoti fonetik-fonologik, leksik, grammatik sath masalalari atrofida o'rganilgan. Semantika lingvistik soha sifatida tilning barcha sathlari uchun xos bo'lsa-da, semantik tahlillarda markaziy o'rinda tilning lug'aviy birliklari tahlili turadi. Semantik tahlillarning murakkabligi lug'aviy birliklarning ham so'z, ham tushuncha sifatida baholanishi, grammatik, pragmatik, kognitiv omillar bilan aloqadorlikdagi tahlillarsiz amalga oshmasligi bilan izohlanadi. Lingvistik semantikaning asosiy vazifalaridan biri nolisoniy voqelikning so'z ma'nosida qanday aks etayotganligi va o'zgarayotganligini aniqlashdan iboratdir.

Semantikaga doir aksariyat tadqiqotlarda tahlillar semantik maydon nazariyasi asosida olib borilgan. Semantik maydon leksemalar o'rtasidagi mazmuniy aloqadorlikka asoslanib,

soʻzlarning semantik taraqqiyotini aniqlashga, muayyan mavzuga doir tushunchalarning semantik maydondagi oʻrnini koʻrsatishga xizmat qiladi.

Semantikaga doir tadqiqotlar til birliklarning ijtimoiy funksiyalarini tahlil qilishda, kompyuter lingvistikasida qoʻllanayotgan sunʼiy intellekt, sentiment tahlil, tezaurus lugʻatlar uchun maʼlumotlar bazasini shakllantirishda ahamiyatlidir.

Dunyo tilshunosligida “bir xil tovush qobigʻiga ega til birliklari oʻrtasida aloqadorlik mavjud”ligi degan tushuncha asosida turkiy “qap=” va qap= asosli birliklar semantikasi tahlil qilindi. “Qap=” asosli lugʻaviy birliklar ijtimoiy-madaniy munosabatlar natijasida rus tili va boshqa tillarga oʻzlashgan. Rus tiliga oʻzlashgan “qap=” va qap= asosli birliklar semantikasida mazkur soʻzlarning hozirgi oʻzbek tilidagi maʼnolari bilan uygʻunlik mavjud.

Qap= asosli birliklar etimologiyasini yoritishda qadimgi turkiy til, eski oʻzbek adabiy tili manbalari faktik material vazifasini oʻtaydi. Mumtoz manbalarda va tarixiy lugʻatlarda qap= asosli lugʻaviy birliklar rang-barang semalarda qoʻllangan. Bu semalarning aksariyati hozirda qoʻllanayotgan qap= asosli birliklarda kuzatiladi. Ayrim semalar isteʼmoldan chiqqan, baʼzi soʻzlardagina saqlanib qolgan. Leksemalar semantik tarkibda ayrim semalarning shakllanishi keyingi davrlarga xosdir. Qap= asosli birliklar oʻzbek adabiy tili va shevalarda faol qoʻllanadi.

Qap= asosli leksemalar va shu leksemalar ishtirokidagi barqaror birikmalar 197tani tashkil etadi.

Qadimgi turkiy tilda yuzdan ortiq qap= asosidan shakllangan leksemalar qoʻllanib, shaxs harakati va faoliyati, jonzoʻtlar xatti-harakati, narsa-buyum, idish, sabzavot otlari va hokazo otlarni ifodalab keladi. Boshqa leksemalar bilan munosabatga kirishish jarayonida mazkur birliklar semantikasiga xos maʼnolar reallashgan. Qadimgi turkiy tilda yuzdan ortiq qap= asosidan shakllangan leksemalarning hozirgi oʻzbek tiliga munosabati ayrim leksemalarning oʻzgarishsiz, ayni shakllarda qoʻllanishi, semantik oʻzgarishlar bilan ishlatilishi, oʻzbek shevalarida qoʻllanishi va baʼzi birliklarning isteʼmoldan chiqqanligi bilan izohlanadi. Bu leksemalarda $p \rightarrow m$, $p \rightarrow w$ fonetik oʻzgarishlari kuzatiladi. Ularni

semantik jihatdan farqlash mumkin bo‘ladi. *Qap*= asosli leksemalarning tarixiy ma’nolari leksemalar semantik tarkibida saqlanib qolgan.

Qap= asosli leksemalar tahlili harakat va narsa-buyum ma’nosidagi *qap*= leksemalari mavjudligini ko‘rsatdi. Bu birliklar til tarixining keyingi davrlarida omonim sifatida baholanadi. Ammo shakllanishiga ko‘ra bir leksemaga mansub. Dastlab, muayyan jarayonni ifodalovchi harakat bildiruvchi *qap* fe’l-leksemasi yuzaga kelgan. Keyinchalik, shu leksemadan shakllangan narsa-buyumni ifodalovchi *qap* ot-leksemasi semantik usul bilan hosil bo‘lgan. Hozirgi vaqtda ular alohida mustaqil ikkita leksemaga ajralgan.

Qap/qop ot leksemasi semantik usul asosida harakat-holat ma’nosidagi shakldosh so‘zdan hosil bo‘lgan. *Qap*= asosli ot leksemalar kiyim-kechak, narsa-buyum otlari bo‘lib, zoonimlar, tana a’zolari nomlarida ham ishtirok etgan. Narsa-buyum otlari “qamrab olish”, “ichi bo‘sh”, “ustma-ust qo‘yish”, “buyum” semantik uzvlari orqali birlashadi. *Qap*= asosidagi ot leksemalar struktur-grammatik, tarixiy jihatdan muayyan o‘zgarishlarga uchragan.

Semantika masalalarini tahlil qilishda integratsiya asosidagi tahlil metodlaridan biri bo‘lgan “semantik to‘r” metodi tatbiq etilmoqda. Semantik to‘r leksemalar o‘rtasidagi aloqadorlik uzvlarini, zanjirlarini aniqlashga yordam beradi. Semantik to‘rlar aniq fanlarda ko‘proq amal qiladi. Lekin ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasidagi masalalarni ham semantik to‘rlar orqali ifodalash mumkin. Semantik to‘rlar, ayniqsa, leksemalar o‘rtasidagi semantik munosabatlarni, mazmuniy aloqadorlikni yoritishda qulay imkoniyatlar yaratadi.

Semantik to‘r ta’riflash, izohlash, aniqlash maqsadida qo‘llanadi.

Qap= asosli birliklar yuzdan ortiq leksemalarni qamrab oladi. Bu leksemalar *qap*= asosi atorofida o‘ziga xos semantik to‘rlarni hosil qiladi. Bu to‘rlar so‘zlar o‘rtasidagi aloqadorlik belgilariga ko‘ra bir necha guruhlariga bo‘linadi.

Barqaror birikmalar har bir tilning o‘ziga xos murakkab birliklari hisoblanib, tilning tasviriylilik, ta’sirchanlik xususiyatlari, to‘plash funksiyasini o‘zida aks ettiradi.

Frazemalar barqaror birikmalar sifatida ikki yoki undan ortiq soʻzlarning shakliy, maʼnoviy birikishiga asoslangan semantik toʻrlar hisoblanadi.

Maqollarni semantik toʻr asosida tahlil etish ular oʻrtasidagi oʻzaro aloqadorlik, bogʻliqlik, munosabatlar xarakterini tavsiflashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Ilmiy – metodologik manbalar

1. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом, шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.

2. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.: O‘zbekiston, 2021. – 464 б.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли фармони // Халқ сўзи, 2017 йил 8 февраль, №28 (6722).

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузини ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони. 2019 йил 21 октябр.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Фанлар академияси фаолияти, илмий-тадқиқот ишларини ташкил этиш, бошқариш ва молиялаштиришни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 2017 йил 17 февралдаги ПҚ-2789-сонли қарори.

http://www.lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3210647

II. Monografiyalar, ilmiy maqolalar, ilmiy-nazariy adabiyotlar:

6. Abdushukurov B. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: 2019.

7. Charles W. Kreidler. Ingliz semantikasi haqida. – Routledge, 1998

8. Dadaboyev H., Xolmanova Z. Turkiy tillarning siyosiy-tarixiy grammatikasi. – Toshkent, 2015.

9. Deutsche Bedcutungsforschung. – Germansche Philologie: Ergebnissc und Aufgaben. Festschrift fiir Obehahel. – Heidelberg. 1934. – P. 173-200.

10. Die Wortc des Wissens // Mitseilungen des Universitatsbundes. – Marburg. 1931;

11. Heller G., Macris J. Parametric linguistics Mauton and Co. TheHague. – Paris. 1967;

12.Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009.

13.Sanaqulov U. O‘zbek yozma adabiy tili fonetik, morfologik me’yorlarning ilk shakllanishi va taraqqiyoti bosqichlari. – Toshkent: Navro‘z, 2015.

14.Sprachliche Felder // Zeitschrift fur deutsche Bildung. - 1932. Bd. 8. Hf. 9. –P.417-425;

15.Trier J. Der deutsch Wortschats im Sinnbezirk des Verstandes. – Heidelberg. 1931;

16.Weisgerber L. Worn Weltbilder der deutschen Sprachc. – Dusseldorf. 1950.

17.Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (Yangi topilgan namunalar). – Toshkent: "Movarounnahr", 2004.

18.Xolmanova Z. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Sano-standart, 2013.

19.Абдурахманов И. Полисемия и антонимия прилагательных протяженности в современном узбекском литературном языке. – Ташкент, 1973.

20.Абдурахмонов Ғ. Қадимги туркий тил. –Тошкент: Ўқитувчи, 1992.

21.Абдурахмонов Ғ. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида. –Тошкент, 1999.

22.Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Морфология ва синтаксис. Тошкент: “Ўқитувчи”, 1973.

23.Абдушукуров Б. Қисаси Рабғузий лексикаси. Тошкент: “Akademiya”, 2008.

24. Азимов И., Раҳматов М. Қадимги туркий тил. –Тошкент, 2005.

25.Алиев А., Содиқов Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994.

26.Алмаматова Ш. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили. – Тошкент, 2008.

27.Апажев М.Д., Текуев М.М. К проблеме исследования тюркского вклада в русский язык//Сборник научных работ

аспирантов Кабардино-Балкарского ун-та.- Вып. II.- Нальчик, 1968.

28. Аракин В.Д. Тюркские лексические элементы в памятниках русского языка монгольского периода // ТВСЯ, 1974.

29. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. –Тошкент: Университет, 2007.

30. Асланов Г.Н. Тюркская лексика, связанная с наименованием лиц, в говорах русских поселенцев в Азербайджане // ТВСЯ, 1974.

31. Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. Тошкент: Фан, 1981.

32. Аширбоев С., Азимов И. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси (ўқув-услубий қўлланма). –Тошкент: Тошкент давлат педагогика университети, 2002.

33. Базарова Д. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка. –Тошкент: Фан, 1978.

34. Базарова Д., Шарипова К. Развитие лексики тюркских языков Средней Азии и Казахстана. –Тошкент: Фан, 1990.

35. Баскаков Н.А. Русские фамилии тюркского происхождения. –М.: Наука, 1979.

36. Баскаков Н.А. Тюркские языки.- М.: Изд-во вост. лит-ры, 1960.

37. Баскаков Н.А., Абаев В.И., Бертагаев Т.А., Бокарев Е.А., Добродомов И.Г., Лыткин В.И., Ожегов С.И., Ижакевич Г.П. Развитие и обогащение русского языка за счет заимствований из языков народов СССР//Взаимодействие и взаимообогащение языков народов СССР. –М.: Наука, 1969.

38. Баскаков Н.А. Русские фамилии тюркского происхождения. – М.: Наука, 1979.

39. Батманов Й. Язык енисейских памятников древнетюркской письменности. – Фрунзе: АН Киргизистан, 1959.

40. Бафоев Б. Кўхна сўзлар тарихи. – Тошкент: Фан, 1991.

41. Васильев Л.М. Семантика русского глагола. – М.: Вильямс, 1981.

- 42.Власичева В.В. Тюркизмы в современном английском языке. Вестн. Волгогр. гос. ун-та. Сер. 2, Языкозн. 2010. № 2
